O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“CHET TILLARNI O‘QITISHDA YANGI TENDENSIYALAR: INKLYUZIV TA’LIM VA EFL/ESPDA INNOVATSIYALAR”

MAVZUSIDAGI
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
TO‘PLAMI

2026-yil 10-aprel

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

“NEW TRENDS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: INCLUSIVE EDUCATION AND INNOVATIONS IN EFL/ESP”

Articles of International scientific- theoretical conference on
Aprel -10, 2026

Toshkent -2026

Articles of international scientific-theoretical conference on **“New trends in foreign language teaching: inclusive education and innovations in EFL/ESP”.** TSUOS. –2026. – 411p

Editor-in-Chief:
Marxabo Abdullayeva, PhD, Associate professor

Reviewer:
Saodat Saidakbarova, PhD, Associate Professor,
Head pf the Department of Western Languages

Editors:

Musoyev Anvar, Abidova Zilola, Raxmonberdiyeva Karima, Askarova Shakhnoza, Komilova Dildora, Jalolova Iroda, Artikova Lobar, Ergesheva Nazira, Yunisova Dildora, Khamrabayeva Shirin

The international scientific-theoretical conference entitled **“New Trends in Foreign Language Teaching: Inclusive Education and Innovations in EFL/ESP,”** organized by Tashkent State University of Oriental Studies, is devoted to the exploration of contemporary trends, innovative pedagogical approaches, and current issues in the field of foreign language education. The conference serves as an academic platform for discussing scholarly research related to inclusive practices in EFL/ESP instruction, artificial intelligence and digital technologies in language education, applied linguistics, pedagogical leadership, educational management, and intercultural communication. The proceedings volume comprises scientific articles addressing effective methodologies in language teaching, global competencies, and innovative educational technologies within modern educational contexts.

The authors are fully responsible for the content of the articles included in this proceedings volume, including the validity of scientific conclusions, factual accuracy, and any possible errors or shortcomings contained therein.

© Tashkent state university of Oriental studies

KIRISH SO‘ZI

Durbek SAYFULLAYEV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti prorektori,
professor

XXI asr globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti davri sifatida ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bugungi kunda nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish vositasi, balki shaxsning intellektual salohiyati, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi va global fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy jamiyatning ehtiyojlari esa xorijiy til ta’limidan innovatsion pedagogik yondashuvlarni, inklyuziv ta’lim tamoyillarini, sun’iy intellekt texnologiyalarini hamda raqamli platformalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashni talab qilmoqda. Shu ma’noda, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan tashkil etilgan “Chet tillarni o‘qitishda yangi tendensiyalar: inklyuziv ta’lim va efl/espda innovatsiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman zamonaviy til ta’limining dolzarb ilmiy va metodologik masalalarini muhokama qilishga bag‘ishlangan muhim akademik platforma hisoblanadi.

Bugungi filologik va pedagogik tafakkur an’anaviy til o‘qitish paradigmasidan kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan hamda multidissiplinar model sari o‘tmoqda. Endilikda xorijiy tilni o‘qitish jarayoni faqat grammatik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan chegaralanmay, balki talabaning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarda samarali muloqot olib borish va global madaniy makonda faol ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, EFL/ESP metodikasida kasbiy kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlarning rivojlanishi, CLIL, blended learning, flipped classroom va adaptive learning kabi zamonaviy metodlarning keng joriy etilishi til ta’limining mazmun-mohiyatini yangicha ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”. Ushbu strategik tamoyil asosida bugungi kunda xorijiy til ta’limini rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur anjuman doirasidagi ilmiy tadqiqotlar ham aynan shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda inklyuziv ta’lim masalasi xalqaro pedagogik hamjamiyatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof

etilmoqda. Ta’limda teng imkoniyatlarni yaratish, individual ehtiyojlarni hisobga olish, differensial va adaptiv metodlarni qo‘llash zamonaviy xorijiy til pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur anjumanda taqdim etilgan ilmiy maqolalar inklyuziv ta’limning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirish, EFL/ESP ta’limida innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish hamda ta’limda insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi xorijiy til ta’limida ham yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishiga olib kelmoqda. AI asosidagi platformalar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, virtual o‘quv muhiti va raqamli pedagogik vositalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi til o‘qitishning samaradorligini oshirish bilan birga, yangi metodologik izlanishlarni ham talab etmoqda. To‘plamdagi maqolalarda aynan ana shu jarayonlarning ilmiy tahlili, ularning afzallik va istiqbollari hamda ta’lim sifatiga ta’siri chuqur yoritilgan.

Mazkur ilmiy to‘plam nafaqat bugungi xorijiy til ta’limining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar majmui, balki kelajakdagi yirik ilmiy loyihalar uchun konseptual va metodologik asos vazifasini ham bajaradi. Unda ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar professor-o‘qituvchilar, filolog olimlar, doktorantlar, magistrantlar va yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Zero, til – xalqlarni birlashtiruvchi ma’naviy ko‘prik bo‘lsa, innovatsion va inklyuziv ta’lim esa zamonaviy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir.

Ishonamizki, mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari xorijiy til ta’limining xalqaro ilmiy maydondagi nufuzini oshirishga, zamonaviy pedagogik tafakkurni rivojlantirishga, ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga hamda Yangi O‘zbekistonning ilm-fan va ta’lim sohasidagi intellektual salohiyatini namoyon etishga munosib hissa qo‘shadi.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE TEACHING: OPPORTUNITIES AND PEDAGOGICAL BENEFITS IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Saidakbarova Saodat
Associate professor, Head of the Department Western languages,
Tashkent state University of oriental studies

Abstract: This article examines the role and significance of artificial intelligence (AI) in language teaching. Particular attention is given to the opportunities AI provides for teachers in developing countries such as Uzbekistan, including access to current academic resources, professional development, and more effective lesson planning. The paper discusses how AI can assist teachers in designing lesson plans, creating differentiated tasks, simplifying assessment processes, and promoting communicative competence.

Keywords: artificial intelligence, language teaching, pedagogy, lesson planning, digital education, communicative competence, professional development, AI technologies

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining til ta’limidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston sharoitida AI texnologiyalarining o‘qituvchilar uchun professional rivojlanish, zamonaviy ilmiy manbalarga kirish va darslarni samarali rejalashtirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada AI yordamida dars ishlanmalarini yaratish, differensial topshiriqlar tayyorlash, baholash jarayonlarini soddalashtirish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, til ta’limi, pedagogika, dars rejalashtirish, raqamli ta’lim, kommunikativ kompetensiya, professional rivojlanish, AI texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение искусственного интеллекта (AI) в обучении языкам. Особое внимание уделяется возможностям, которые AI предоставляет преподавателям в развивающихся странах, включая Узбекистан: доступ к современным научным ресурсам, профессиональное развитие и более эффективное планирование уроков. В статье анализируются способы использования AI для разработки учебных планов, создания дифференцированных заданий, упрощения процесса оценивания и развития коммуникативной компетенции учащихся.

Ключевые слова: искусственный интеллект, обучение языкам, педагогика, планирование уроков, цифровое образование, коммуникативная компетенция, профессиональное развитие, AI-технологии

Introduction: In recent years, artificial intelligence (AI) has become one of the most influential technologies shaping modern education. Its rapid development

has transformed many aspects of teaching and learning, particularly in the field of language education. From automated lesson planning and personalized learning materials to intelligent feedback systems and digital assessment tools, AI is increasingly being integrated into classroom practice around the world. As educational systems continue to adapt to technological innovation, language teachers are expected not only to understand these tools but also to use them effectively and responsibly.

For teachers in developing countries such as Uzbekistan, the emergence of AI presents significant professional opportunities. One of the major challenges faced by language educators has traditionally been limited access to current academic research, international methodological discussions, and professional development programs. AI technologies can help reduce these barriers by providing faster access to information, summarizing complex research, generating teaching materials, and supporting lesson preparation. In this way, AI functions not merely as a technological convenience, but as a bridge connecting teachers to global educational resources and pedagogical knowledge.

The field of language teaching is continuously evolving, requiring teachers to keep pace with developments in communicative language teaching, digital pedagogy, learner autonomy, and formative assessment. However, many teachers work under heavy workloads and time constraints, which limits opportunities for sustained professional learning. AI-assisted tools may help educators manage these challenges more efficiently by reducing routine tasks and allowing more time for meaningful interaction with learners. Furthermore, AI can support differentiated instruction by generating activities suited to different proficiency levels and learning needs.

Despite these advantages, the growing use of AI in education also raises important questions related to ethics, accuracy, critical thinking, and the role of the teacher. Concerns about overreliance on technology and the potential reduction of human interaction in learning environments continue to be widely discussed. Therefore, the integration of AI into language teaching should be approached critically and responsibly. AI should not replace teachers; rather, it should serve as a supportive instrument that enhances pedagogical effectiveness and professional development. This article aims to examine the role of artificial intelligence in language teaching, with particular attention to its practical benefits, professional opportunities, and pedagogical implications in the context of Uzbekistan and other developing educational environments.

Main Part: Artificial intelligence has become an increasingly valuable tool in modern language education. One of its most important contributions is improving teachers’ access to professional knowledge and educational resources. In many developing countries, including Uzbekistan, language teachers often face challenges such as limited access to recent research, international conferences, and modern teaching materials. AI technologies help reduce these limitations by allowing educators to quickly search for information, summarize academic articles, compare teaching methodologies, and identify practical classroom applications. As a result,

teachers can remain informed about current developments in communicative language teaching, digital pedagogy, formative assessment, and learner-centered instruction.

Another significant advantage of AI in language teaching is its role in lesson planning and material development. Preparing effective language lessons requires considerable time and effort. Teachers must select appropriate topics, define learning objectives, create activities, anticipate learner difficulties, and adapt materials to different proficiency levels. AI-assisted tools can simplify this process by generating draft lesson plans, discussion questions, vocabulary exercises, role plays, reading activities, and formative assessment tasks. For example, a teacher preparing a speaking lesson on travel can use AI to create warm-up activities, pair-work discussions, and communicative problem-solving tasks within minutes. This reduces routine workload and allows teachers to focus more on student interaction and pedagogical quality.

AI technologies also support differentiated instruction and personalized learning. In many classrooms, students have different language abilities, learning styles, and educational backgrounds. Traditional teaching methods may not always address these individual differences effectively. AI can help teachers design activities suited to learners at different levels by adapting task complexity, vocabulary range, and instructional support. Additionally, AI-powered educational platforms can provide immediate feedback, track student progress, and recommend personalized exercises, which may increase learner motivation and autonomy.

Furthermore, AI contributes to the development of teachers’ professional skills. Language educators can use AI tools to improve academic writing, prepare presentations, translate materials, and participate in international academic communication more confidently. This is particularly beneficial for non-native English-speaking teachers who may experience difficulties accessing global scholarly discussions. Through AI-supported technologies, teachers can become more active participants in international educational communities and professional networks.

Despite these benefits, the integration of AI into education also presents several challenges and concerns. One of the major issues is the reliability and accuracy of AI-generated information. AI systems may sometimes produce inaccurate, oversimplified, or biased content, which requires teachers to critically evaluate all generated materials before using them in the classroom. Ethical concerns related to privacy, data security, and academic integrity are also important. Excessive dependence on AI may reduce opportunities for critical thinking, creativity, and authentic human interaction if technology is used without pedagogical balance.

For this reason, AI should be viewed as a supportive educational tool rather than a replacement for teachers. Human teachers remain essential because effective language learning depends not only on information delivery but also on empathy, communication, motivation, and social interaction. AI can assist with routine and

technical tasks, but pedagogical decision-making and meaningful classroom engagement still require human expertise and professional judgment.

In conclusion, artificial intelligence has become an important and transformative element in modern language education. Its growing role in lesson planning, material development, professional learning, and personalized instruction demonstrates that AI can significantly support both teachers and learners. For educators in developing countries such as Uzbekistan, AI offers valuable opportunities to access current academic knowledge, improve teaching efficiency, and participate more actively in global educational discussions.

At the same time, the integration of AI into language teaching should be approached carefully and responsibly. Although AI can reduce routine workload and provide useful pedagogical support, it cannot replace the human qualities that are central to effective teaching, such as empathy, creativity, communication, and professional judgment. Teachers must critically evaluate AI-generated content and ensure that technology is used ethically and meaningfully within the educational process.

Therefore, the future of language teaching should not be viewed as a conflict between traditional pedagogy and modern technology. Instead, AI should be understood as a supportive instrument that enhances educational quality and expands professional opportunities for teachers. When used critically and responsibly, artificial intelligence can contribute to more accessible, efficient, and learner-centered language education.

REFERENCES

1. Celik, I., Dindar, M., Muukkonen, H., & Järvelä, S. (2022). The promises and challenges of artificial intelligence for teachers: A systematic review of research. TechTrends. https://link.springer.com/article/10.1007/s11528-022-00715-y

2. Dogan, S., Nalbantoglu, U. Y., Celik, I., et al. (2025). Artificial intelligence professional development: A systematic review of TPACK, designs, and effects for teacher learning. Professional Development in Education. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/19415257.2025.2454457

3. Hashem, R., Ali, N., El Zein, F., Fidalgo, P., et al. (2024). AI to the rescue: Exploring the potential of ChatGPT as a teacher ally for workload relief and burnout prevention.

4. Hutson, J. (2025). The adoption of artificial intelligence and inertia in higher education: Exploring complex resistance to technological change. https://books.google.com/books?id=wh12EQAAQBAJ

5. Karayer, M. S. (2024). Exploring English Language Teachers’ Views on the Use of Artificial Intelligence Tools for Promoting Well-Being. https://search.proquest.com/openview/7653ae7bd87932d5e12c997c462213e8/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2026366&diss=y

6. Koraishi, O. (2025). Cultivating AI literacy among educators through an AI-enhanced language teaching workshop. https://acikerisim.uludag.edu.tr/entities/publication/da32f065-ba31-4299-af99-f57f0e4400d4

7. Laoha, R., Chomthong, W., & Pongpanich, W. (2025). Artificial Intelligence and English as a Foreign Language Teachers’ Competencies: A Systematic Review. Higher Education Studies. https://eric.ed.gov/?id=EJ1482486

8. Marsalek, R., & Teplá, M. (2026). “Is AI Inevitable?” Development of Attitudes and Practices of Czech Teachers Between 2023 and 2025. Education Sciences. https://www.mdpi.com/2227-7102/16/2/335

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA XORIJIY TILNI MUSTAQIL O‘QITISH VA O‘RGANISH IMKONIYATLARI

Raxmonberdiyeva Karima
p.f.n., dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni mustaqil o‘qitish va o‘rganish jarayonidagi o‘rni hamda imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt asosidagi platformalar va dasturlar ta’lim oluvchilarga individual yondashuv, tezkor fikr-mulohaza, interaktiv mashqlar hamda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Maqolada AI vositalarining tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, vaqtni tejash va til o‘rganish samaradorligini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida AI texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi afzalliklari bilan bir qatorda, ulardan foydalanishda tanqidiy yondashuv va pedagogik nazorat zarurligi ham ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, xorijiy til o‘qitish, raqamli ta’lim, AI texnologiyalari, til o‘rganish, interaktiv platformalar

Abstract: This article examines the role and possibilities of artificial intelligence technologies in the independent teaching and learning of foreign languages. In the modern digital educational environment, AI-based platforms and applications provide learners with individualized instruction, instant feedback, interactive exercises, and opportunities for effective self-directed learning. The article highlights the advantages of AI tools in developing listening, speaking, reading, and writing skills. It also discusses the role of artificial intelligence in increasing learners’ motivation, saving time, and improving the overall effectiveness of language acquisition. Along with the benefits of AI technologies in education, the study emphasizes the importance of critical thinking, pedagogical supervision, and responsible use of these technologies in the learning process.

Keywords: artificial intelligence, independent learning, foreign language teaching, digital education, AI technologies, language learning, interactive platforms

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и возможности технологий искусственного интеллекта в самостоятельном обучении и преподавании иностранных языков. В условиях современной цифровой

образовательной среды платформы и программы, основанные на искусственном интеллекте, предоставляют обучающимся индивидуальный подход, оперативную обратную связь, интерактивные задания и возможности для эффективного самостоятельного обучения. В статье освещаются преимущества AI-инструментов в развитии навыков аудирования, говорения, чтения и письма. Также рассматриваются вопросы повышения мотивации обучающихся, экономии времени и повышения эффективности изучения языка с помощью искусственного интеллекта. Наряду с преимуществами AI-технологий в образовательном процессе подчеркивается необходимость критического подхода, педагогического контроля и ответственного использования данных технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, самостоятельное обучение, преподавание иностранных языков, цифровое образование, AI-технологии, изучение языка, интерактивные платформы.

Kirish: So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (Artificial Intelligence — AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan zamonaviy ta’lim muhiti o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish hamda mustaqil ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish dolzarb ilmiy va pedagogik masalalardan biriga aylangan. Chunki bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni mukammal egallash xalqaro kommunikatsiya, akademik mobillik va kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘p hollarda vaqt, metodik ta’minot va individual yondashuvning yetishmasligi bilan cheklanib kelgan. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar esa ushbu muammolarni qisman bartaraf etish imkonini bermoqda. Xususan, AI texnologiyalari yordamida til o‘rganuvchilar o‘z bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajarishi, avtomatik baholash tizimlari orqali tezkor fikr-mulohaza olishi hamda o‘quv jarayonini mustaqil boshqarishi mumkin. Bu esa ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ChatGPT, Duolingo, Grammarly, Google Translate kabi AI vositalari xorijiy tillarni o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘quv materiallarini individuallashtirish, ta’lim jarayonini moslashtirish va o‘qituvchining metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega.

Shu bilan birga, AI texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, axborotning ishonchliligi, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik kabi masalalar ilmiy

muhokama qilinmoqda. Shu sababli sun’iy intellektdan foydalanish pedagogik nazorat, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi sun’iy intellekt asosida xorijiy tilni mustaqil o‘qitish va o‘rganish imkoniyatlarini tahlil qilish, AI texnologiyalarining pedagogik afzalliklarini yoritish hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism: Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish jarayonida innovatsion pedagogik vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta’limni tashkil etishda AI asosidagi platformalar ta’lim samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini bermoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini moslashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy til ta’limida mustaqil o‘rganish jarayoni o‘quvchining o‘z ustida ishlashi, bilimlarni mustaqil ravishda egallashi va amaliy qo‘llay olishi bilan xarakterlanadi. An’anaviy usullarda o‘quvchi ko‘pincha o‘qituvchi nazoratiga bog‘liq bo‘lsa, AI texnologiyalari yordamida ta’lim oluvchi mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Masalan, ChatGPT, Duolingo, Grammarly va boshqa AI platformalari foydalanuvchilarga til ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirish uchun interaktiv topshiriqlar, real vaqt rejimidagi fikr-mulohazalar hamda avtomatik baholash tizimlarini taklif etadi.

Sun’iy intellektning muhim afzalliklaridan biri ta’limning individuallashtirilgan modelini yaratish imkoniyatidir. Har bir o‘quvchi bilim darajasi, qiziqishi va o‘rganish tezligi jihatidan farq qiladi. AI tizimlari esa foydalanuvchining faoliyatini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni tavsiya etadi. Bu esa o‘quvchining motivatsiyasini oshirib, til o‘rganish samaradorligini kuchaytiradi. Tadqiqotchilar adaptiv ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar.

Bundan tashqari, AI vositalari xorijiy tilning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali xizmat qiladi. Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sun’iy intellekt asosidagi audio platformalar va virtual suhbat tizimlari qo‘llaniladi. Gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda esa AI chatbotlar o‘quvchiga real kommunikativ muhit yaratib beradi. Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda Grammarly kabi dasturlar grammatik xatolarni aniqlash, uslubiy tavsiyalar berish va matn sifatini yaxshilash imkonini beradi. O‘qish ko‘nikmalarida esa AI matnlarni mos darajada soddalashtirish va lug‘aviy yordam ko‘rsatish orqali o‘quv jarayonini yengillashtiradi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchilar uchun ham metodik yordam vositasi sifatida muhimdir. O‘qituvchilar AI yordamida dars ishlanmalari tayyorlash, testlar yaratish, interaktiv mashqlar ishlab chiqish va o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa vaqtni tejash bilan bir qatorda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, katta auditoriyalar bilan ishlashda AI asosidagi avtomatik baholash tizimlari o‘qituvchi yuklamasini kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Biroq, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. AI tizimlari ba’zan noto‘g‘ri yoki ishonchsiz ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Bundan tashqari, texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik o‘quvchilarning mustaqil tahlil qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Akademik halollik masalalari, plagiat va ma’lumotlar xavfsizligi ham AI texnologiyalaridan foydalanishda e’tibor talab qiladigan muhim omillardandir.

Umuman olganda, sun’iy intellekt xorijiy tillarni mustaqil o‘qitish va o‘rganishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Uning samarali qo‘llanilishi ta’limning sifati, qulayligi va interaktivligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni mustaqil o‘qitish va o‘rganish jarayonida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy AI platformalari ta’lim oluvchilarga individual yondashuv, tezkor fikr-mulohaza, interaktiv mashqlar va moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mustaqil ta’lim jarayonida sun’iy intellekt o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish hamda xorijiy til kompetensiyalarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI texnologiyalari tinglab tushunish, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun metodik yordam vositasi sifatida darslarni rejalashtirish, baholash va ta’lim jarayonini tashkil etishda qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda vaqt va resurslarni tejashga ham yordam beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik nazorat va tanqidiy yondashuv muhim hisoblanadi. AI tizimlari tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, akademik halollikni ta’minlash hamda texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlikning oldini olish zarur. Chunki sun’iy intellekt o‘qituvchini to‘liq almashtira olmaydi; u faqat ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi va samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Demak, sun’iy intellekt asosida xorijiy tilni mustaqil o‘qitish va o‘rganish zamonaviy ta’limning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning samarali va mas’uliyatli qo‘llanilishi kelajakda ta’lim tizimining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmed, S., Khan, M., & Rahman, T. (2025). Artificial Intelligence in Language Education: Opportunities and Challenges. Journal of Educational Technology, 18(2), 45–58.

2. Pedro, F., Subosa, M., Rivas, A., & Valverde, P. (2019). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. UNESCO Publishing.

3. Schmidt, T., & Strasser, T. (2022). Artificial Intelligence in Foreign Language Learning and Teaching. Language Learning & Technology, 26(1), 1–15.

4. Sharadgah, T., & Sa’di, R. (2022). Utilization of Artificial Intelligence in Teaching and Learning English Language: A Systematic Review. Computer Assisted Language Learning Electronic Journal, 23(1), 1–24.

5. Fotima Kuldosheva Foreign language and literature (English) faculty Master's student at Tashkent State University of Oriental Studies Scientific Advisor: Karima Rakhmonberdiyeva, Phd. (2026). COMMON PROBLEMS CENTRAL ASIAN STUDENTS FACE IN ACADEMIC ENGLISH WRITING. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.18942619

XORIJIY TIL DISKURSLARIDA TARIXIY ATAMALARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva
G’arb tillari kafedrasi dotsenti, PhD,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
https://orcid.org/0000-0001-9868-599X

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalarning lingvopragmatik xususiyatlari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarix yo‘nalishi talabalari misolida tahlil qilinib, tarixiy terminologiyaning semantik tuzilishi, kontekstual funksiyasi hamda ideologik va madaniy konnotatsiyalarini aniqlashga qaratilgan. Xorijiy til (asosan ingliz tili) akademik va publitsistik diskurslari asosida tarixiy atamalarning ma’no kengayishi, torayishi hamda diskursiv transformatsiyasi ko‘rib chiqiladi. Lingvopragmatik yondashuv asosida tarixiy atamalarning kommunikativ strategiya, muallif pozitsiyasi va adresatga ta’sir mexanizmlaridagi roli tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *xorijiy til diskursi, lingvopragmatika, akademik diskurs, terminologik kompetensiya, interkultural kommunikatsiya, diskurs tahlili.*

Abstract: This article analyzes the linguo-pragmatic features of historical terminology in foreign language discourse based on the example of History students at Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. The study aims to identify the semantic structure, contextual function, as well as the ideological and cultural connotations of historical terms. Drawing on academic and journalistic discourse in a foreign language (primarily English), the research examines semantic expansion, narrowing, and discursive transformation of historical terminology. Within the framework of the linguo-pragmatic approach, the role of historical terms in communicative strategies, authorial stance, and mechanisms of influence on the addressee is analyzed. The findings demonstrate the importance of developing terminological competence and discourse awareness among history students in the context of foreign language communication.

Keywords: *foreign language discourse, linguo-pragmatics, academic discourse, terminological competence, intercultural communication, discourse analysis.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности исторической терминологии в иноязычном дискурсе на примере студентов исторического направления Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Исследование направлено на выявление семантической структуры, контекстуальной функции, а также идеологических и культурных коннотаций исторических терминов. На материале академического и публицистического дискурса (преимущественно на английском языке) анализируются процессы семантического расширения, сужения и дискурсивной трансформации исторической терминологии. В рамках лингвопрагматического подхода рассматривается роль исторических терминов в формировании коммуникативной стратегии, выражении авторской позиции и механизмах воздействия на адресата. Результаты исследования подчеркивают значимость развития терминологической компетенции и дискурсивной осведомленности у студентов-историков в условиях иноязычной коммуникации.

Ключевые слова: *иноязычный дискурс, лингвопрагматика, академический дискурс, терминологическая компетенция, межкультурная коммуникация, дискурс-анализ.*

Kirish qismi: Globallashuv jarayonlari va xalqaro ilmiy integratsiya tarix fanida xorijiy til diskursining ahamiyatini keskin oshirmoqda. Zamonaviy tarixchi nafaqat milliy manbalar bilan, balki ingliz va boshqa xorijiy tillardagi akademik, publitsistik hamda siyosiy matnlar bilan ham ishlash kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur. Bu jarayonda tarixiy atamalar alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat nominativ birlik, balki muayyan davr, mafkura va madaniy kontekstni ifodalovchi diskursiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Lingvopragmatik yondashuvga ko‘ra, til birliklari faqat leksik-semantik ma’no bilan cheklanmay, balki kommunikativ maqsad, kontekst va adresat omillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan tarixiy atamalar xorijiy til diskursida ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘lib, ular ma’no kengayishi, torayishi yoki ideologik konnotatsiya kasb etishi mumkin. Xususan, bir xil tarixiy termin turli madaniy yoki siyosiy diskurslarda turlicha talqin qilinishi kuzatiladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarix yo‘nalishi talabalari misolida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy til matnlarida tarixiy atamalarni to‘g‘ri anglash va interpretatsiya qilish jarayoni ko‘pincha semantik va pragmatik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa terminologik kompetensiya va diskursiv tahlil ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish zaruratini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning tarix yo‘nalishi talabalari tomonidan anglanish va qo‘llanish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari tarixchilarni tayyorlash jarayonida terminologik va diskursiv kompetensiyani integratsiyalashgan holda shakllantirishning ilmiy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalar ko‘pincha nafaqat nominativ birlik, balki ideologik va baholovchi yuklama tashuvchi vosita sifatida

namoyon bo‘ladi. Ularning lingvopragmatik xususiyatlari kontekst, janr va kommunikativ maqsadga qarab o‘zgaradi.

Masalan, ingliz tilidagi *“revolution”* atamasini olaylik. Akademik tarixiy diskursda bu termin aniq ilmiy tushunchani — siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy tizimdagi tub o‘zgarishni — bildiradi. Bunday kontekstda termin neytral va konseptual mazmunga ega bo‘ladi:

The Industrial Revolution fundamentally transformed economic structures in Europe.

Bu yerda “Industrial Revolution” atamasi tarixiy jarayonni ilmiy asosda ifodalaydi va dalillarga tayangan narrativ qurilishiga xizmat qiladi.

Biroq publitsistik yoki siyosiy diskursda *“revolution”* so‘zi emotsional va baholovchi konnotatsiya kasb etishi mumkin:

This reform marks a revolution in modern governance.

Bu holatda termin metaforik qo‘llanib, real tarixiy hodisani emas, balki yangilikning kuchli ta’sirini ifodalash vositasiga aylanadi. Demak, atama lingvopragmatik transformatsiyaga uchraydi va muallifning ta’sirchanlik strategiyasini amalga oshiradi.

Yana bir misol sifatida *“colonialism”* atamasini ko‘rib chiqish mumkin. Akademik diskursda u tarixiy jarayon sifatida aniqlanadi:

Colonialism reshaped political boundaries and economic systems across continents.

Bu yerda termin faktologik va ilmiy xarakterga ega. Ammo siyosiy diskursda u salbiy ideologik konnotatsiya bilan qo‘llanishi mumkin:

The policy has been criticized as a new form of colonialism.

Bu misolda termin metaforik va baholovchi ma’no kasb etib, muallifning tanqidiy pozitsiyasini ifodalaydi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarix yo‘nalishi” talabalari bilan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalar ko‘pincha terminning lug‘aviy ma’nosini to‘g‘ri anglasalar-da, uning kontekstual va pragmatik yuklamasini aniqlashda qiyinchilikka duch keladilar. Masalan, *“empire”* atamasini ular ko‘pincha faqat “imperiya” sifatida tarjima qiladilar, biroq ingliz tilidagi ayrim matnlarda bu so‘z kuch, hukmronlik yoki global ta’sir metaforasi sifatida qo‘llanishi mumkin:

The company built a media empire.

Bu holatda “empire” tarixiy-siyosiy termin emas, balki metaforik diskurs vositasiga aylangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy atamalarni lingvopragmatik jihatdan o‘rganish uch bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Termin semantik yadrosini aniqlash;
2. Kontekstual o‘zgarishni tahlil qilish;
3. Kommunikativ maqsad va muallif pozitsiyasini belgilash.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday tahlil talabalarda nafaqat terminologik aniqlikni, balki analitik fikrlash va diskursiv kompetensiyani ham rivojlantiradi. Xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalarning lingvopragmatik xususiyatlarini

misollar asosida o‘rganish tarix yo‘nalishi talabalari uchun samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarix yo‘nalishi talabalari (N = 40) ishtirokida olib borildi. Talabalar teng ravishda nazorat (n = 20) va tajriba (n = 20) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida 6 haftalik lingvopragmatik tahlilga asoslangan mashg‘ulotlar o‘tkazildi, nazorat guruhida esa tarixiy atamalar an’anaviy izoh va tarjima usuli orqali o‘rgatildi, baholash 100 ballik mezon asosida amalga oshirilganligi 1- jadvalda berilgan.

1- jadval

Guruh	**Pre-test**	**Post-test**	**O‘sish**
Nazorat	58	64	+6
Tajriba	57	78	+21

Pre-test natijalari guruhlarning boshlang‘ich darajasi deyarli bir xil ekanini ko‘rsatadi (58 va 57 ball). Bu eksperimentning obyektiv boshlanganini anglatadi. Post-test natijalarida esa tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatildi. O‘rtacha ball 57 dan 78 ga ko‘tarildi (+21 ball). Nazorat guruhida esa o‘sish 6 ball bilan cheklangan.

Nazorat guruhi: 10% o‘sish

Tajriba guruhi: 37% o‘sish

Bu ko‘rsatkichlar lingvopragmatik yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini aniq ko‘rsatadi. Tajriba guruhidagi o‘sish nazorat guruhiga nisbatan qariyb uch baravar yuqoriladi va quyidagi jadvalda berilgan.

2- jadval

Ko‘nikma	**Nazorat**	**Tajriba**
Termin ma’nosini aniqlash	+9%	+30%
Kontekstual/pragmatik talqin	+7%	+35%
Akademik yozuvda qo‘llash	+8%	+28%

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eng katta o‘sish kontekstual va pragmatik talqin ko‘nikmasida kuzatilgan (+35%). Bu natija lingvopragmatik metodikaning asosiy maqsadi — terminning diskursiv funksiyasini anglash — muvaffaqiyatli amalga oshganini ko‘rsatadi.

Nazorat guruhida esa terminlar asosan lug‘aviy darajada o‘zlashtirilgan, ularning konnotativ va ideologik ma’nolari yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Tajriba guruhi talabalarining yozma ishlari tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi:

tarixiy atamalar matn kontekstida izchil talqin qilingan;

metaforik va baholovchi qo‘llanishlar to‘g‘ri aniqlangan;

muallifning kommunikativ strategiyasi asoslangan holda izohlangan.

Nazorat guruhida esa terminlar ko‘proq tarjima darajasida qolgan, diskursiv tahlil chuqurligi past bo‘lgan.

Lingvopragmatik yondashuv tarixiy atamalarni xorijiy til diskursida anglash va qo‘llash kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tajriba guruhidagi yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi va mazkur natijalar tarix yo‘nalishi talabalari uchun terminologik, analitik va diskursiv kompetensiyani integrativ tarzda shakllantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa qismi: Mazkur tadqiqot xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tarix yo‘nalishi talabalari tomonidan anglash va qo‘llash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy atamalar xorijiy til matnlarida faqat nominativ birlik sifatida emas, balki ko‘p qatlamli semantik va pragmatik yuklamaga ega diskursiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning ma’nosi kontekst, janr, muallif pozitsiyasi va kommunikativ maqsadga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Tadqiqot natijalari lingvopragmatik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni tarixiy atamalarning semantik yadrosini aniqlash, kontekstual talqin qilish va ularni akademik nutqda adekvat qo‘llash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Oddiy statistik tahlil natijalari tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, tarixiy terminlarning konnotativ va ideologik ma’nolarini anglash hamda diskursiv funksiyasini aniqlash ko‘nikmasida sezilarli o‘sish qayd etildi.

Sifat tahlili esa talabalar tomonidan tarixiy atamalarning metaforik, baholovchi va argumentativ funksiyalarini to‘g‘ri talqin qilish ko‘rsatkichlari oshganini namoyon etdi. Bu esa lingvopragmatik tahlil metodikasining nafaqat terminologik kompetensiyani, balki analitik fikrlash, tarixiy tafakkur va akademik yozuv ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot xorijiy til diskurslarida tarixiy atamalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tizimli o‘rganish tarix yo‘nalishi talabalari uchun zarur metodologik asos ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur yondashuv tarixchilarni tayyorlash jarayonida terminologik, diskursiv va kommunikativ kompetensiyani integrativ tarzda shakllantirish imkonini beradi hamda ularning xalqaro akademik makonda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, M. R. others. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity. Journal Power System Technology ISSN, 1000-3673.
2. Abdullayeva, M., & Bekmahammadova, F. (2025). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA SUNIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 12(01), 136-137.
3. Fairclough, N. (2015). Language and Power (3rd ed.). London: Routledge.
4. Wodak, R., & Meyer, M. (2016). Methods of Critical Discourse Studies (3rd ed.). London: Sage.
5. van Dijk, T. A. (2008). Discourse and Power. New York: Palgrave Macmillan.
6. Швейцер, А. Д. (1988). Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. Москва: Наука.
7. Бархударов, Л. С. (1975). Язык и перевод. Москва: Международные отношения.
8. Махмудов, Н. М. (2011). Til va nutq madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

9. Нурмонов, А. (2012). Lingvistik tadqiqotlar nazariyasi. Toshkent: Akademnashr.

10. Yakhshimuratova, S., & Abdullayeva, M. (2025). THE METHOD OF CROSS-CULTURAL COMPARISON IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS. IQRO INDEXING, 19 (01), 482-485.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI

Abidova Zilola Xabibullayevna
https://orcid.org/0000-0002-3013-0063
G‘arb tillari kafedrasi Phd, katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida frazeologik birliklardan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi filologiya yo‘nalishida ingliz tilini ikkinchi fan sifatida o‘rganayotgan talabalarga frazeologik birliklar asosida til o‘qitish samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, semantik tahlil va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar frazeologik birliklardan foydalanish talabalarning lug‘at boyligini kengaytirishi, nutqning tabiiyligini oshirishi hamda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik birliklar, ingliz tili, til o‘qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, lingvokulturologiya.*

Abstract. This article analyzes the methodological foundations of using phraseological units in the process of teaching English. The main purpose of the study is to determine the effectiveness of teaching English through phraseological units to students of philological specialties who study English as a second foreign language. In the course of the research, comparative analysis, semantic analysis, and pedagogical observation methods were applied. The results of the study show that the use of phraseological units contributes to the expansion of students’ vocabulary, increases the naturalness of speech, and positively affects the development of communicative competence. The findings of the study are important for improving the methodology of teaching English.

Keywords: *phraseology, phraseological units, English language, language teaching methodology, communicative competence, linguoculturology.*

Аннотация. В данной статье анализируются методические основы использования фразеологических единиц в процессе обучения английскому языку. Основная цель исследования заключается в определении эффективности преподавания английского языка с использованием фразеологических единиц для студентов филологических направлений, изучающих английский язык как второй иностранный язык. В ходе

исследования были использованы сравнительно-аналитический метод, семантический анализ и метод педагогического наблюдения. Полученные результаты показали, что использование фразеологических единиц способствует расширению словарного запаса студентов, повышению естественности речи, а также положительно влияет на развитие коммуникативной компетенции. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования методики преподавания английского языка.

Ключевые слова: фразеология, фразеологические единицы, английский язык, методика преподавания языка, коммуникативная компетенция, лингвокультурология.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarni samarali o‘qitish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish va tilni chuqur o‘zlashtirishga yordam beruvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til o‘rganish jarayonida grammatik va leksik bilimlar bilan bir qatorda tilning madaniy va semantik xususiyatlarini ham o‘zlashtirish zarur. Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Ular nutqni obrazli va ifodali qilish bilan birga, til egalarining dunyoqarashi va madaniyatini ham namoyon etadi.

Filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun frazeologik birliklarni o‘rganish til kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga lingvokulturologik bilimlarni ham boyitadi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitish jarayonida frazeologik birliklardan foydalanish metodikasini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda barqaror birikmalar va ularning semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Frazeologik birliklar tilning obrazliligi va ifodaviyligini ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Frazeologiya masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik yaxlitlikka ega barqaror birliklar sifatida tasniflagan (Vinogradov, 1977). Kunin esa ingliz frazeologiyasini tizimli ravishda tahlil qilib, frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlarini o‘rgangan (Kunin, 1984).

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida frazeologik birliklarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. McCarthy va O’Dell (2010) idiomlar nutqni yanada tabiiy va ifodali qilishini ta’kidlaydi. Nation (2001) esa frazeologik birliklar lug‘at boyligini oshirishning muhim manbalaridan biri ekanligini qayd etadi. Richards va Rodgers (2014) kommunikativ yondashuv asosida til o‘qitishda frazeologik birliklardan foydalanish talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Metodologiya. Tadqiqotda **miqdoriy va sifat tahlili** (mixed methods) uslubidan foydalanildi. Metodologik asos sifatida M. Lyuisning **Leksik yondashuv** (Lexical Approach) nazariyasi tanlandi. Jarayon uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Saralash:** B1-B2 darajasidagi o‘quvchilar uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan 50 ta somatik va animalistik idiomalar tanlab olindi.
2. **O‘qitish texnikasi:** An’anaviy yodlash o‘rniga **Dual Coding Theory** (ikki tomonlama kodlash) asosida vizualizatsiya, iboralarning kelib chiqish tarixi (etimologiya) va ularni matn ichida qo‘llash (kontekstual tahlil) usullari tatbiq etildi.
3. **Baholash:** Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida testlar va nutqiy vaziyatlar orqali o‘zlashtirish darajasi qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan eksperimental darslar va yakuniy testlar quyidagi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini namoyon etdi:

- **O‘zlashtirish ko‘rsatkichi:** Interaktiv metodlar (etimologik tahlil va vizualizatsiya) qo‘llanilgan tajriba guruhida o‘quvchilarning yangi iboralarni o‘zlashtirish darajasi **82%** ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, an’anaviy "ro‘yxat bo‘yicha yodlash" usulida dars o‘tilgan nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi **38%** bo‘ldi.
- **Nutqiy amaliyot:** Tajriba guruhi o‘quvchilari berilgan vaziyatli (situational) dialoglarda idiomalarning **70%** dan ortig‘ini kontekstga mos va uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashga muvaffaq bo‘lishdi. Nazorat guruhida esa o‘quvchilar iboralarni bilishsa-da, ularni jonli nutqqa olib kirishda qiynaldilar (ko‘rsatkich **15%**).
- **Xotirada saqlash:** Ikki haftalik tanaffusdan so‘ng o‘tkazilgan kutilmagan (delayed) test natijalari shuni ko‘rsatdiki, **Dual Coding Theory** (ikki tomonlama kodlash) asosida o‘rgangan o‘quvchilar materialning **75%** qismini eslab qolishgan. Bu ushbu metodikaning uzoq muddatli xotira uchun samaradorligini isbotlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklarni o‘qitishda **leksik bloklar (chunks)** sifatida yondashish o‘quvchining nutqiy ravonligini (fluency) oshirishning eng qisqa yo‘lidir.

1. **Kognitiv assotsiatsiya:** Iboraning kelib chiqish tarixi (etimologiyasi) o‘quvchida obrazli tafakkurni uyg‘otadi. Masalan, "To burn the midnight oil" iborasini qadimgi moychiroqlar bilan bog‘lab tushuntirish, o‘quvchining miyasida vizual zanjir yaratadi va so‘zma-so‘z tarjimadan qochishga yordam beradi.
2. **Pragmatik kompetensiya:** Muhokamalar jarayonida aniqlandiki, o‘quvchilar ko‘pincha idiomalarning ma’nosini bilsalar-da, ularni qayerda qo‘llashni (rasmiy yoki norasmiy) anglamaydilar. Kontekstual mashqlar (masalan, kino fragmentlari tahlili) o‘quvchiga uslubiy chegaralarni his qilish imkonini berdi.
3. **Motivatsion omil:** Gamifikatsiya (Quizlet, Wordwall) va vizual kartochkalar darsning emotsional bo‘yog‘ini oshirib, til o‘rganuvchilarning frazeologiyaga bo‘lgan qo‘rquvini (idiomatic anxiety) bartaraf etdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar orqali ingliz tilini o‘qitish o‘quvchining nafaqat lug‘at boyligini, balki madaniyatlararo muloqot qobiliyatini ham shakllantiradi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, samarali metodika — bu shunchaki ma’no berish emas, balki **vizualizatsiya, etimologiya va real kontekst** sintezidir.

Metodikaning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq:

- Materiallarning o‘quvchi darajasiga mos saralanishi;
- Iboralarni nutqiy vaziyatlar (role-play) orqali faollashtirish;
- Doimiy takrorlash va AKT vositalaridan foydalanish.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarda "tilni his qilish" (language awareness) tuyg‘usini rivojlantirib, ularning nutqini ona tilida so‘zlashuvchilar (native speakers) darajasiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova, Z. X. (2023). Tarjimalarda tafakkur fe’llari semantik darajalanish usullari. In Chet tillarni o‘qitishda dolzarb muammolar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (Vol. 1, pp. 186–192).
2. Boqiyeva, G. H. (2019). *Methods of teaching foreign languages* [Chet tillarini o‘qitish metodikasi]. O‘qituvchi.
3. Crystal, D. (2012). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Irisqulov, M. M. (2009). *Tilshunoslikka kirish* [Introduction to linguistics]. Yangi asr avlodi.
5. Kunin, A. V. (1986). *A course in phraseology of modern English*. Higher School Publishing House.
6. Lewis, M. (1993). *The lexical approach: The state of ELT and a way forward*. Language Teaching Publications.
7. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2017). *English idioms in use: Intermediate* (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Paivio, A. (2007). *Mind and its evolution: A dual coding theoretical approach*. Lawrence Erlbaum Associates Publishers.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
10. Thornbury, S. (2002). *How to teach vocabulary*. Pearson Education Limited.
11. Wray, A. (2002). *Formulaic language and the lexicon*. Cambridge University Press.

TARIXIY MANBALARNI INGLIZ TILIDA TAHLIL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Akramxodjayeva Dilfuza Abduganiyevna
G’arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi tarixiy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan bo‘lib, maqola til integratsiyasiga asoslangan *Content and Language Integrated Learning* yondashuvi hamda ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyalariga tayanadi. *Primary va secondary sources* bilan ishlash jarayonida

leksik kompetensiya, tarixiy diskursni anglash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari tahlilga tortilgan. Natijada integrativ model talabalarning analitik fikrlash va akademik yozuv kompetensiyasini samarali rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Tarixiy manbalar tahlili, Academic English, ESP, CLIL, tanqidiy fikrlash, tarixiy diskurs, akademik yozuv.*

Abstract: This article explores the scientific and methodological foundations for developing skills in analyzing historical sources in English among history students. The study is grounded in the principles of Content and Language Integrated Learning (CLIL) and theories of second language acquisition. It examines the mechanisms for forming lexical competence, understanding historical discourse, and developing critical analysis skills through working with primary and secondary sources. The findings demonstrate that the integrative model effectively enhances students’ analytical thinking and academic writing competence.

Keywords: *Historical source analysis, Academic English, ESP, CLIL, critical thinking, historical discourse, academic writing.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-методические основы формирования навыков анализа исторических источников на английском языке у студентов исторического направления. Исследование опирается на принципы интеграции содержания и языка (CLIL), а также на теории усвоения второго языка. Анализируются механизмы формирования лексической компетенции, понимания исторического дискурса и развития навыков критического анализа в процессе работы с первичными и вторичными источниками. Результаты исследования показывают, что интегративная модель способствует эффективному развитию аналитического мышления и академической письменной компетенции студентов.

Ключевые слова: *анализ исторических источников, академический английский язык, ESP, CLIL, критическое мышление, исторический дискурс, академическое письмо.*

Kirish qismi: Globallashuv va ilmiy integratsiya jarayonlari tarix fanida xalqaro akademik muloqotning ahamiyatini keskin oshib bormoqda va zamonaviy tarixchi nafaqat milliy arxiv materiallari, balki ingliz tilida yaratilgan *primary va secondary sources* bilan ham ishlay olishi, ularni tanqidiy tahlil qilishi va ilmiy xulosalar chiqara olishi lozim. Shu bois tarix yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun akademik ingliz tilini, xususan tarixiy manbalarni ingliz tilida tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Til va mazmun integratsiyasiga asoslangan *Content and Language Integrated Learning (CLIL)* yondashuvi ushbu jarayonda samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur model tilni alohida fan sifatida emas, balki kasbiy mazmun bilan uyg‘un holda o‘qitishni nazarda tutadi. Tarixiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari – xronologik izchillik, sabab-oqibat bog‘liqligi, interpretativ yondashuv va argumentativ bayon –til kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli tarixiy tafakkur va akademik ingliz tilini parallel rivojlantirish zarurati yuzaga keladi.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyalariga ko‘ra, samarali o‘rganish tushunarli va mazmunan boy kirish (input) hamda faol kognitiv qayta ishlash jarayonlari orqali amalga oshadi. Xususan, Input Hypothesis konsepsiyasi til o‘zlashtirishda mazmunli va kontekstual materiallarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Tarixiy manbalar esa autentik, kontekstga boy matnlar sifatida til o‘rganish uchun tabiiy resurs vazifasini bajaradi. Biroq bunday matnlarni tahlil qilish yuqori darajadagi leksik-semantik kompetensiya, diskursiv tafakkur va tanqidiy yondashuvni talab etadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tarix talabalari ingliz tilidagi manbalarni o‘qishda lingvistik to‘siqlarga duch keladi, natijada mazmunni chuqur anglash va ilmiy interpretatsiya qilish jarayoni cheklanadi. Mavjud EFL kurslarida ko‘pincha umumiy til kompetensiyasiga urg‘u berilib, kasbiy diskurs va tarixiy tahlil ko‘nikmalariga yetarli e’tibor qaratilmaydi. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi – tarix yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi tarixiy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari tarixchilar uchun ESP (English for Specific Purposes) kurslarini takomillashtirish, akademik yozuv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy makonga integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi: Mazkur tadqiqot tarixiy manbalarni ingliz tilida tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyasi hamda tarixiy tafakkur metodologiyasi kesishmasida ko‘rib chiqadi.

Ikkinchi tilni o‘qitish nazariyalarida mazmunli va tushunarli kirish muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Xususan, Stephen Krashen tomonidan ilgari surilgan Input Hypothesis konsepsiyasi autentik va kontekstual materiallar orqali til o‘zlashtirish samaradorligini asoslaydi. Tarixiy manbalar aynan shunday mazmunli input manbai sifatida xizmat qiladi. Til va mazmun integratsiyasi esa Content and Language Integrated Learning (CLIL) modeli orqali ilmiy asoslangan bo‘lib, u tarixiy tafakkur va akademik ingliz tilini parallel rivojlantirish imkonini beradi (D. Coyle, D. Marsh). Akademik yozuv va diskurs tahlili masalalarida Ken Hylandning ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi.

Tarixiy tafakkur konsepsiyasi doirasida Sam Wineburg va Peter Seixas tarixiy manbalarni tanqidiy va kontekstual tahlil qilishni asosiy kompetensiya sifatida talqin qiladi. Tarixiy metodologiya bo‘yicha John Toshning tadqiqotlari manbashunoslikning nazariy asoslarini belgilaydi.

O‘zbek olimlaridan Jamol Jalolovning “Chet til o‘qitish metodikasi” asari kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limi masalalarini yoritadi va ESP yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, tajriba-sinov ishlari, diagnostik testlar hamda miqdoriy va sifat tahlili usullari qo‘llanadi. Metodologik asos CLIL yondashuvi, kommunikativ kompetensiya nazariyasi va tarixiy tafakkur konsepsiyasining integratsiyasiga tayanadi.

Taxlil qismi: Mazkur tadqiqot tarix yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi tarixiy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot konseptual jihatdan ikkinchi tilni

o‘zlashtirish nazariyasi hamda tarixiy tafakkur metodologiyasi integratsiyasiga tayanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida an’anaviy EFL modeli asosida ta’lim olgan nazorat guruhi va mazmun hamda tilni uyg‘unlashtirgan Content and Language Integrated Learning modeli asosida o‘qitilgan tajriba guruhi natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Diagnostik va yakuniy baholash natijalari tajriba guruhida sezilarli ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Xususan, talabalar ingliz tilidagi tarixiy matnlarning semantik qatlamini chuqurroq anglash, terminologik birliklarni kontekstual qo‘llash hamda matndagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashda yuqori natijalarga erishdilar. Ularning yozma ishlarida dalillarga asoslangan argumentatsiya, tarixiy interpretatsiya va muallif pozitsiyasini aniqlash kabi ko‘nikmalar ancha rivojlanganligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa umumiy lingvistik kompetensiya o‘sishi qayd etilgan bo‘lsa-da, tarixiy diskursni tanqidiy tahlil qilish va manbalarni kontekstual baholash darajasi nisbatan past bo‘lib qoldi.

Sifat tahlili (diskursiv va mazmuniy tahlil) shuni ko‘rsatdiki, integrativ model asosida ta’lim olgan talabalar matnni yuzaki tarjima qilish bilan cheklanmay, balki tarixiy kontekst, muallif intensioni va ideologik pozitsiyasini aniqlashga intildilar. Bu esa tarixiy tafakkur komponentlari – dalillarga tayanish, kontekstualizatsiya, ko‘p nuqtai nazarni hisobga olish – bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur natijalar mazmunli va tushunarli kirish (input) orqali til o‘zlashtirishni asoslovchi Input Hypothesis nazariyasining amaliy tasdig‘i sifatida talqin qilinishi mumkin. Tarixiy manbalar autentik va ilmiy jihatdan boy material sifatida talabalarni yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga jalb etadi hamda til va tafakkur rivojini birgalikda ta’minlaydi. CLIL modeli doirasida til va predmet mazmunining uyg‘unlashuvi talabalarda akademik diskurs kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tarixiy matnlar bilan tizimli ishlash jarayonida leksik-semantik kompetensiya, argumentativ yozuv, mantiqiy izchillik va ilmiy uslub elementlari sezilarli darajada mustahkamlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tarixiy manbalarni ingliz tilida metodik jihatdan asoslangan, bosqichma-bosqich tashkil etilgan ta’lim modeli tarix yo‘nalishi talabalari uchun samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv nafaqat til kompetensiyasini, balki tanqidiy fikrlash, tarixiy interpretatsiya va xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlash malakasini ham rivojlantiradi. Shu bois tarix yo‘nalishida kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) kurslarini mazmuniy integratsiya asosida takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning strategik omili sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Natijalar qismi: Tadqiqot natijalari quyidagi jadval ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi va Pre-test va Post-test natijalari (N = 60) keltirildi. (1 – jadvalga qarang). Pre-test natijalari nazorat (M = 58.4; SD = 6.8) va tajriba (M = 57.9; SD = 7.2) guruhlari o‘rtasida boshlang‘ich darajada sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatadi ($p > 0.05$). Bu guruhlarning dastlabki tayyorgarlik darajasi bir xil ekanini va eksperiment obyektiv sharoitda boshlanganini tasdiqlaydi. Post-test natijalarida esa tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 78.6 ballga yetib, 20.7 balllik o‘sish qayd etildi.

1-jadval.

Guruh	**Test turi**	**N**	**Mean**	**SD**	**Δ (O‘sish)**
Nazorat	Pre-test	30	58.4	6.8	–
Nazorat	Post-test	30	65.2	7.1	+6.8
Tajriba	Pre-test	30	57.9	7.2	–
Tajriba	Post-test	30	78.6	6.5	+20.7

Nazorat guruhida esa o‘sish 6.8 ball bilan cheklangan. Bu farq integrativ o‘qitish modelining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Standart og‘ish (SD) ko‘rsatkichlari tajriba guruhida natijalarning barqarorligini va guruh ichida bilim darajasi nisbatan bir xil shakllanganini bildiradi va ko‘nikmalar kesimidagi o‘sish (%) 2 jadvalda keltirib berilgan.

3-jadval.

Ko‘nikma	**Nazorat (%)**	**Tajriba (%)**
Reading comprehension	9%	32%
Tarixiy tahlil	7%	35%
Akademik yozuv	8%	29%

Ko‘nikmalar kesimidagi natijalar tajriba guruhida ayniqsa tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasida (35%) eng katta o‘sish kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu esa mazmun va til integratsiyasiga asoslangan yondashuv tarixiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatganini bildiradi. Reading comprehension va akademik yozuv ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada oshgan.

Nazorat guruhida esa barcha ko‘nikmalar bo‘yicha o‘sish nisbatan past foizlarda qayd etilgan, bu an’anaviy yondashuvning tarixiy diskurs kompetensiyasini yetarli darajada shakllantirmasligini ko‘rsatadi. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy manbalarni ingliz tilida mazmun va til integratsiyasi asosida o‘qitish talabalarning lingvistik kompetensiyasi, tarixiy tafakkuri va akademik yozuv ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Statistik ko‘rsatkichlarning yuqori ishonchliligi ($p < 0.001$) va katta effekt hajmi ($d = 1.85$) tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa qismi: Mazkur tadqiqot natijalari tarix yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi tarixiy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda mazmun va til integratsiyasiga asoslangan yondashuvning yuqori samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari davomida an’anaviy EFL modeli bilan solishtirganda integrativ model asosida ta’lim olgan talabalar reading comprehension, tarixiy interpretatsiya, tanqidiy tahlil hamda akademik yozuv ko‘nikmalarida sezilarli natijalarga erishdilar.

Tarixiy manbalarni ingliz tilida tizimli, bosqichma-bosqich va kontekstual asosda o‘qitish talabalarning nafaqat lingvistik kompetensiyasini, balki tarixiy tafakkuri, analitik fikrlashi va ilmiy diskurs bilan ishlash malakasini ham rivojlantiradi. Autentik tarixiy matnlar bilan ishlash jarayoni talabalarni yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga jalb etib, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va

ko‘p nuqtai nazarni hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois tarix yo‘nalishida kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) kurslarini mazmun va til integratsiyasi asosida takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Mazkur yondashuv talabalarning xalqaro ilmiy makonga integratsiyalashuvini ta’minlash, xorijiy ilmiy manbalar bilan mustaqil ishlash kompetensiyasini shakllantirish hamda zamonaviy akademik talablar darajasida mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Akramxodjayeva, D. A. (2026). XORIJIY TILLAR DARSLARIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK METODLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *6*(20), 214-218.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Hyland, K. (2016). *Teaching and Researching Writing* (3rd ed.). London: Routledge.
4. Tosh, J. (2015). *The Pursuit of History: Aims, Methods and New Directions in the Study of History* (6th ed.). London: Routledge.
5. Wineburg, S. (2001). *Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past*. Philadelphia: Temple University Press.
6. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
7. Mahmudov, N. M. (2011). *Til va nutq madaniyati*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
8. Maksudova, D. K., Xamrakulovna, T. N., Makhmudovna, G. S., Akramxodjayeva, D. A., & Mukhammadyusuf, O. (2025, November). Computational Intelligence Approaches for AI-Powered Education and Language Accessibility in Smart Learning Systems. In *2025 International Conference on Electrical Engineering and Informatics (ICEEI)* (pp. 1-8). IEEE.

ASARLAR TARJIMASIDA SO‘ZNING MA’NO SILJISHLARI VA ULARNING SABABLARI

Akmalxo’jayeva Leyla Dilmurodovna
Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili fakulteti, 1-kurs magistranti,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
leylaanvarova9839@gmail.com

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna
G‘arb tillari kafedrasi v.v.b desenti ,DSc

Annotatsiya: Mazkur maqola G‘arbning badiiy adabiyoti qo’llanmalarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va semantik muammolar tahlil qilinadi. Asarda so‘z va iboralarning

ma’nosini, konnotatsiyalarni, madaniy realiyalar va idiomatik ifodalarni to‘g‘ri yetkazishdagi qiyinchiliklar yoritilgan. Shuningdek, ikki til o‘rtasidagi semantik farqlar, madaniy konnotatsiyalar va emotsional ohangni saqlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda lingvosemantik tafovutlarni bartaraf etish yo‘llari va ekvivalent, adaptiv, kontekstual hamda tavsiflovchi tarjima usullarining ahamiyati ko‘rsatiladi. Tarjimonning lingvistik, madaniy va ijodiy yondashuvi tarjima sifatining asosiy omili sifatida ta’kidlanadi.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические и семантические проблемы, возникающие в процессе прямого перевода западных художественных литературных пособий с английского языка на узбекский. Освещаются трудности, связанные с адекватной передачей значений слов и выражений, коннотаций, культурных реалий и идиоматических оборотов. Особое внимание уделяется семантическим различиям между двумя языками, сохранению культурных коннотаций и эмоциональной окраски текста. В исследовании рассматриваются пути преодоления лингвосемантических расхождений, а также подчёркивается значение эквивалентного, адаптивного, контекстуального и описательного способов перевода. Лингвистическая компетентность, культурная осведомлённость и творческий подход переводчика выделяются как ключевые факторы обеспечения качества перевода.

Annotation: This article analyzes the linguistic and semantic problems that arise in the process of direct translation of Western literary works and manuals from English into Uzbek. It highlights the difficulties in accurately conveying the meanings of words and expressions, connotations, cultural realia, and idiomatic phrases. Special attention is given to semantic differences between the two languages, as well as to preserving cultural connotations and the emotional tone of the text. The study examines ways to overcome linguosemantic discrepancies and emphasizes the importance of equivalent, adaptive, contextual, and descriptive translation methods. The translator’s linguistic competence, cultural awareness, and creative approach are identified as key factors in ensuring high-quality translation.

Kalit so’zlar: *ta’lim tizimi, tarjima, lingvosemantika, semantika, idiomatik ifoda, ekvivalent, konnotatsiya, erkin tarjima*

Kirish qismi: Yangi O’zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo’lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-xuquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatningo’zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to’la javob beradigan obyektiv zaruratdir. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida yurtimizning ma’naviy me’rosini asrash va uni dunyo miqyosida targ’ib etish, milliy o’zlikni anglash kabi g’oyalar asosiy yo’nalishlarning biri sifatida belgilangan. Shu bois ta’lim sohasida bo’lajak yoshlarning jahon adabiyotiga ona yurtimizning tarix va ma’daniyat me’roslarini o’lib kirish uchun o’z hissasini qo’shishlari imkoniyatini yaratish maqsadida, davlat o’quv yurtlarida tarjima sohasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda globallashuv jarayonining yildan-yilga jadallashib borayotganligi, texnika va kompyuter

innovaytsiyalarining dunyo iqtisodiyotida yetakchi o’rin egallayotgan davrda, tarjima jarayoni dolzarb masalaga aylandi. Shuningdek, ingliz tili jahon miqyosida universal kommunikatsiya vositasiga aylangan bir paytda, o’zbek tarjimon va tarjimashunoslarining zimmasiga katta ma’suliyat yuklandi. Uning maqsad ildizi, Ingliz tilidagi asarlarni o’zbek tiliga tarjima qilish jarayoni nafaqat ilmiy yoki lingvistik jarayon, balki madaniyatimizni dunyoga tanitish, milliy qadriyatlarimizni boyitish va xalqaro muloqotni mustahkamlashga borib taqaladi.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o’zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo’lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo’lib qoldi. Tarjimasiz turli xalqlarning o‘zaro aloqasi yo’qoladi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo‘lmaslik, g‘ofillik milliy mahdudlikka olib keladi". Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko‘prik deb qaraladi. Yangi O’zbekiston strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ham an’anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratishi va iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirishdir.

Adabiyotlar sharhi: Tarjima nazariyasi sohasida ko‘plab olimlar lingvosemantik muammolarni o‘rganishga katta e’tibor qaratganlar. Ochilov E. tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikni saqlash tarjimaning asosiy mezonlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Salomov G. esa tarjima jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Nurmonov A. lingvistik semantika til birliklarining ma’nosini va ularning kontekstual qo‘llanishini o‘rganishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Ortiqov R. ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi madaniy va lingvistik tafovutlar tarjima jarayonida semantik muammolarni yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Jane Austenning “Pride and Prejudice” asari misolida madaniy realiyalar va konnotativ ma’nolarni tarjima qilish jarayonida lingvosemantik muammolar yaqqol namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda lingvistik, qiyosiy, semantik va kontekstual tahlil ilmiy metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi badiiy asarlar, jumladan Jane Austenning “Pride and Prejudice” asari hamda boshqa badiiy tarjima namunalari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi original matnlar va ularning o‘zbek tiliga tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi original matnlar va ularning o‘zbek tiliga tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida lingvosemantik muammolar yuzaga keladi. Masalan, semantik tafovutlar “fortune” so‘zi ingliz tilida nafaqat “boylik”, balki “ijtimoiy mavqe” ma’nosini ham bildirishi balki, uni oddiy “boylik” deb tarjima qilish semantik mazmunni to‘liq aks ettirmasligi ko’rib chiqildi. Madaniy realiyalarni tarjima qilish muammolari, “fortune in marriage” iborasi “muvaffaqiyatli turmush qurish” ma’nosini bildiradi. Ekvivalent birliklarning mavjud emasligi, “mehmon” so‘zi ingliz tilidagi “guest”

so‘ziga to‘liq semantik ekvivalent emas. Grammatik tafovutlar, masalan ingliz tilida qat’iy so‘z tartibi mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida so‘z tartibi erkinroq bo’lishi. Konnotativ va emotsional ma’nolarni saqlash muammolarini tahlil qilindi.

Asosiy qism: Tarjimaning eng asosiy qoidalarining biri bu ma’no to’g’ri yetqazib berilishidir ya’ni semantik tuzilishidan matn o’zida ma’daniy tarix, milliy jozibadorlikni aks ettirishi, va xalq madaniyatiga mos bo’lgan to’g’ri muvofiqlikni ko’rsatishi muhim ahamiyatga ega. Semantika bu yunoncha atama bo’lib, anglatuvchi, aks ettiruvchi degan ma’nolarni anglatadi. Lingvistik semantika ma’noni o’rganadi. Ma’no nima ekanligi, so’zlarni qanday anglash mumkinligi va murakkab iboraning ma’nosi uning komponentlari o’rtasidagi qanday aloqalar mavjudligini o’rganadi. Ushbu jarayonning bir qismi idrok va mos yozuvlar o'rtasidagi farqni o‘zida jamlaydi. Sezgi g’oyalar va tushunchalari ifoda orqali bayon etiladi, havola esa ifoda yo’naltirilgan ob’ektdir. Ma’no va grammatik jihatdan to’g’ri gaplar qanday yaratilishini belgilovchi qoidalar o‘rganadigan sintaksis va insonlarning muloqotda tildan qanday foydalanganliklari o‘rganiladigan pragmatikaga zid keladi.

O‘zbek tilidagi asarda o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan ko‘plab realiyalar mavjud. Bu realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishda muammolar yuzaga keladi, chunki ingliz tilida bu tushunchalar mavjud emas yoki ular boshqa madaniy kontekstda qo‘llaniladi. Tarjimon madaniy realiyalarni tushuntirish uchun izohlar yoki qo‘shimcha ma'lumotlar kiritishi mumkin. Shuningdek, tarjimon madaniy kontekstni saqlab qolish uchun ekvivalent tushunchalarni topishga harakat qilishi kerak. Bunga misol tariqasida ingliz yozuvchisi Jeyn Ostinning dunyoga mashhur bo’lmish *“Pride and Prejudice” (“Andisha va G’urur”)* asarini olaylik, asarda ingliz madaniyatiga xos realiyalar ko’p uchraydi, asosan, odob-axloq me’yorlari, ijtimoiy tabaqalanish, va marosimlarga oid namunalarni kuzatishimiz mumkin. Satrlar orasida, asliyat matnidan olingan *“Mrs. Bennet was delighted to speak of her daughters’ marriages and the fortune they had secured”* shu gapga duch kelamiz, o’zbek tiliga to’g’ridan to’g’ri tarjima qilinganida *“Xonim Bennet qizlarining turmushga chiqishi va ular topgan boylik haqida so’zlashdan mamnun edi”* bo’lib o’giriladi. Bu yerda “fortune” so’zi oddiy “boylik” yoki “omad” degan ma’noda emas, balki “jamiyatdagi mavqe, ijtimoiy va moliyaviy mustahkamlik” haqida so’z yuritiladi. G’arb madaniyatida “fortune in marriage” kabi iboralar “muvaffaqiyatli turmush” ma’nosida ishlatiladi. O’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bo’lsa, mutoalachiga ifodaliroq va ma’noliroq yetqazish maqsadida *“Bennet xonim qizlarining yaxshi oilaga turmushga chiqib, jamiyatda munosib o’rin topganidan behad mamnun edi”* deb tarjima qilinsa, o’quvchi bu jumlaning ahamiyatini to’g’ri anglashiga vosita bo’ladi.

Tarjima jarayonidagi ma’no tafovutlari asosan ikki tilning o’rtasidagi farqlarda namoyon bo’ladi. Ba'zi so‘zlar bir tilda boshqa ma'noda, ikkinchi tilda boshqa ma'noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo‘llanadigan so‘z boshqa tilda salbiy ma'no bildirishi mumkin, va huddi shunday, bir tilda ko‘p ma'noli bo‘lgan so‘z boshqa tilda faqat bir ma'noni bildirishi mumkin yoki aksincha. Bu tarjimada ma'noning torayishi yoki kengayishiga olib keladi. Har bir grammatikada

so‘z va so‘z birikmalarining semantikasida (ma’noviy jihatida) grammatik shakliga e'tibor beriladi. Bundan nzob keta olmagan tarjimon otni ot, sifatni sifat, sonni son va hokazolar shaklida tarjima qilishga moyil bo‘ladi. Bu prinsip ko‘pda o‘zini oqlayvermaydi. Bu usulda tarjima qilish til o‘rganishning dastlabki bosqichida kuzatiladi. Uni shartli ravishda grammatik tarjima deb atash mumkin. Masalan:

Amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning *"Sestra Kerri" (“Kerri opa")* romani *"Baxtiqaro Kerri"* deb tarjima qilingan - ot sifat bilan tarjima qilingan.

Rus yozuvchisi Aleksey Tolstoyning *"Петр Первый"* romani *("Pyotr Birinchi")* - *"Ulug‘ Pyotr"* deb tarjima qilingan - son sifat bilan tarjima qilingan. "*Волчий след*" - "*Bo‘ri izi* - sifatning ot bilan tarjima qilinishi.

Yoki: *Ch.Aytmatov. "O60n" ("Kuy"), - "Jamila", Ch.Aytmatov. "Плаха" - "Kunda" - "Qiyomat". O.Gonchar. "Тронка". - "Hayot navosi".*

O‘zbek tilidagi so‘zlar va iboralar ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu leksik va semantik muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilidagi „mehmon”so‘zi ingliz tilida *“guest”* deb tarjima qilinadi, lekin bu so‘zning o‘zbek madaniyatidagi ma'nosi va ahamiyati ingliz tilida to‘liq aks ettirilmasligi mumkin. Semantik o‘zgarishlar to‘g‘risida ma'lumot yetishmasligi ham ko‘p tarjimonlarga jiddiy muammolar tug‘diradi. Semantik o‘zgarishlar, bir davrdan boshqasiga o‘tganida, insonlar tafakkur tarzi va xulq-atvoridagi o‘zgarishlar natijasida so‘zlar bilan bog‘liq tarixiy o‘zgarishlar sifatida tushuniladi. Semantik o‘zgarishlarning to‘rt turga bo’linadi: umumlashtirish, spetsifikatsiya, melioratsiya va pejoratsiya. Tarjimon leksik va semantik muammolarni halqilish uchun sinonimlar, antonimlar va kontekstual tarjimalardan foydalanishi mumkin.

Tarjimon asarning mazmunini saqlab qolish uchun ijodiy yondashuvlardan foydalanishi kerak. O‘zbek va ingliz tillarining grammatik tuzilmalari bir-biridan farq qiladi. Bu grammatik muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilida so‘z tartibi erkinroq bo‘lsa, ingliz tilida qat'iyroq tartib mavjud. Shuningdek, o‘zbek tilidagi ba'zi grammatik shakllar ingliz tilida mavjud emas. Tarjimon grammatik muammolarni hal qilish uchun ingliz tilining grammatik qoidalariga rioya qilishi kerak. Shuningdek, tarjimon o‘zbek tilidagi grammatik shakllarni ingliz tiliga moslashtirish uchun ijodiy yondashuvlardan foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda tarjima jarayoni faqat bir tildan ikkinchi tilga so’zlarni o’girish emas, balki har ikki tilning madaniyati va tarixini chuqur o’rganib, ularning xususiyat va mohiyatlarini bir-biriga bog’lashdan iboratdir. Mazkur maqolada ingliz tilidan o’zbek tiliga adabiy asarlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning echimlari haqida tadqiqot o’tkazilgan. Tadqiqot jarayonida ko’tarilgan savollar va olingan xulosalar badiiy tarjima qarama-qarshiliklari va xilma-xilligini yana bir bor ko’rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austen, J. (2003). *Pride and prejudice*. Penguin Classics. (Original work published 1813)

2. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. O‘zbekiston.

3. Nurmonov, A. (2012). *Tanlangan asarlar* (Vol. 2): *Lingvistik ta’limotlar tarixi*. Toshkent.

4. Ochilov, E. (2012). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti* (O‘quv qo‘llanma). Sharqshunoslik.

5. Ortiqov, R. (2020). Cultural comparison of Uzbek and English language speech styles. *International Journal of Academic Management Science Research*, 27.

6. Salomov, G. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish*. O‘qituvchi.

INNOVATIVE APPROACHES IN TEACHING TRANSLATION: BRIDGING THEORY AND PRACTICE

Askarova Shaxnoza
Doctor of Science, Associate Professor of TSTU

Abstract. This paper explores modern approaches to teaching translation in higher education. It focuses on integrating theoretical knowledge with practical skills through student-centered methods, digital tools, and real-life translation tasks. The study highlights the importance of developing linguistic, cultural, and technological competencies in future translators. The findings suggest that interactive and practice-oriented teaching significantly improves translation quality and learner motivation.

Keywords: translation teaching, translation competence, student-centered learning, digital tools, intercultural communication

Translation is a complex activity that requires not only linguistic knowledge but also cultural awareness and analytical thinking. Traditional methods of teaching translation often focus on theory and text analysis, which may not fully prepare students for real-world challenges. In recent years, there has been a shift towards more practical and interactive approaches in translation pedagogy. This paper examines effective strategies for teaching translation and their impact on students’ performance.

Translation pedagogy has undergone significant changes in recent decades. While earlier approaches focused primarily on linguistic equivalence, modern translation teaching emphasizes communicative and functional aspects of language. According to Jeremy Munday (2016), translation is not merely a linguistic activity but a complex process involving cultural and contextual interpretation.

In the Uzbek context, scholars such as Khayrulla Khamidov have highlighted the importance of national-cultural specificity in translation, stressing that effective teaching must consider the socio-cultural background of both source and target languages (Xamidov, 2010).

Theoretical Foundations of Translation Teaching. Modern translation teaching is based on several theoretical approaches. The functionalist theory proposed by Christiane Nord (1997) emphasizes the purpose (*skopos*) of translation, which should guide both teaching and practice.

Similarly, Anthony Pym (2014) argues that translation competence includes not only language skills but also decision-making abilities and intercultural mediation.

Uzbek linguist O. Muminov underlines that translation teaching should develop students’ analytical thinking and comparative linguistic skills, especially when working with structurally different languages (Muminov, 2012).

Translation Competence. Translation competence includes several components:

- **Linguistic competence** – knowledge of source and target languages
- **Cultural competence** – understanding of cultural context
- **Strategic competence** – ability to solve translation problems
- **Technological competence** – use of CAT tools and digital resources

Developing these competencies requires a balanced combination of theory and practice.

Methods of Teaching Translation:

1. Traditional Approach. This method focuses on:

- grammar and vocabulary
- sentence-by-sentence translation
- teacher-centered instruction

Although useful, it often limits creativity and critical thinking.

2. Communicative Approach. This approach emphasizes:

- meaning over form
- real-life communication
- context-based translation

Students work with authentic texts such as news articles, advertisements, and dialogues.

3. Task-Based Learning. Students are given practical tasks:

- translating real documents
- working in groups
- solving translation problems collaboratively

This method increases engagement and practical skills.

4. Use of Technology. Modern translation teaching includes:

- CAT tools (Computer-Assisted Translation)
- online dictionaries and corpora
- machine translation with post-editing

Technology prepares students for professional environments.

Challenges in Teaching Translation. Some common difficulties include:

- lack of equivalence between languages
- cultural differences
- students’ limited vocabulary
- overreliance on machine translation

Teachers must guide students in overcoming these challenges through practice and feedback.

Discussion. Effective translation teaching should combine different approaches. A student-centered environment encourages active participation and critical thinking. Real-life tasks and technology integration make learning more relevant and practical.

Conclusion. Teaching translation requires innovative methods that integrate theory with practice. By using interactive strategies and digital tools, educators can better prepare students for professional translation work. Future research should focus on developing more effective teaching models and assessment methods.

REFERENCES:

1. Jeremy Munday. Introducing Translation Studies. – London: Routledge, 2016. – 228 p.
2. Mona Baker. In Other Words. – London: Routledge, 2018. – 263 p.
3. Anthony Pym. Exploring Translation Theories. – London: Routledge, 2014. – 316 p.
4. Christiane Nord. Translating as a Purposeful Activity. – Manchester: St. Jerome, 1997. – 561 p.
5. Don Kiraly. A Social Constructivist Approach to Translator Education. – Manchester, 2000. – 219 p.
6. Dorothy Kelly. A Handbook for Translator Trainers. – Manchester, 2005. – 232 p.
7. Juliane House. Translation Quality Assessment. – London: Routledge, 2015. – 216 p.
8. Anthony Pym. Translation Skill-Sets in a Machine-Translation Age // Meta. – 2013. – 448 p.
9. Khamidov Kh. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2010. – 216 p.
10. Muminov O. Tarjima va lingvistik tahlil masalalari. – Toshkent, 2012. – 245 p.

WAYS OF INCREASING READING SKILL IN ENGLISH

Annamyradova Novcha
Lecturer of the department Romano-Germanic languages and literature with methods of their teaching of Seyitnazar Seydi Turkmen State Pedagogical Institute, City Turkmenabat, Turkmenistan
e-mail: baymyradowa200494@gmail.com

Abstract. Reading way of life is very important as it leads one to vital information that leads to the person’s transformation. Reading components helps to be more successful while dealing with the text. There are five attributes to the process of reading: phonics, phonemic awareness, vocabulary, reading comprehension and fluency. Reading at a glance, forecasting, skimming is some of the strategies which sharpens reading skills, knowledge and experience. Some factors like attitude, cost, and peer influence affect the reading behavior of

individuals but despite of this, efforts should be made to improve reading skills by the means of strategies and components.

Key words: reading skill, vocabulary, study, critical reading.

Reading is the most important single skill in study: in the Humanities perhaps 90 per cent of private study time is taken up in reading. It is known that there are big differences between individuals in their rates of reading and comprehension. Clearly if you can speed up your rate of reading you will save much time. Books and articles, of course, differ in difficulty and in clarity of presentation. Rate of reading depends on the difficulty of the material and on the purpose of reading. We can distinguish:

- Reading to master information, usually necessarily careful, slow and repeated;
- Exploratory reading, as in skimming through a book in order to get a general view of it;
- Revision reading, as in reading rapidly through a book with which you are already familiar, in order to confirm knowledge;
- Reading in order to search for specific information or to answer a specific question;
- Critical reading, as in reading a book for review;
- Reading for enjoyment, as a novel;
- Proof-reading, when meticulous attention is paid to spelling, punctuation and sentence structure.

A good reader will vary his rate of reading according to his purpose. A novel may be read very quickly, perhaps at 750 words per minute or more, if the reader has no intent to remember, but merely wants to know the fate of the hero or heroine. A single paragraph or diagram in a textbook, on the other hand, may have to be read through very slowly four or five times before it is fully comprehended [2, p. 35].

Teacher can use different ways for increasing students’ reading skill such as:

- Using more text passages;
- Doing vocabulary activities during lesson;
- Reading poems fluently.

As for example, we can choose the poem “*With the Stones”* by Magtymguly in order to read fluently:

My heart will say, “I’d like to go far from people,
To walk in the mountains and stones.”
Recalling all my sins and wrongdoings,
I’d like to wash my face with my tears.

I see that everybody is engaged in something.
My heart is preoccupied with sorrow,
I’d like to sit in a remote corner,
Under the trees with my head full of thoughts [3, p. 56].

Another activity for improving reading skill: Read the following four paragraphs and see if you can get a sense of the general meaning by only reading the information words that are featured.

1. Some advertisements _____ undesirable effects _____. One form _____ advertising suggests _____ buying _____ brings happiness. _____ more _____ happier _____ feel. Parents in particular _____ under pressure _____ this form _____. Advertisements _____ expensive toys _____ imply _____ greater pleasure than lower priced _____.

2. _____example _____ children ___happier _____ video game than _____ _____ Scrabble. _____ _____ not true. _____ opposite _____ more likely. Advertisements _____ make _____ people _____ more discontented.

3. Another form _____ undesirable advertising _____ associates _____ products _____ success. _____ example _____ washing powder _____ linked _____ promotion ____ work, or _____ toothpaste.

4. _____ success _____ attracting _____ boyfriend ___ girlfriend. _____ effect _____ these advertisements _____ encourage _____ false idea _____ success. Genuine success _____ earned _____ effort: _____ not _____ money.

“Fluency is the ability to read a text accurately and quickly. It is important because it frees students to understand what they read”. 44% of fourth graders were not fluently reading grade level stories even though the stories were read twice silently before reading the material aloud for testing. Teachers can help develop reading fluency by modeling fluent reading for their students. Having students practice repeated oral reading is another way to improve fluency. As students improve their reading fluency, they also start creating mental images of what they read, which helps in the understanding of the text [1, p. 12].

“Vocabulary refers to the words that we must know to communicate effectively”. Vocabulary can be learned indirectly through daily communication, listening to adults read to them, and reading on their own. Students from a lower socioeconomic class have a significantly smaller vocabulary to draw from when reading due to a lack of indirect vocabulary instruction, which negatively impacts reading comprehension. Vocabulary can also be learned through direct instruction. Directly teaching vocabulary words in context and word-learning strategies improves both vocabulary and reading comprehension.

Reading in the native language is not that much difficult as it is in different languages that people learn. They think reading means to start with the initial part, going word by word, and discontinuing or giving a break to look up the dictionary for every unknown terminology, until the end of topic. While doing this, people are relying entirely on their linguistic awareness, a bottom-up strategy, where the word meanings are understood first and then the mind search the core idea of content. The most important strategies for better reading are that instead of using bottom up approach individuals may use top-down approach as they do in their native language, i.e. to firstly get an overall idea of the content and then start reading by predicting and scanning [1, p. 23].

As reading is also an important element of knowledge-based community, higher education institution should assist in prospering this art of reading. The importance of reading in a nation's development cannot be overlooked and, in this journey, to build this ecosystem, the institution has a real long way to go.

Literature:

1. Brigitte A. McKown, B.S. Cynthia L. Barnett, B.S. Improving reading comprehension through higher-order thinking skills. Chicago, Illinois, May, 2007.
2. Maddox H. How to Study. L, 1967.
3. Meredova Z. Magtymguly. Poems from Turkmenistan. Asian Cultural History Program, 2014.

BENEFITS AND LIMITATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Askanova K.K.,
Master of Pedagogical Sciences,
Kazakh Ablai Khan UIR&WL, Almaty, Kazakhstan

Nagimulla M.A.,
Master of Pedagogical Sciences, Kazakh Ablai Khan UIR&WL,
Almaty, Kazakhstan

Abstract: *This study examines* the benefits and limitations of Artificial Intelligence (AI) in foreign language teaching, focusing on its instructional effectiveness and practical challenges. With the rapid development of AI-powered tools such as intelligent tutoring systems, automated feedback applications, and adaptive learning platforms, foreign language education is undergoing significant transformation. The purpose of this article is to evaluate how AI enhances foreign language learning outcomes and at the same time identify potential constraints in its implementation.

The research methodology is based on a qualitative analysis of recent academic literature together with case studies of AI-powered foreign language learning platforms. Key areas of analysis include personalization, learner engagement, assessment accuracy, teacher roles, and ethical considerations.

The findings indicate that AI significantly improves personalized learning experiences by adapting content to individual learner needs, providing immediate feedback, and supporting autonomous learning. AI tools also increase accessibility and flexibility in e-learning and blended learning environments. However, limitations include reduced human interaction, potential bias in algorithms, data privacy concerns, high implementation costs, and the risk of over-reliance on technology.

The study highlights the importance of integrating AI as a supportive tool rather than a replacement for teachers. Its significance lies in offering practical

insights for educators and institutions seeking to balance technological innovation with effective teaching practices in modern foreign language education.

Keywords: Artificial Intelligence, Language Teaching, E-Learning, Personalized Learning, Educational Technology

Code-switching is often misunderstood as a lack of proficiency; however, Nuessel (2010) argues that it represents a sophisticated communicative strategy. In Uzbekistan, the transition from a Russian-dominant bureaucracy to an Uzbek-centric national identity has created a complex bilingual landscape. Wardhaugh and Fuller (2014) emphasize that **power** is inherently tied to language choice. When speakers utilize Russian alongside Uzbek, they are often exerting "symbolic capital," elevating their status above those who speak only regional dialects or minority languages. This dynamic is further complicated by **linguistic adoration**, where certain accents (like British Received Pronunciation) are fetishized as superior, leading to "linguistic profiling" (Baugh, 2005).

The impact of SES (socio-economic status) on educational outcomes is well-documented, but its influence on teacher identity is less explored. Mesthrie (2009) notes that social class is not only determined by income but also by social networks and family history. In rural settings, such as the Tajik villages in Navoi, limited access to digital resources and "linguistic isolation" from urban centers can lead to lower confidence among EFL practitioners. This often results in **style shifting** or **linguistic accommodation**, where rural speakers adjust their speech to mirror the dominant group to reduce social distance, even at the cost of their own "ethnic pride" or dialectal identity (Fought, 2011).

The concept of the **dialect continuum** explains how linguistic variations flow across geographical boundaries (Wardhaugh & Fuller, 2014). For Tajik speakers in Uzbekistan, their dialect serves as a marker of solidarity but can also become a source of "discriminatory linguistic profiling" in professional settings. Modern EFL pedagogy, however, is moving toward a **Global Englishes** framework. Selvi (2019) argues that the goal of English education should be "intelligibility" rather than "native-likeness." By embracing an **English-within-multilingualism** ideology, educators can validate the learners' heritage languages while facilitating target language acquisition (Canagarajah, 1999).

Methodology. This study employs a qualitative case study approach to explore the intersection of sociolinguistics and pedagogy among EFL teachers in Navoi, Uzbekistan. A qualitative framework was selected to capture the nuanced experiences, perceptions, and "linguistic identities" of the participants that quantitative data might overlook (Bucholtz & Hall, 2005).

Participants**.** The study involved 11 EFL teachers (9 females and 2 males) divided into two distinct subgroups based on their geographic location, ethnicity, and socioeconomic status (SES):

Group 1 (Urban Uzbek): Five teachers from Navoi city schools. They are native Uzbek speakers with upper-intermediate English proficiency. Their SES is categorized as intermediate to high.

Group 2 (Rural Tajik): Six teachers from remote mountain villages. They are native Tajik speakers with intermediate English proficiency. Their SES is categorized as lower to middle. The students were taught by me during one month according to the government program.

Data Collection Tools. To ensure a comprehensive understanding of the participants' sociolinguistic landscapes, three primary data collection methods were utilized:

Classroom Observations: The researcher observed teaching sessions to record instances of code-switching, pedagogical strategies, and "style shifting" during English instruction.

Semi-Structured Interviews: Participants were interviewed regarding their linguistic backgrounds, feelings toward British/American accents, and their perceived social positioning within the teaching community.

Linguistic Artifact Analysis: The researcher examined the teachers' speech patterns for "L1 interference" and the use of "borrowings" from Russian or Uzbek.

Data Analysis. The data were analyzed using Thematic Analysis. The researcher focused on identifying recurring themes related to:

1. The use of Russian as a prestige code (Positionality).
2. The impact of geographic isolation on access to resources (SES).
3. The manifestation of "linguistic adoration" and "linguistic profiling" regarding accents.

Ethical Considerations. To protect the participants' identities, pseudonyms (e.g., Student A, Student B) were assigned to all teachers. Participation was voluntary, and all participants provided informed consent before the observations and interviews were conducted.

Results. The findings of this study illustrate a significant divide between urban Uzbek EFL teachers and rural Tajik EFL teachers, shaped largely by their linguistic repertoires and socioeconomic status (SES).

1.Code-Switching as a Marker of Social Positionality. The first subgroup (Urban Uzbek) demonstrated a high frequency of code-switching between Uzbek and Russian. For these participants, Russian serves as a "prestige code." By integrating Russian vocabulary into their professional discourse, they successfully established a "higher position" (Bucholtz & Hall, 2005) within the linguistic hierarchy.

Student A (Urban): Displayed a clear "linguistic adoration" for British English, attempting to mimic native-like accents to index high proficiency and professional authority.

Student B (Urban): Despite lower confidence, her speech remained heavily influenced by the bilingual urban environment, blending English, Russian, and Uzbek.

2.Socioeconomic Barriers and Resource Access. SES emerged as a primary factor in pedagogical practice. The urban group (Group 1), possessing middle-to-high SES, reported fewer barriers to professional development. In contrast, the rural Tajik group (Group 2) faced significant "resource poverty."

Environmental Constraints: Participants in the rural subgroup reported that poor school conditions and the high cost of Wi-Fi restricted their ability to engage with digital English resources or assign online tasks.

Geographic Isolation: The remoteness of the mountain villages limited these teachers' exposure to the standardized linguistic environment of the city, further widening the gap in teaching materials and methods.

Linguistic Identity and "Ethnic Pride" in Dialects. For the second subgroup (Rural Tajik), linguistic identity was tied to their local dialects. The study observed two distinct reactions to the dominant linguistic group:

1. Linguistic Accommodation: Some younger teachers, like Student B (Rural), utilized "style shifting," choosing to communicate in Uzbek with colleagues and adapting their accents to reduce communication barriers.
2. Resistance and Solidarity: Older teachers, such as Student A (Rural), expressed embarrassment over their Tajik accents in front of the urban group but remained loyal to their dialect. This reflects Fought’s (2011) observation that adopting a standard or majority language can be perceived as a lack of loyalty to one's "ethnic pride."

L1 Interference and Universal Errors. Interestingly, both groups exhibited similar grammatical challenges regardless of their ethnicity or SES. Absence of specific structures in both Uzbek and Tajik—such as third-person singular markers and definite articles—led to repetitive errors in English. This confirms that while social status varies, the cognitive process of L1 interference remains a shared experience among EFL teachers in this region.

Discussion. All members of two subgroups commit repetitive errors in the use of third-person singular pronouns, verb aspects, articles, and other related elements. These learners' worldviews were altered as a result of the absence of these grammatical structures in their native language (Wardaugh & Fuller, 2014). Additionally, some of my students subconsciously employed "she" to refer to both genders.

The language of both subgroups and the "code-switching" of the first subgroup should be embraced, as Nuessel (2010) wrote that code-switching does not imply the "reconfiguration" of two separate languages, but rather the sophisticated use of two languages. In order to foster the use of the English language, learners should not be restricted in their code-switching tendencies. It is recommended that

language learners in the initial subgroup be encouraged to employ code-switching as a means of transitioning to the study of English. In an effort to foster intercultural communication between two groups, the dialectal differences among Tajik teachers can be employed as an example to teach about linguistic diversity and dialects. Furthermore, it is imperative to acknowledge the impact of the target learners' primary language on both groups. The teacher must exercise patience in order to resolve the pattern of repeated L1 interference errors. Learners are discouraged from producing in the target language as a result of overcorrections.

Pronunciation and Accent

The teacher should be aware that both subgroups have accents when speaking the target language, and the goal for these students should not be to achieve a perfect British or American accent, but rather to be able to hold a coherent conversation. Furthermore, the teacher should avoid "preferential linguistic profiling" for the first subgroup while using a British accent and "discriminatory linguistic profiling" for the second subgroup when speaking English with a Tajik accent.According to Baugh (2005), linguistic profiling leads to negative practices not only in education but also in a variety of other settings.

Selection of language texts for tasks and activities:

It would be beneficial for my target learners to utilize multimodal resources (audio, video, and etc.) that encompass Global Englishes, varieties, and accents. Language varieties are introduced to provide learners with a repertoire of codes and discourses, as per Selvi (2019). Additionally, the classroom materials should be reflective of cultural diversity in order to foster cross-cultural understanding. Canagarajah (1999) introduces different cultures to demonstrate that there is no dominant community and that knowledge is socially constructed in each culture. Language learners should feel safe and valued, regardless of their ethnicity, gender, or linguistic background. Methodologies and techniques used in instruction.

Adopting a "polymodal" approach and providing opportunities for exposure to various Englishes would be beneficial because it exposes learners to different varieties of English rather than just "standard English." According to Selvi (2019), this practice is crucial for my target learners, as it fosters diversity in the classroom. Furthermore, using the "English-within-multilingualism" ideology instead of "English-only" allows my target learners to preserve their "heritage language."

Conclusion. This study has illuminated the profound impact of sociolinguistic landscapes on the professional identities and pedagogical practices of EFL teachers in Navoi, Uzbekistan. The findings reveal that the English classroom is not a neutral space; rather, it is a site where socioeconomic status, ethnic identity, and historical linguistic hierarchies (specifically the prestige of the Russian language) intersect to create disparate educational experiences.

The urban Uzbek subgroup effectively utilizes Russian code-switching and "linguistic adoration" of British accents to establish a higher professional positionality. In contrast, the rural Tajik subgroup, hindered by lower SES and geographic isolation, navigates a complex terrain of "linguistic profiling" and resource scarcity. Despite these social differences, the shared struggle with L1

interference suggests that linguistic commonalities exist which can bridge the gap between these two cohorts.

References

Bucholtz, M., & Hall, K. (2005). Identity and interaction: sociocultural linguistic approach. *Discourse Studies*, *7*(4-5), 585-614.

Baugh, J. (2005). Linguistic profiling. In S. Makoni, G. Smitherman, A. F. Ball, & A. K. Spears (Eds.), *Black linguistics: Language, society, and politics in Africa and the Americas* (pp. 155-168). Routledge.

Fought, C. (2011). Language and ethnicity. In R. Mesthrie (Ed.), *The Cambridge handbook of sociolinguistics* (pp. 238–257). Cambridge University Press.

Mesthrie, R., Swann, J., Deumert, A., & Starr, R. L. (2009). *Introducing sociolinguistics.* Edinburgh University Press

Nuessel, F. (2010). Succinct history and overview of U.S. sociolinguistics In E. T. Spencer (Ed.), *Sociolinguistics* (pp. 119–136). Nova Science Publishers, Incorporated

Schilling, N. (2011). Language, gender, and sexuality. In R. Mesthrie (Ed.), *The Cambridge handbook of sociolinguistics* (pp. 218–237). Cambridge University Press.

Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2014). *An introduction to sociolinguistics* John Wiley & Sons.

ARAB TILIDAN INGLIZ TILIGA O‘ZLASHGAN KUNDALIK LEKSIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mavlonova Hamida G‘ulom qizi
Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya universiteti 3-kurs talabasi

Aripova Gulnoza Tulkunovna
Ilmiy rahbar,
Email: aripova-gulnoza@mail.ru
Tel: +998998491303

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan kundalik leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tilining tarixiy, madaniy va ilmiy ta’siri natijasida ingliz tiliga kirib kelgan terminlar va umumxalq leksikasiga mansub birliklar o‘rganiladi. Shuningdek, o‘zlashma jarayonida yuzaga kelgan fonetik va semantik o‘zgarishlar ham ko‘rib chiqiladi. O‘rta asrlarda arab olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros Yevropa ilm-fanining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatganligi sababli, ko‘plab ilmiy atamalar arab tilidan Yevropa tillariga, jumladan ingliz tiliga ham o‘zlashgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, arab tilidan kirib kelgan so‘zlar ingliz tilining leksik boyligining muhim qismini tashkil etadi hamda ular turli semantik sohalarda faol qo‘llaniladi. Mazkur tadqiqot arab tilidan o‘zlashgan birliklarning semantik rivojlanishini tahlil qilish orqali tillararo madaniy va ilmiy aloqalarni yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: arab tili, ingliz tili, leksik o‘zlashma, terminologiya, leksik-semantik tahlil, tilshunoslik, etimologiya.

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic features of everyday lexical units borrowed from Arabic into the English language. The study examines terms and common lexical items that entered English as a result of the historical, cultural, and scientific influence of the Arabic language. It also considers the phonetic and semantic changes that occur during the borrowing process. Since the scientific heritage created by Arab scholars in the Middle Ages had a significant impact on the development of European science, many scientific terms were borrowed from Arabic into European languages, including English. According to the results of the study, words of Arabic origin constitute an important part of the lexical richness of the English language and are actively used across various semantic domains. This research contributes to revealing intercultural and scientific relations between languages through the analysis of the semantic development of units borrowed from Arabic.

Keywords: Arabic language, English language, lexical borrowing, terminology, lexical-semantic analysis, linguistics, etymology.

Аннотация: В данной статье анализируются лексико-семантические особенности общеупотребительных лексических единиц, заимствованных из арабского языка в английский язык. В исследовании рассматриваются термины и единицы общеязыковой лексики, вошедшие в английский язык в результате исторического, культурного и научного влияния арабского языка. Также рассматриваются фонетические и семантические изменения, возникающие в процессе заимствования. Поскольку научное наследие, созданное арабскими учёными в Средние века, оказало значительное влияние на развитие европейской науки, многие научные термины были заимствованы из арабского языка в европейские языки, включая английский. Согласно результатам исследования, слова арабского происхождения составляют важную часть лексического богатства английского языка и активно используются в различных семантических сферах. Данное исследование способствует раскрытию межкультурных и научных связей между языками посредством анализа семантического развития единиц, заимствованных из арабского языка.

Ключевые слова: арабский язык, английский язык, лексические заимствования, терминология, лексико-семантический анализ, лингвистика, этимология.

Kirish: Til insoniyat jamiyatining eng muhim kommunikativ vositalaridan biri hisoblanadi. Insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar til rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Til taraqqiyoti jarayonida boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayon tilshunoslikda leksik o‘zlashma deb ataladi. Leksik o‘zlashmalar natijasida tilning lug‘at boyligi kengayadi va yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyati paydo bo‘ladi [1].

Bugungi kunda dunyoda minglab tillar mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri til rivojining muhim omillaridan biridir. Arab tili tarixiy, diniy va madaniy jihatdan

dunyodagi eng muhim tillardan biri hisoblanadi. Ushbu til ko‘plab xalqlarning madaniyati va ilm-faniga katta ta’sir ko‘rsatgan. Hozirgi kunda arab tili ko‘plab davlatlarda rasmiy til sifatida qo‘llaniladi va yuz millionlab insonlar tomonidan so‘zlashiladi [4].

Tarixiy manbalarga ko‘ra, arab tilining Yevropa tillariga ta’siri ayniqsa o‘rta asrlarda kuchli bo‘lgan. Andalusiya davrida arab madaniyati va ilm-fani Yevropada keng tarqalgan. Natijada arab tilidagi ko‘plab ilmiy va kundalik so‘zlar Yevropa tillariga kirib kelgan. Ingliz tilida ham arab tilidan o‘zlashgan ko‘plab leksik birliklar mavjud [3].

Tilshunos olim Otto Yespersen o‘z tadqiqotlarida dunyoda o‘zlashma so‘zlardan holi biror til mavjud emasligini ta’kidlagan. Bu fikr barcha tillarning rivojlanishida leksik o‘zlashmalarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi [1].

Shunday ekan, arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan o‘rganish tilshunoslik uchun dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi: Til va leksik o‘zlashmalar masalasi zamonaviy tilshunoslikda keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Yuldasheva va Abdupattayeva tilni insoniyatning asosiy kommunikativ vositasi sifatida ko‘rib, uning rivojlanishida ijtimoiy va madaniy omillarning muhim rolini ta’kidlaydi[1]. Maxmudova esa arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilib, ularning turli sohalarda qo‘llanilishi va ma’noviy xususiyatlarini yoritadi [2].

Cannon o‘z tadqiqotida arab tilining ingliz tiliga tarixiy ta’sirini batafsil ko‘rib chiqib, ko‘plab arabcha so‘zlarning ingliz tiliga bevosita yoki vositachi tillar orqali kirib kelganini qayd etadi [3]. Versteegh esa arab tilining umumiy rivojlanishi va uning boshqa tillarga, xususan, Yevropa tillariga ko‘rsatgan lingvistik va madaniy ta’sirini tahlil qiladi[4].

Ushbu adabiyotlar arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan leksik birliklarning tarixiy, etimologik va semantik jihatlarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy tilshunoslikning tavsifiy, qiyosiy va etimologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilida keng qo‘llaniladigan arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tanlab olindi va ularning kelib chiqishi, shakliy o‘zgarishlari hamda semantik xususiyatlari o‘rganildi. Arab tilidagi asl shakllar bilan ingliz tilidagi variantlar qiyosiy tahlil qilinib, fonetik moslashuv va semantik o‘zgarishlar ilmiy jihatdan izohlandi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilida keng qo‘llaniladigan arabcha kelib chiqishga ega bo‘lgan kundalik va ilmiy terminologiyaga oid leksik birliklar tanlab olindi[3].

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida arab tilidan o‘zlashgan ko‘plab so‘zlar mavjud. Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, ingliz tilida arab

tilidan taxminan 170 ga yaqin so‘z o‘zlashgan. Ularning bir qismi bevosita arab tilidan, boshqa qismi esa ispan, fransuz yoki lotin tillari orqali kirib kelgan [3].

Arab tilidan kirib kelgan so‘zlar turli sohalarga oid bo‘lib, ular ilm-fan, savdo, matematika, kimyo, gastronomiya va kundalik turmush bilan bog‘liq leksik birliklarda uchraydi [2].

Masalan, oziq-ovqat va ichimlik nomlari orasida arab tilidan kirib kelgan ko‘plab so‘zlar mavjud:

Oziq – ovqat va ichimliklar

Coffee – qahwa (قهوة) – qahwa
Sugar – sukkar (سكر) – shakar
Candy – qand (قند) – shirinlik
Syrup – sharab (شراب) – sharbat
Lemon – laymun (ليمون) – limon
Apricot – al-barquq (البرقوق) – o'rik
Saffron – za'faran (زعفران) – za'faron
Artichoke – al-khurshuf (الخرشوف) – sabzavot turi
Spinach – isbinakh (إسفناج) – ismaloq
Tuna – tun (تون) – baliq turi
Hummus – hummus (حمص) – no'xatli taom
Kebab – kabab (كباب) – kabob
Sorbet – sharab (شراب) – muzqaymoq turi
Sherbet – sharab (شراب) – shirin ichimlik

Ushbu so‘zlar ingliz tilida keng qo‘llaniladi va kundalik nutqning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ba’zi so‘zlar ingliz tiliga o‘zlashish jarayonida fonetik va semantik o‘zgarishlarga uchragan. Masalan, arab tilidagi *qahwa* so‘zi ingliz tilida *coffee* shaklida qo‘llaniladi. Bunday o‘zgarishlar til tizimining tabiiy rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq [3].

Munozara: Arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarning paydo bo‘lishi tarixiy va madaniy aloqalar bilan chambarchas bog‘liq. O‘rta asrlarda arab olimlari matematika, astronomiya, kimyo va tibbiyot sohalarida muhim ilmiy asarlar yaratgan. Ushbu ilmiy meros Yevropa mamlakatlariga tarjimalar orqali yetib borgan va natijada arab terminologiyasi Yevropa tillariga kirib kelgan [4].

Bu jarayon faqat leksik boylikni oshiribgina qolmay, balki ilmiy tafakkur rivojiga ham hissa qo‘shgan. Arab tilining ilmiy terminologiyaga qo‘shgan hissasi juda katta bo‘lib, ko‘plab fan sohalarida arabcha kelib chiqishga ega terminlar mavjud.

Tilshunos Otto Yespersenning fikriga ko‘ra, dunyoda o‘zlashma so‘zlardan holi bo‘lgan til mavjud emas [1]. Bu fikr tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va almashinuvning universal xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan leksik birliklar nafaqat lingvistik hodisa, balki madaniyatlararo aloqa natijasi sifatida ham qaraladi. Ularning semantik va fonetik moslashuvi til tizimining moslashuvchanligini va dinamik tabiatini aks ettiradi.

Xulosa: Arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlar ingliz tilining leksik boyligining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu o‘zlashmalar tarixiy, madaniy va ilmiy aloqalar natijasida shakllangan bo‘lib, ular ingliz tilining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, arab tilidan o‘zlashgan leksik birliklar turli sohalarni qamrab oladi va zamonaviy ingliz tilida keng qo‘llaniladi. Ularning fonetik va semantik o‘zgarishlari til o‘zlashuvi jarayonining tabiiy natijasidir.

Arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan o‘rganish til tarixini, madaniy aloqalarni va ilmiy terminologiyaning shakllanish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda yanada kengroq va chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish tilshunoslik fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva, S., & Abdupattayeva, Z. (2023). Til — insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(5), 105–108-betlar.

2. Maxmudova, M. S. (2023). Arab tilidan ingliz tiliga o‘zlashgan so‘zlarning leksik-semantik tahlili. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(5), 114–117-betlar.

3.Cannon, G. (1994). The Arabic Contributions to the English Language: A Historical Dictionary. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag.

4. Versteegh, K. (2001). The Arabic Language. Edinburgh: Edinburgh University Press.

XORIJIY TIL DARSLARIDA LATIFALAR ORQALI MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Mirabdullayeva Zulfiya Olimjonovna
G’arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy til darslarida latifalardan foydalanish orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda latifalarning didaktik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning til o‘rgatish jarayonidagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, latifalar yordamida talabalar nafaqat til birliklarini, balki o‘rganilayotgan tilga xos bo‘lgan madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va mentalitetni ham o‘zlashtirishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada xorijiy til darslarida latifalardan foydalanishning samarali usullari hamda ularning talabalarning kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *xorijiy til va innovatsion yondashuv, latifa, madaniyatlararo kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ta’lim metodlari, madaniyat*.

Abstract: This article discusses the formation of intercultural competence among students through the use of jokes (anecdotes) in foreign language classes. The study analyzes the didactic and linguocultural features of jokes and substantiates their role in the process of language teaching. It is shown that through jokes students can acquire not only linguistic units but also cultural values, traditions, and mentality specific to the target language. The article also highlights effective methods of using jokes in foreign language teaching and reveals their significance in developing students’ communicative and intercultural competences based on practical examples.

Keywords: *foreign language, innovative approach, jokes (anecdotes), intercultural competence, communicative competence, teaching methods, culture*

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование межкультурной компетенции у студентов посредством использования анекдотов на занятиях по иностранному языку. В исследовании анализируются дидактические и лингвокультурологические особенности анекдотов, а также обосновывается их роль в процессе обучения языку. Показано, что с помощью анекдотов студенты усваивают не только языковые единицы, но и культурные ценности, традиции и менталитет изучаемого языка. В статье также раскрываются эффективные методы использования анекдотов в обучении иностранным языкам и их значение в развитии коммуникативной и межкультурной компетенций студентов на основе примеров.

Ключевые слова: *иностранный язык, инновационный подход, анекдот, межкультурная компетенция, коммуникативная компетенция, методы обучения, культура*

Kirish qismi: Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki turli madaniyatlarni anglash va ular bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham talab etadi. Shu jihatdan, xorijiy til ta’limida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiya talabalarining boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va to‘g‘ri muloqot qilish, ularning qadriyatlari va mentalitetini tushunish qobiliyatini ifodalaydi.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi alohida e’tirof etiladi. Til – bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Shu sababli xorijiy tilni o‘qitishda faqat grammatik va leksik bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, balki madaniy kontekstni ham o‘rgatish zarurati yuzaga keladi.

Ushbu jarayonda innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, latifalardan foydalanish xorijiy tilni o‘qitishda samarali vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Latifalar qisqa, mazmunan boy va ko‘pincha muayyan madaniy kontekstni o‘zida mujassam etgan matnlar bo‘lib, ular orqali talabalar nafaqat til birliklarini, balki o‘rganilayotgan tilga xos bo‘lgan madaniy xususiyatlarni ham o‘zlashtiradilar.

Bugungi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv va kommunikativ metodlardan keng foydalanilmoqda. Mazkur ta’lim muassasasida olib borilayotgan dars jarayonlarida latifalardan foydalanish talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning nutqiy faolligini rivojlantirish hamda madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Latifalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar tomonidan o‘rganilayotgan tilning lingvokulturologik jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ularning nafaqat til bilimi, balki madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Shu bois mazkur maqolada Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti misolida xorijiy til darslarida latifalardan foydalanish orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar metodologiyasi: Mazkur tadqiqotning metodologik asosini xorijiy til o‘qitish va madaniyatlararo kompetensiyaga oid o‘zbek hamda Yevropa olimlarining ilmiy ishlari tashkil etadi. Yevropa tadqiqotchilaridan M.Byram tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli til o‘rganishda madaniy bilim va ko‘nikmalarning muhimligini asoslaydi. C. Kramsch esa til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini ta’kidlab, ularni birgalikda o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi. Canale va Swain tomonidan ilgari surilgan kommunikativ yondashuv nazariyasi mazkur tadqiqotda asosiy metodik yo‘nalish sifatida qo‘llanildi. S.Attardo va V. Raskinlarning humor nazariyalari latifalarning lingvistik va semantik xususiyatlarini izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek olimlaridan J.Jalolov xorijiy til o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyatini yoritadi, Sh.Safarov esa lingvokulturologik yondashuv asosida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslaydi. N.Mahmudov tadqiqotlarida tilning madaniy funksiyasi va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Tadqiqotda kommunikativ va lingvokulturologik yondashuvlar, shuningdek, qiyosiy-tahliliy va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar xorijiy til darslarida latifalar orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishni ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Tahlillar qismi: Mazkur tadqiqot doirasida xorijiy til darslarida latifalardan foydalanish orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari ishtirokida olib borildi va dars jarayonlarida latifalarga asoslangan interaktiv metodlar qo‘llanildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, latifalar til o‘rgatishda nafaqat lingvistik vosita, balki madaniy axborot tashuvchisi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tilidagi quyidagi latifa asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi:

“Why don’t scientists trust atoms? Because they make up everything.”

Mazkur latifa asosida talabalar *“make up”* iborasining ko‘p ma’noliligini anglab, ingliz tilidagi so‘z o‘yinlari (pun) fenomeni bilan tanishdilar. Tahlil davomida aniqlanishicha, bunday latifalar orqali talabalar tilning yashirin semantik qatlamlarini tushunishga intiladi va bu jarayon ularning kognitiv faolligini oshiradi.

Rus tilidagi latifa asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda esa madaniy stereotiplar va kinoya elementlari o‘rganildi:

– Ты где был?

– В библиотеке.

– А почему от тебя пахнет пивом?

– А что, книги сейчас не читают?

Ushbu latifa orqali talabalar yashirin ma’noni aniqlash, ijtimoiy kinoyani tushunish hamda uni izohlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada, talabalar nafaqat til birliklarini, balki jamiyatga xos bo‘lgan qarashlarni ham anglashga erishdi.

Bundan tashqari, sharq tillariga oid latifalar asosida o‘tkazilgan darslarda talabalar o‘rganilayotgan madaniyatning o‘ziga xos jihatlari, jumladan, intizom, hurmat va ijtimoiy me’yorlar bilan tanishdi. Bu esa ularning madaniyatlararo tafakkurini kengaytirishga xizmat qildi.

Masalan, ingliz tilidagi *“Why did the student eat his homework? Because the teacher said it was a piece of cake”* latifasi idiomatik iboraga asoslangan bo‘lib, *“a piece of cake”* iborasi *“juda oson ish”* degan ma’noni anglatadi. Latifada esa ushbu ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda tushunilib, kulgili vaziyat yuzaga keladi. Ushbu misol orqali talabalar ko‘chma va to‘g‘ri ma’nolarni farqlashni o‘rganadi hamda ingliz tiliga xos idiomatik ifodalar bilan tanishadi.

Yana bir ingliz tilidagi latifa – *“Why don’t we tell secrets on a farm? Because the potatoes have eyes and the corn has ears”* – metaforik ifodalarga asoslangan. Bu yerda *“eyes”* va *“ears”* so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, yashirin ma’no hosil qiladi. Talabalar bunday latifalar orqali obrazli fikrlashni rivojlantiradi va tilning madaniy xususiyatlarini anglaydi.

O‘zbek tilidagi latifalar ham talabalarning madaniy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, *“O‘qituvchi: Nega kech qolding?*

Talaba: *Ustoz, tushimda darsga kelgandim.*

O‘qituvchi: *Unda nega uyg‘onmading?*

Talaba: *U yerda ham kech qolibman”* latifasi mubolag‘a va absurd vaziyat asosida qurilgan bo‘lib, talabalar orasida keng tarqalgan hazil uslubini aks ettiradi. Bu esa milliy mentalitetni tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, *“Teacher: If you had 10 apples and I took away 5, what would you have?*

Student: *A problem with you, teacher”* latifasi kutilmagan javob asosida qurilgan bo‘lib, talabalar kreativ fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu kabi latifalar pragmatik kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, latifalardan foydalanish jarayonida talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: til birliklarini kontekstda tushunish; yashirin ma’no va kinoyani anglash; madaniy farqlarni aniqlash va taqqoslash; o‘z fikrini erkin va mantiqiy ifodalash. Dars jarayonida latifalarni muhokama qilish, izohlash va qayta hikoya qilish kabi faoliyatlar talabalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar darsda faol ishtirok etib, o‘zaro muloqotga kirishdi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, latifalardan foydalanilgan darslarda talabalar mavzuni tezroq o‘zlashtiradi va o‘rganilgan materialni uzoqroq vaqt eslab qoladi. Buning asosiy sababi sifatida latifalarning emotsional va qiziqarli xarakterga ega ekanligi ko‘rsatildi.

Umuman olganda, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tajribasi asosida olib borilgan tahlillar latifalardan foydalanish xorijiy til darslarida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda samarali metod ekanligini tasdiqlaydi. Bu metod talabalarni nafaqat tilni o‘rganishga, balki boshqa madaniyatni tushunishga ham undaydi.

Natijalar qismi: Olib borilgan tadqiqot natijalari xorijiy til darslarida latifalardan foydalanish talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda samarali metod ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari ishtirokida amalga oshirilib, latifalarga asoslangan dars mashg‘ulotlarining samaradorligi kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, latifalardan foydalanilgan darslarda talabalar faolligi an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etib, latifalarni tushunish, izohlash va muhokama qilishda yuqori qiziqish bildirdi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Latifalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar: yangi leksik birliklarni tezroq o‘zlashtirdi; ko‘p ma’noli so‘zlar va iboralarni kontekstda tushunishga erishdi; madaniy xususiyatlarni anglash va taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, latifalardan foydalanish talabalarning emotsional faolligini oshirib, o‘rganilayotgan materialni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam berdi. Ayniqsa, humor elementlari mavjud bo‘lgan materiallar talabalar tomonidan osonroq qabul qilinishi va eslab qolinishi aniqlandi.

Bundan tashqari, talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatish va suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, latifalar orqali o‘rganilgan materiallar an’anaviy usullarga qaraganda ko‘proq esda qoladi va amaliy nutqda faolroq qo‘llaniladi. Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, madaniy farqlarni tushuntirishga va taqqoslashga intildi.

Umuman olganda, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tajribasi asosida olingan natijalar latifalardan foydalanish xorijiy til darslarida:ta’lim samaradorligini oshirish; talabalar motivatsiyasini kuchaytirish; madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun muhim didaktik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qismi: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xorijiy til darslarida latifalardan foydalanish talabalarda nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi e’tiborga olinishi zarur bo‘lib, latifalar ushbu ikki omilni uyg‘unlashtiruvchi samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, latifalar asosida tashkil etilgan darslar talabalar faolligini oshiradi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Latifalar orqali talabalar til birliklarini tabiiy kontekstda o‘rganadi, yashirin ma’no va kinoyani tushunishga harakat qiladi hamda o‘rganilayotgan til madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini anglaydi. Latifalar madaniy tafovutlarni aniqlash va taqqoslash imkonini berib, talabalarda bag‘rikenglik, hurmat va ochiqlik kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ularning real kommunikativ vaziyatlarda samarali ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tajribasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalari latifalardan foydalanish xorijiy til ta’limida innovatsion va samarali metod ekanligini tasdiqladi. Mazkur metod nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy til darslarida latifalardan maqsadli va tizimli foydalanish talabalarning til o‘rganish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va mazmunli qiladi hamda ularni global kommunikativ muhitga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

2. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 295 p.

3. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 256 б.

4. Сафаров Ш. Лингвокультурология асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 180 б.

5. Mirabdullayeva Zulfiya Olimjonovna, ANALYSIS OF ANECDOTES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES , European International Journal of Philological Sciences: Vol. 3 No. 05 (2023): Volume - III Issue - V

6. Mirabdullayeva Zulfiya Olimjonovna. COMPOSITIONAL AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF THE ANECDOTES. (2023). *European International Journal of Philological Sciences*, *3*(05), 45-47. https://inlibrary.uz/index.php/eijps/article/view/22938

7. Mirabdullaeva Z. O. SEMANTIC TRANSFORMATIONS AND THE USE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ANECDOTES //SHOKH LIBRARY. – 2025. – Т. 1. – №. 12.

TOPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Muhammadjonova Mohlaroy
Tashkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
Email: mohlaroymuhammadjonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola lingvokultural tadqiqotlar doirasida toponimlarning tushunchaviy ahamiyatini o‘rganib, joy nomlarini oddiy geografik yorliqlar emas, balki murakkab madaniy belgilar sifatida talqin qiladi. Tadqiqot toponimlarning kollektiv xotira, tarixiy bilim va madaniy jihatdan shakllangan dunyoqarash manbayi sifatida qanday faoliyat ko‘rsatishini yoritib berishga qaratilgan bo‘lib, an‘anaviy matn manbalarida ko‘pincha uchramaydigan ma‘lumotlarni taqdim etadi. Interdisiplinar metodologiyaga tayangan holda, tadqiqot toponimlarning qatlamli tuzilishini va ularning ijtimoiy-madaniy bilimlarni ifodalashdagi rolini tahlil qilish uchun semantik-motivatsion tahlil, tarixiy-etimologik izoh hamda kognitiv-lingvistik yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, toponimlar bir vaqtning o‘zida bir nechta tushunchaviy darajada faoliyat yuritadi: ular atrof-muhitni idrok etish usullarini aks ettiradi, etnolingvistik merosni ifodalaydi hamda jamoaviy ongda ramziy ahamiyatga ega makonlarni belgilaydi. Ularning semantik va etimologik tuzilmalari madaniy aloqa zonalarini, jamiyat ustuvorliklaridagi o‘zgarishlarni hamda vaqt o‘tishi bilan mahalliy dunyoqarash evolyutsiyasini ochib beradi. Bundan tashqari, tahlil shuni ko‘rsatadiki, joy nomlari til va madaniyat kesishgan nuqtada moddiy va nomoddiy merosni saqlovchi ixcham madaniy matnlar sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot toponimik dalillarni lingvokultural tadqiqotlarga integratsiya qilishning metodologik ahamiyatini ta‘kidlab, ularning identitet, madaniy davomiylik va tarixiy ongni tahlil qilishdagi salohiyatini yoritadi. Toponimlarni tushunchaviy va madaniy konstruksiya sifatida tizimli o‘rganish orqali tadqiqot ushbu til birliklari jamoalarning bilimni qanday talqin qilishi, muhokama qilishi va avloddan-avlodga uzatishini tushunishda ulkan ahamiyatga ega ekanini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: toponimika, lingvokulturologiya, madaniy identitet, joy nomlari, madaniy xotira

Kirish. ”Qadim zamonlardan beri insonlar geografik nomlarning ma‘nolari bilan qiziqib kelgan. Masalan, qadimgi Misrda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmiga oid sopol parchalarga yozilgan “la‘nat matnlari” (curse texts) Misr uchun tahdid deb hisoblangan ko‘plab shaharlar nomlarini o‘z ichiga olgan. Misrshunoslar ushbu ro‘yxatlarni o‘qib chiqib, ular orasida Ashkelon, Pella, Rehov va Quddus kabi shaharlar mavjudligini aniqlaganlar. Bu amaliyot joy nomlarining madaniy va geopolitik masalalardagi ahamiyati juda qadim zamonlardan boshlab anglanganini ko‘rsatadi”. Demak joy nomlarini nafaqat geografik nomlar sifatida, balkim ularni ijtimoiy qadryatlar, kollektiv xotira va madaniy dunyoqarashning umumiy ko‘rsatkichlari sifatida ham xizmat qilishi ushbu qadimiy davrlardan ham ma‘lum ekan. “Lingvokulturologiya esa

madaniyatshunoslik va tilshunoslikning bir-biriga yaqin fan sifatida til birliklarining madaniy ma‘nolarini o‘zida aks ettirgan birliklar sifatida ko‘radi. Ushbu nuqati nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, toponimlarni o‘rganishimiz insonlarning makonni qanday tasavvur qilishlari yoki atrof-muhitni qay darajada talqin qilishlari va olgan madaniy bilimlarini avloddan-avlodga qanday qilib yetkazishlarini tushunishga ma‘lumotlar beradi. Stewartga ko'ra, “joy nomlari tarixiy voqealarni, diniy e‘tiqod tizimlarini va madaniy an‘analarning izlarini saqlab qoladi, bu orqali esa ular uchun etnokultural meroslarni qayta tiklash uchun qimmatbaho manbaga aylanadi”. Bugungi kundagi mavjud bo‘lgan tadqiqotlarning ma‘lum bir qismi joy nomlarining etimologiyasi, ularning tasnifi yoki geoegrafik tarqalishiga bag‘ishlangan bo‘lsada, ularning strukturalari va madaniy ma‘nolari atroflicha e‘tiborga olinmaydi. Kadmonga ko‘ra, "nom berish amaliyotining madaniy mantiqi ko‘p hollarda struktural yoki kartografik masalalar bilan bog‘lanadi”. Shu tufayli, toponomik birliklarda ifodalangan tushuncha kategoriyalarini ochib berish va ushbu kategoriyalarning kollektiv dunyoqarashni qanday aks ettirishini tushunishimiz uchun esa bizga lingvokulturologik tahlil kerak bo'ladi

Lingvokultural tadqiqotlarda joy nomlarining tushuncha jihatidan o‘rni va uning ahamiyatini o‘rganish juda muhimdir. Shu tufayli, tadqiqot ushbu savollarga javob beradi: toponimlarda qanday madaniy ma‘nolar mujassamlashgan; bu ma‘nolar milliy tushuncha strukturalarini qanday namayon qiladi; toponomik materiallarni tahlil qilish natijasida qaysi lingvokultural kategoriyalar yuzaga chiqadi;

Metodologik jihatdan ushbu maqolada tadqiqot va semantik tahlildan foydalangan bo‘lib, unda etimologik va tavsifiy talqin ham qo‘llaniladi. Ushbu kombinatsiya toponimlarning madaniy jihatdan juda muhim ma‘no anglatish jihatini beradi. Aynan ushbu metodlarning uyg‘un qo‘llanishi toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi, chunki toponimlar faqat geografik nomlar bo‘lib qolmay, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan til birliklari hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda joy nomlarining adabiy diskursdagi tushunchaviy ma‘nolarini anqilash va lingvokulturologik jihatini ochib berishdir. Tadqiqot adabiy dostonlarda aks ettirilgan tarixiy, madaniy va geografik bilimlarni aks ettirgan joy nomlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu ishda, joy nomlari nafaqat geografik belgilar sifatida, balki madaniy tushunchalar va ramziy ma‘nolarni o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida ham o'rganiladi.

Tadqiqot uchun yig‘ilgan ma‘lumotlar turli madaniy an‘analarni o‘zida mujassam etgan ikki epik matnlardan olingan. Bular o‘zbek xalq dostoni "Alpomish" va qadimgi ingliz dostoni "Beowulf". Ushbu asarlarning tanlanishiga sabab, ularning ko‘plab geografik joylarga ishora qiluvchi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi va bu joylar ularning yaratgan jamiyatlarining madaniy dunyoqarashini aks ettiradi.

Joy nomlarining jamlanmasi statistik usuli yordamida tuzilgan. Ushbu bosqichda tanlangan matnlarda uchraydigan barcha joy nomlari aniqlanib, ajratib

olingan. Har bir toponimning uchrashi uning hikoya kontekstidagi ishlatilishi bilan birgalikdan qayd etilgan.

Yig‘ilgan materiallar turli turdagi geografik nomlarga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, jumladan:

-hududlar va qabila yerlari
-tog‘lar, daryolar va ko‘llar
-qishloqlar, shaharlar va madaniy markazlar
-mifologik yoki ramziy joylar

Ushbu jarayon orqali keyingi lingvistik va tushunchaviy tahlil uchun keng qamrovli toponimik birliklar to’plnamasi yaratilgan.

Tushunchaviy talqin jarayonini osonlashtirish maqsadida ajratib olingan joy nomlari ularning semantik va madaniy xususiyatlariga ko‘ra bir nechta tematik kategoriyalarga ajratildi. Ushbu kategoriyalar quyidagilardan iborat:

-Etnogeografik toponimlar - qabila hududlariga oid joy nomlari

-Tabiiy manzara toponimlari - tog‘lar, ko‘llar va cho‘llarga ishora qiluvchi nomlar

-Ijtimoiy-madaniy toponimlar - qishloqlar yoki siyosiy markazlarni ifodalovchi nomlar

Mifologik yoki ramziy joy nomlari - madaniy e’tiqodlarni aks ettiruvchi nomlar

Ushbu tasnif toponimlar orqali dostonlardagi asosiy lingvokultural tushunchalarni aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Ikki xalq dostonidan yig‘ilgan tahlilga ko‘ra, joy nomlarida makon va madaniy tushunchalarning ifodalanishi muhim o‘rin egallaydi. Umuman olganda, Alpomishda 1100 dan ortiq toponimlar aniqlangan bo‘lib, bu geografik, ijtimoiy va ramziy bog‘lanishlarning boy tarmog‘ini aks ettiradi. Beowulfda esa kamroq, lekin tushunchaviy jihatdan muhim bo‘lgan taxminan 20-25 noyob toponim mavjud bo‘lib, u Anglo-Sakson dunyosining markaziy hududlari, aholi punktlari va mifologik joylarini ifodalaydi.

Tushunchaviy tahlilni osonlashtirish uchun ajratilgan toponimlar to‘rt asosiy lingvokultural kategoriyalarga bo‘lingan:

Etnoteritorial toponimlar – qabila hududlari yoki etnik hududlarni belgilovchi va jamoaning madaniy identitetini aks ettiruvchi nomlar.

-Alpomishda: Qo‘ng‘irot, Qalmoq, Boysun
-Beowulfda: Geatland, Denmark, Wulfings yerligi

Vatan va identitetga oid toponimlar - qahramonlar yoki muhim guruhlarning ona yurtini bildiruvchi, ko‘pincha mansublik va sadoqat tushunchalarini mujassam etuvchi nomlar.

-Alpomishda: Boysun
-Beowulfdqa: Geatland

Tabiiy manzara toponimlari - tog‘lar, ko‘llar, daryolar va cho‘llarni qamrab olgan nomlar bo‘lib, tavsifiy va ramziy funksiyalarni bajaradi.

-Alpomishda: Chilbir cho‘li, Ko‘kqamish ko‘li, Olatog‘
-Beowulf: Daniya sohilidagi hudud

Madaniy va mifologik markazlar - aholi punktlari, qirollik zallari yoki ijtimoiy va ruhiy ma’noga ega ramziy joylar.

-Alpomishda: Shohimardon pir ravzasi

-Beowulf: Heorot

Mifologik makonlar: Beowulfdagi Hell va Alpomishdagi Shohimardon pir ravzasi, epik asarlarda diniy tushunchalarning integratsiyasini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala dostondagi toponimlar geografik, ijtimoiy va ramziy ma‘nolarning murakkab o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. ‘‘Alpomish‘‘da makonning tabiiy va qabila jihatlari ustuvor bo‘lib, qahramon bilan uning dasht muhiti o‘rtasidagi kuchli bog‘lanishni aks ettiradi, Beowulf esa madaniy, siyosiy va mifologik markazlarni ta‘kidlab, Anglo-Sakson jamiyatining strukturaviy va ierarxik dunyoqarashini ochib beradi. Ushbu natijalar toponimlarning lingvokultural belgi sifatida xizmat qilishini, epik hikoyalarda mujassamlangan tarixiy bilim va madaniy qadriyatlarni saqlashini ko‘rsatadi.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, toponimlar madaniy bilimlarning tushunchaviy tashuvchisi sifatida xizmat qiladi, ijtimoiy, makon va ramziy ma‘nolarni ifodalaydi. ‘‘Alpomish‘‘va ‘‘Beowulf‘‘da joy nomlari nafaqat oddiy geografik belgilar, balki tarixiy xotira, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy dunyoqarashni saqlaydi.

‘‘Alpomish‘‘da Qo‘ng‘irot va Chilbir cho‘li kabi etnoteritorial va tabiiy manzara toponimlari qabila identiteti va dasht muhiti bilan bog‘lanishni ta’kidlaydi. Bu nomlar qahramonni tanish manzaraga bog‘lab, sadoqat, mansublik va madaniy merosning davomiyligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, “Beowulf” madaniy markazlar va mifologik makonlarni, jumladan Heorot va Hellni oldinga chiqaradi, bu esa ijtimoiy ierarxiya, rituallashtirilgan hokimiyat va diniy e‘tiqodlarni aks ettiradi. Geatland kabi qabila hududlari qahramon-jamoa aloqalarini saqlab qolsa-da, ramziy va siyosiy makonlar oldingi o‘rinda turadi.

Taqqoslash toponimik ifodalardagi madaniy xoslikni ko‘rsatadi. ‘‘Alpomish” o‘zlikni tabiiy va qabila makoni bilan uyg‘unlashtirsa, ‘‘Beowulf” ierarxik ijtimoiy va mifologik muhitni ta‘kidlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, lingvokulturologik yondashuv toponimlarni faqat geografik belgi sifatida emas, balki tushunchaviy va ramziy qatlamlarni o‘rganish orqali madaniy bog‘liqliklarni ochish va epik hikoyalar orqali tarixiy, ijtimoiy va ruhiy bilimlarni qanday saqlash va uzatishni tushunish imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, toponimlar oddiy geografik belgilardan ko‘proq bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy va ramziy ma‘nolarni ifodalaydigan lingvokultural belgilar sifatida xizmat qiladi. ’’Alpomish’’ va ‘‘Beowulf’’ning taqqosiy tahlili orqali joy nomlarining epik hikoyalarda madaniy bog’liqlik, identitet va dunyoqarashni qanday aks ettirishi ochib berildi.

‘‘Alpomish”da toponimlar etnoteritorial va tabiiy manzaralarni ta‘kidlab, qahramonning qabila yurtlari va dasht muhiti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu landshaftning ijtimoiy identitet va madaniy davomiylikni shakllantirishdagi rolini

yoritadi. ‘‘Beowulf‘‘da esa madaniy markazlar va mifologik makonlar oldinga chiqarilib, ijtimoiy ierarxiya, rituallashtirilgan hokimiyat va diniy e‘tiqodlarni aks ettiradi. Taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, toponimlarning funksiyasi va tushunchaviy urg‘usi madaniyatga xos bo‘lib, turli jamoalarning kognitiv va ijtimoiy ramkalarini aks ettiradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu yondashuvni boshqa adabiy an‘analarga kengaytirib, turli tarixiy va til kontekstlarida toponimlarning geografiya, madaniyat va kognitsiya o‘rtasidagi vositachilik rolini o‘rganishi mumkin. Umuman olganda, ushbu tadqiqot inson jamiyatlari til orqali madaniy qadriyatlarni qanday ifodalaydi va saqlaydi degan masalani chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi, shuningdek, toponimlarning hikoya va madaniy tadqiqotlarda doimiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

References

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. -М.: Флинта: Наука, 2010. – 288 с.

2. Kadmon N. Toponymy: The Lore, Laws and Language of Geographical Names. -New York: Vantage Press, 2000. -305 p.

3. Stewart G.R. Names on the Land: A Historical Account of Place-Naming in the United States. -Boston: Houghton Mifflin, 1970. -418 p.

4. Tent J., Blair D. Motivations for Naming: The Development of a Toponymic Typology // Names: A Journal of Onomastics. -2011. - Vol. 59. -№ 2. - Pp. 67–89.

5. Юнусов М. М. Топонимика Палестины в египетских «текстах проклятий» Среднего царства. // Иудаика и библеистика: Материалы Второй ежегодной конференции по иудаике и востоковедению / Отв. ред. К. А. Битнер, Л. А. Лукинцова; Петербургский институт иудаики. СПб., 2013. 271 с. С. 33-46

BADIIY MATNDA XALQONA IBORALAR TARJIMASI: “IKKI ESHIK ORASI” ROMANI MISOLIDA

Mullajonova Gulira'no Maxamadjon qizi
mullajonovagulirano@gmail.com
Xorijiy til va adabiyot, ingliz tili magistratura mutaxassisligi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Abidova Zilola Xabibullayevna
https://orcid.org/0000-0002-3013-0063
G‘arb tillari kafedrasi Phd, katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida uchraydigan xalqona til birliklari, maqollar, frazeologik iboralar hamda milliy madaniy realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalar tahlil qilinadi. Badiiy asarlarda xalqona iboralar milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy muhitni

ifodalovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida ekvivalent tarjima, tavsifiy tarjima, madaniy moslashtirish, izohli tarjima va metaforik tarjima strategiyalarining qo‘llanishi qiyosiy-lingvistik tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi ko‘plab xalqona iboralar ingliz tilida to‘liq semantik ekvivalentga ega emas. Shu sababli tarjimon ko‘pincha tavsifiy yoki madaniy moslashtirish strategiyalaridan foydalanadi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, frazeologiya, xalqona iboralar, idiomalar, tarjima strategiyalari, lingvosemantika*.

Аннотация:В данной статье анализируются стратегии перевода народно-разговорных языковых единиц, пословиц, фразеологических выражений и национально-культурных реалий, встречающихся в романе известного узбекского писателя Уткира Хашимова «Между двумя дверями» («Ikki eshik orasi»), на английский язык. Народные выражения в художественных произведениях являются важным лингвистическим средством, отражающим национальный менталитет, культурные ценности и социальную среду общества. В ходе исследования на основе сравнительно-лингвистического анализа были рассмотрены такие переводческие стратегии, как эквивалентный перевод, описательный перевод, культурная адаптация, пояснительный перевод и передача метафорических выражений. Результаты анализа показывают, что многие народные выражения узбекского языка не имеют полного семантического эквивалента в английском языке. В связи с этим переводчик нередко использует описательный перевод или стратегию культурной адаптации. Полученные результаты подтверждают важность сохранения национального колорита при переводе художественных текстов.

Ключевые слова: *художественный перевод, фразеология, народные выражения, идиомы, переводческие стратегии, лингвосемантика.*

Abstract: This article analyzes the strategies used in translating colloquial language units, proverbs, phraseological expressions, and national cultural realia found in the novel *“Ikki eshik orasi”* by the well-known Uzbek writer O‘tkir Hoshimov into English. In literary works, folk expressions serve as important linguistic tools that reflect the national mentality, cultural values, and social environment of a society. During the study, the application of translation strategies such as equivalent translation, descriptive translation, cultural adaptation, explanatory translation, and metaphorical translation was examined through comparative linguistic analysis. The results of the analysis show that many folk expressions in the Uzbek language do not have full semantic equivalents in English. Therefore, translators often resort to descriptive translation or cultural adaptation strategies. The findings emphasize the importance of preserving national color and cultural identity in the translation of literary texts.

Keywords: *literary translation, phraseology, folk expressions, idioms, translation strategies, linguosemantics.*

Kirish qismi: Badiiy asar tarjimasi tarjimashunoslikning eng murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki badiiy matn faqatgina axborot yetkazish

vositasi emas, balki estetik va madaniy mazmunni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, xalqona iboralar, maqollar va frazeologik birliklar badiiy asarda muhim stilistik vazifani bajaradi.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotida xalq ruhiyatini, insoniy munosabatlarni va milliy qadriyatlarni chuqur tasvirlagan yozuvchilardan biridir. Uning “Ikki eshik orasi” romani o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim badiiy asarlardan biridir.

Asarda xalqona nutq elementlari keng qo‘llanilgan. Bu birliklar personajlarning xarakterini ochib berish, voqealarning tabiiyligini ta’minlash va milliy muhitni yaratish vazifasini bajaradi. Ammo bunday iboralarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Shu sababli tarjimon ma’noni to‘g‘ri yetkazish uchun turli strategiyalardan foydalanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi “Ikki eshik orasi” romanidagi xalqona iboralarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalarni aniqlash hamda ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi: Tarjima nazariyasida frazeologik birliklarni tarjima qilish masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Nida (1964) tarjimada **dinamik ekvivalentlik** nazariyasini ilgari surib, tarjima o‘quvchida asl matndagi ta’sirni saqlab qolishi kerakligini ta’kidlaydi.

Newmark (1988) badiiy tarjimada semantik va kommunikativ yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, semantik tarjima matnning asl ma’nosini saqlashga qaratilgan bo‘lsa, kommunikativ tarjima o‘quvchiga tushunarli bo‘lishni maqsad qiladi.

Baker (2011) idiomalar tarjimasida quyidagi strategiyalarni ko‘rsatadi:

- ekvivalent idiomadan foydalanish
- tavsifiy tarjima
- umumlashtirish
- iborani tushirib qoldirish

Venuti (1995) esa tarjimada madaniy strategiyalarni ajratib ko‘rsatib, **domestication** va **foreignization** tushunchalarini taklif etadi.

Metodologiya: Tadqiqot qiyosiy-lingvistik tahlil metodiga asoslangan. Tadqiqot materiali sifatida “Ikki eshik orasi” romanida uchraydigan xalqona iboralar tanlab olindi.Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Asarda uchraydigan frazeologik birliklarni aniqlash
2. Ularning semantik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish
3. Ingliz tiliga tarjima variantlarini ishlab chiqish
4. Tarjima strategiyalarini aniqlash

Natijalar: Badiiy asarlarda uchraydigan xalqona iboralarni tarjima qilish jarayonida turli strategiyalar qo‘llaniladi. Ulardan biri ekvivalent tarjima strategiyasi bo‘lib, bunda iboraning ma’nosi boshqa tilda mavjud bo‘lgan frazeologik birlik orqali ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Ko‘z ochib yumguncha vaqt o‘tib ketdi”* iborasi ingliz tilida *“Time passed in the blink of an eye”* shaklida tarjima qilinadi. Bu ibora ingliz tilida ham mavjud bo‘lgan frazeologik birlik bilan mos keladi, shu sababli ekvivalent tarjima usuli qo‘llanilgan.

Ba’zi hollarda esa ibora ingliz tilida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda tavsifiy tarjima strategiyasidan foydalaniladi. Masalan, *“Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi”* iborasi ingliz tilida *“He felt extremely happy and relieved”* tarzida ifodalanadi. Bu yerda iboraning obrazli ma’nosi ingliz tilida mavjud bo‘lmagani sababli uning mazmuni tavsif orqali tushuntirilgan.

Tarjima jarayonida madaniy moslashtirish strategiyasi ham qo‘llanilishi mumkin. Bu usulda ibora ingliz tilidagi o‘xshash ma’noga ega ifoda bilan almashtiriladi. Masalan, *“Bir gapni qirq marta aytma”* iborasi ingliz tilida *“Don’t repeat the same thing again and again” t*arzida tarjima qilinadi. Bu yerda maqolning asosiy ma’nosi saqlangan bo‘lsa-da, u so‘zma-so‘z tarjima qilinmagan.

Bundan tashqari, metaforik iboralarni tarjima qilish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, *“Yuragi ezilib ketdi”* iborasi ingliz tilida “*His heart was filled with sorrow”* tarzida tarjima qilinadi. Bu holatda iboraning metaforik ma’nosi saqlangan holda boshqa tilda ifodalangan.

Frazeologik iboralar tarjimasida ingliz tilidagi ekvivalent idiomalar ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, “Uning boshi osmonga yetdi” iborasi ingliz tilida “He was over the moon” tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda ingliz tilidagi mos idiomadan foydalanish orqali iboraning emotsional mazmuni saqlab qolingan.

Milliy madaniy realiyalarni tarjima qilish jarayonida izohli tarjima strategiyasi qo‘llanilishi mumkin. Masalan, *“Mahalla ahli yig‘ildi”* iborasi ingliz tilida *“The people of the mahalla (traditional Uzbek neighborhood community) gathered”* tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda “mahalla” tushunchasi ingliz tilida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmagani sababli izoh bilan berilgan.

Shu tariqa, xalqona iboralarni tarjima qilish jarayonida ekvivalent tarjima, tavsifiy tarjima, madaniy moslashtirish, izohli tarjima va metaforik tarjima kabi strategiyalar qo‘llaniladi. Bu strategiyalar badiiy matnning mazmuni va milliy koloritini boshqa tilda saqlab qolishga yordam beradi.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqona iboralarni tarjima qilish jarayoni lingvistik va madaniy muammolar bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi ko‘plab iboralar xalq hayoti, urf-odatlari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, “mahalla”, “osh”, “to‘y” kabi tushunchalar ingliz tilida to‘liq ekvivalentga ega emas. Shu sababli tarjimada izohli usul qo‘llaniladi. Shuningdek, metaforik iboralar tarjimasida semantik moslikni saqlash muhim hisoblanadi. Agar ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, ma’no yo‘qolishi mumkin.

Xulosa. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida xalqona til birliklari asarning badiiy qiymatini oshiruvchi muhim element hisoblanadi. Ushbu birliklarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida turli strategiyalar qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra eng samarali strategiyalar quyidagilar hisoblanadi:

- ekvivalent tarjima
- tavsifiy tarjima
- madaniy moslashtirish
- izohli tarjima

Tarjimon ushbu strategiyalarni kontekstga qarab qo‘llashi kerak. Bu esa asarning milliy koloritini saqlab qolish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova, Z. X. (2023). Tarjimalarda tafakkur fe’llari semantik darajalanish usullari. In Chet tillarni o‘qitishda dolzarb muammolar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (Vol. 1, pp. 186–192).
2. Baker, M. (2011). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
3. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
4. Nida, E. (1964). Toward a science of translating. Brill.
5. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet.
6. Venuti, L. (1995). The translator’s invisibility: A history of translation. Routledge.
7. Нурмонов, А. (2012). Lingvistik tadqiqotlar nazariyasi. Toshkent: Akademnashr.
8. Швейцер, А. Д. (1988). Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. Москва: Наука.

INGLIZ–O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA MADANIYATGA XOS SO‘ZLARNI O‘QITISH METODIKASI

Munavvarxonova Madinaxon
O‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish metodikasi masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniyatga xos leksik birliklar, realiyalar, lakunalar hamda lingvomadaniy birliklarning tarjima jarayonidagi o‘rni va ularni lug‘atlarda ifodalash xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bunday birliklarni o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda kontekstual va qiyosiy tahlil usullarining samaradorligi asoslab beriladi. Maqolada madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, tarjima strategiyalarini o‘rgatish va talabalarning lingvomadaniy tafakkurini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili va tarjima nazariyasi fanlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *madaniyatga xos so‘zlar, leksikografiya, realiyalar, lakunalar, tarjima strategiyalari, ekvivalentlik, madaniyatlararo kompetensiya, o‘qitish metodikasi.*

Abstract: This article examines the methodology of teaching culture-specific words in English–Uzbek lexicography from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes culture-bound lexical units, realia, lacunae, and linguocultural elements, as well as their representation in bilingual dictionaries and their role in the translation process. Special attention is given to modern pedagogical approaches, interactive methods, and contextual and comparative analysis techniques used in teaching such lexical items. The paper also emphasizes the development of intercultural communicative competence, translation strategies, and

students’ linguocultural awareness. The findings of the research contribute to improving the teaching process of translation theory and English language studies in higher education.

Keywords: *culture-specific words, lexicography, realia, lacunae, linguocultural units, equivalence, intercultural competence, teaching methodology.*

Аннотация: В данной статье рассматривается методика преподавания культурно-специфической лексики в англо-узбекской лексикографии с теоретической и практической точек зрения. Анализируются культурно маркированные лексические единицы, реалии, лакуны и лингвокультурные элементы, а также особенности их представления в двуязычных словарях и роль в процессе перевода. Особое внимание уделяется современным педагогическим подходам, интерактивным методам, а также контекстуальному и сопоставительному анализу при обучении данной лексике. Подчеркивается значение формирования межкультурной коммуникативной компетенции, переводческих стратегий и развития лингвокультурного мышления студентов. Результаты исследования способствуют совершенствованию преподавания теории перевода и английского языка в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *культурно-специфическая лексика, лексикография, реалии, лакуны, переводческие стратегии, эквивалентность, межкультурная компетенция, методика обучения.*

Kirish qismi: Globallashuv jarayonining jadallashuvi, madaniyatlararo muloqot ko‘lamining kengayishi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi zamonaviy tilshunoslik hamda tarjimashunoslik oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, turli tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni chuqur anglash, milliy-madaniy xususiyatlarni to‘g‘ri talqin qilish hamda ularni adekvat tarjima qilish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, madaniyatga xos so‘zlar (realiyalar, lakunalar, lingvomadaniy birliklar) ingliz–o‘zbek leksikografiyasida alohida e’tibor talab qiladigan qatlam hisoblanadi.

Madaniyatga xos leksik birliklar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, mentaliteti, an’ana va qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Bunday birliklar ko‘pincha boshqa til tizimida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmaydi yoki semantik va pragmatik jihatdan farqlanadi. Natijada ularni lug‘atlarda berish, izohlash va tarjima qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, ikki tilli lug‘atlar tuzishda milliy-madaniy komponentni saqlash, izoh va tarjima variantlarini to‘g‘ri tanlash masalasi leksikografik aniqlikni talab qiladi.

So‘nggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik sohalarida madaniy birliklarni o‘rganishga oid ilmiy tadqiqotlar kengaymoqda. Biroq madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish metodikasi, xususan, ingliz–o‘zbek leksikografiyasi doirasida ularni tizimli ravishda o‘rgatish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalarda madaniy konnotatsiyani anglash, ekvivalentlik darajasini aniqlash va mos tarjima strategiyasini tanlash ko‘nikmalari har doim ham yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish metodikasini ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida madaniyatga xos leksik birliklarning nazariy asoslarini yoritish, ularning lug‘atlarda ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan metod va strategiyalarni ishlab chiqish belgilandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish jarayoni lingvomadaniy va leksikografik yondashuvlar integratsiyasi asosida ko‘rib chiqiladi. Natijalar ingliz tili va tarjima nazariyasi fanlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar metodologiyasi: Ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish masalasi tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va leksikografiya kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammodir. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, til va madaniyat o‘zaro ajralmas hodisalardir. Xususan, E. Sapir “til madaniyatni aks ettiruvchi ramziy tizimdir” deb qayd etadi. Bu fikr madaniyatga xos birliklarni o‘qitishda ularning faqat semantik emas, balki madaniy mazmunini ham ochish zarurligini ko‘rsatadi.

Tarjimashunos olim P. Nyumark realiyalarni “madaniy birliklar” deb atab, ularni tarjima qilishda izohli tarjima va transkripsiya usullarini tavsiya etadi. Uning fikricha, “madaniy so‘zlar ko‘pincha to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmaydi va tarjimon kontekstga tayangan holda eng maqbul variantni tanlashi kerak”. Masalan, *“Thanksgiving yoki Black Friday”* kabi birliklar o‘zbek tiliga oddiy so‘zma-so‘z tarjima bilan emas, balki izohli tarzda berilishi lozim. Bu jarayonda talabalarga so‘zning tarixiy va ijtimoiy konteksti tushuntirilsa, lingvomadaniy kompetensiya shakllanadi.

Nida esa tarjimada “dinamik ekvivalentlik” tamoyilini ilgari surib, tarjima natijasi manba tilidagi auditoriyada qanday ta’sir uyg‘otsa, maqsad tilidagi o‘quvchida ham shunday ta’sir uyg‘otishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitishda ayniqsa muhimdir. Masalan, *“carry coals to Newcastle”* iborasi o‘zbek tilida funksional jihatdan *“keraksiz ish qilmoq”* yoki unga yaqin mazmundagi frazeologizm bilan berilishi lozim. Bu yerda ma’no va ta’sir birligi saqlanishi asosiy mezon hisoblanadi.

V.N.Komissarov tarjimada milliy-madaniy komponentni saqlash muhimligini ta’kidlab, realiyalarni berishda izoh va sharhlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, madaniyatga xos birliklar tarjima jarayonida “informativ va emotsional yo‘qotish” xavfini tug‘diradi. Shu sababli o‘qitishda talabalarga tarjima strategiyalarini ongli ravishda tanlash ko‘nikmasini shakllantirish zarur.

Lingvomadaniyatshunos olim V.A.Maslova tilni “madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi vosita” sifatida talqin qiladi. U madaniyatga xos leksik birliklarni o‘rganishda konseptual tahlil metodini taklif etadi. Masalan, *“privacy”* tushunchasini o‘rganishda uning ingliz madaniyatidagi *“shaxsiy hudud”* konsepti bilan bog‘liqligi tahlil qilinishi lozim. O‘zbek madaniyatida esa jamoaviylik

ustuvorligi sababli bu konseptning mazmun doirasi farq qiladi. Bunday qiyosiy yondashuv talabalarning madaniyatlararo tafakkurini rivojlantiradi.

O‘zbek tilshunosligida ham lingvomadaniy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Sh. Safarov til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlab, har bir leksik birlik ortida muayyan mental model mavjudligini qayd etadi. Demak, madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitishda ularning ortidagi mental tasavvurlarni ochib berish zarur.

Tahlillar qismi: Ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish masalasi ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Madaniyatga xos leksik birliklar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu bois ularni tarjima qilish va o‘qitish jarayonida oddiy lug‘aviy muvofiqlik yetarli bo‘lmay, kengroq lingvomadaniy yondashuvni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, realiyalar ingliz–o‘zbek tarjimasida eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan birliklardan biridir. Masalan, *“Thanksgiving”* so‘zi o‘zbek tiliga *“Shukronalik kuni”* deb tarjima qilinadi, biroq bu tarjima uning tarixiy va madaniy mazmunini to‘liq ifodalamaydi. Ushbu bayramning kelib chiqishi, oilaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, an’anaviy taomlari va ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumot berilmasa, talaba mazkur birlikning to‘liq konseptual mazmunini anglay olmaydi. Demak, o‘qitish jarayonida realiyani faqat tarjima qilish emas, balki uning madaniy kontekstini ochib berish muhimdir.

Lakunalar ham alohida e’tibor talab etadi. Masalan, *“privacy”* tushunchasi ingliz madaniyatida shaxsiy hudud va daxlsizlikni anglatadi. O‘zbek tilida *“shaxsiy hayot daxlsizligi”* yoki *“maxfiylik”* kabi birliklar mavjud bo‘lsa-da, ular ingliz tilidagi konseptning barcha semantik va ijtimoiy jihatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli o‘qitishda qiyosiy tahlil usuli samarali hisoblanadi. Talabalarga ikki madaniyatdagi shaxsiy hudud tushunchasining farqlari misollar orqali ko‘rsatib berilganda, ular lingvomadaniy tafovutni chuqurroq anglaydi.

Milliy-madaniy konnotatsiyaga ega so‘zlar ham tarjima jarayonida murakkablik tug‘diradi. Masalan, *“gentleman”* so‘zi ingliz jamiyatida odobli, hurmatli va axloqiy me’yorlarga rioya qiluvchi erkak obrazini ifodalaydi. Uni shunchaki *“janob”* deb tarjima qilish ma’noni toraytiradi. Bu holatda izohli tarjima yoki kontekst asosida tushuntirish zarur bo‘ladi. Shuningdek, *“tea time”* tushunchasi ham oddiy *“choy ichish vaqti”* emas, balki ingliz madaniyatidagi an’anaviy ijtimoiy marosim sifatida qaraladi. Demak, o‘qitishda so‘zning pragmatik va madaniy komponentlarini ochish muhim ahamiyatga ega.

Frazeologik birliklar tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha noto‘g‘ri natija beradi. Masalan, *“carry coals to Newcastle”* iborasi *“keraksiz ish qilmoq”* ma’nosini anglatadi. Agar uni bevosita tarjima qilinsa, ma’no tushunarsiz bo‘lib qoladi. Bu kabi birliklarni o‘qitishda funksional ekvivalent topish va tarixiy asosini tushuntirish zarur. Bunday yondashuv talabalarning tarjima strategiyalarini ongli ravishda tanlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Leksikografik jihatdan ham madaniyatga xos birliklarni berish muhim metodik masaladir. Ikki tilli lug‘atlarda transliteratsiya, izohli tarjima, funksional

ekvivalent yoki kombinatsiyalashgan usul qo‘llaniladi. O‘qitishda talabalarni turli lug‘at manbalarini solishtirishga o‘rgatish, izohlarning aniqligi va to‘liqligini tahlil qilish orqali ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ularning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini birgalikda o‘rganish, qiyosiy tahlil, kontekstual yondashuv hamda kommunikativ metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish talabalarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish va tarjima mahoratini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Natijalar qismi: Mazkur tadqiqot doirasida ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish metodikasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi hamda quyidagi ilmiy natijalarga erishildi.

Birinchidan, madaniyatga xos leksik birliklar (realiyalar, lakunalar, milliy-konnotativ so‘zlar va frazeologizmlar) oddiy lug‘aviy tarjima orqali to‘liq anglashilmasligi aniqlandi. Ularning semantik qatlamidan tashqari pragmatik, tarixiy va madaniy komponentlari mavjud bo‘lib, o‘qitish jarayonida aynan shu jihatlarga e’tibor qaratish zarurligi asoslandi. Demak, madaniyatga xos birliklarni o‘qitish lingvistik va ekstralingvistik omillar uyg‘unligida olib borilishi lozim.

Ikkinchidan, tahlillar natijasida izohli tarjima, funksional ekvivalent tanlash va kombinatsiyalashgan usul (transliteratsiya + izoh) ingliz–o‘zbek lug‘atlarida eng samarali strategiyalar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, ekvivalentsiz birliklarni o‘qitishda qiyosiy tahlil va kontekstual yondashuv yuqori natija berishi kuzatildi. Bu metodlar talabalarda mustaqil fikrlash va tarjima strategiyasini ongli tanlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Uchinchidan, madaniyatga xos so‘zlarni kommunikativ va interaktiv metodlar asosida o‘qitish talabalarning lingvomadaniy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishi isbotlandi. Autentik matnlar, situatsion mashqlar, rol o‘yinlari hamda lug‘at tahlili asosidagi topshiriqlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa tarjima sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek madaniy konseptlari o‘rtasidagi tafovutlarni tizimli o‘rgatish madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Talabalar madaniy farqlarni anglab, tarjimada ma’no yo‘qotish yoki noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytiradi.

Beshinchidan, ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos birliklarni yanada mukammal ifodalash uchun lug‘at tuzishda konseptual izoh, stilistik belgilash va kontekstual misollardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu nafaqat tarjimonlar, balki til o‘rganuvchilar uchun ham muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tarjima ta’limi sifatini oshirish, talabalarda madaniyatlararo tafakkur va kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qismi: Mazkur tadqiqot ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, madaniyatga xos leksik birliklar til

tizimining oddiy elementi emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi murakkab lingvomadaniy hodisadir. Shu bois ularni o‘qitish jarayoni ham kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot davomida realiyalar, lakunalar, milliy-konnotativ birliklar va frazeologizmlarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosi markaziy o‘rin tutishi aniqlandi. Oddiy so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha mazmuniy yo‘qotishlarga olib keladi. Shuning uchun izohli tarjima, funksional ekvivalent, kontekstual va qiyosiy tahlil metodlari eng maqbul yondashuv sifatida e’tirof etildi.

Madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitishda kommunikativ, lingvomadaniy va integrativ metodlarning uyg‘un qo‘llanishi talabalarning tarjima kompetensiyasi hamda madaniyatlararo kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslandi. Autentik matnlar, lug‘at tahlili, situatsion mashqlar va konseptual izohlar asosida tashkil etilgan dars jarayoni samaraliroq natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz–o‘zbek leksikografiyasida madaniyatga xos so‘zlarni o‘qitish til va madaniyat birligi tamoyiliga asoslanishi zarur. Bunday yondashuv tarjima ta’limi sifatini oshirish, talabalarda lingvomadaniy tafakkurni shakllantirish va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda amaliy tajribalarni kengaytirish, ikki tilli lug‘atlarda madaniy komponentni yanada mukammal aks ettirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, M. (2022). The Appearance Of The Term “Education Dictionary” In World Linguistics Is Analyzed. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 28-2), 48-52.

2. Newmark P. A textbook of translation. – London : Prentice Hall, 1988. – 292 p.

3. Nida E. A. Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Leiden : Brill, 1964. – 331 p.

4. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М. : Высшая школа, 1990. – 253 с.

5. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М. : Академия, 2001. – 208 с.

6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик асослари. – Тошкент : Фан, 2006. – 276 б.

TRANSLATION THEORIES AND CULTURAL MEDIATION: CHALLENGES OF TRANSLATING HUMAN BEHAVIOUR, BODY LANGUAGE, AND CULTURAL EXPRESSIONS FROM UZBEK INTO ENGLISH

Musoyev Anvar Abduqodirovich,
Senior Teacher of Western Languages department,
Tashkent State University of Oriental Studies
musoyevanvar@gmail.com

Abstract: This article examines the application of translation theories in the process of translating culturally embedded elements such as human behaviour, body language, social customs, and culturally specific jargon from Uzbek into English. Translation between languages that belong to different cultural and historical traditions often requires more than linguistic equivalence; it demands cultural mediation and interpretive competence. The study analyzes theoretical foundations of translation studies, including equivalence theory, functionalism, and cultural translation approaches, and applies them to real pedagogical experiments conducted with first- and second-year university students studying translation. The experiments focused on identifying difficulties students face when translating culturally loaded expressions, gestures, traditions, and idiomatic language. The results demonstrate that literal translation frequently fails to convey pragmatic meaning, whereas culturally adaptive strategies produce more accurate communication. Based on the experimental findings, the article proposes several pedagogical recommendations for teaching translation of culturally sensitive material. The study contributes to translation pedagogy by emphasizing the integration of cultural competence, discourse analysis, and contextual interpretation when translating from Uzbek into English.

Keywords: *translation theory, cultural translation, Uzbek–English translation, body language, human behaviour in communication, translation pedagogy, intercultural competence.*

Introduction: Translation is not merely the substitution of words from one language into another; it is a complex communicative process involving linguistic, cultural, and pragmatic dimensions. When translators work with texts that reflect human behaviour, body language, customs, traditions, and culturally specific jargon, the task becomes particularly challenging. In such cases, translators must interpret not only lexical meaning but also the cultural context in which the expression occurs.

Uzbek and English belong to different linguistic families and cultural traditions. Uzbek culture contains many expressions that reflect social etiquette, respect hierarchies, and collective values. These expressions are often deeply embedded in daily communication and may not have direct equivalents in English. Consequently, translators must adopt theoretical frameworks and practical strategies that enable them to convey meaning accurately while maintaining cultural authenticity.

Translation theories developed by scholars such as Eugene Nida, Peter Newmark, Lawrence Venuti, and Hans Vermeer provide useful tools for addressing such challenges. These theories emphasize dynamic equivalence, communicative translation, skopos theory, and cultural translation approaches. Applying these perspectives allows translators to interpret meaning beyond the lexical level and focus on communicative function.

This article aims to analyze how translation theories can assist translators when dealing with culturally embedded elements such as body language, behavioural norms, and traditional expressions in Uzbek texts. Furthermore, it presents experimental observations based on translation exercises conducted with first- and second-year university students studying translation studies. The goal is to identify typical translation difficulties and propose effective pedagogical solutions.

Theoretical Background of Cultural Translation

Translation studies have developed multiple theoretical frameworks that help explain how meaning can be transferred between languages and cultures. One of the most influential approaches is Eugene Nida’s theory of dynamic equivalence, which suggests that the translator should aim to reproduce the same effect on the target audience that the original text had on its audience. When translating culturally embedded behaviour or gestures, dynamic equivalence allows translators to adapt expressions rather than translate them literally.

Peter Newmark also distinguishes between semantic translation and communicative translation. Semantic translation attempts to remain close to the source text, whereas communicative translation prioritizes the understanding of the target audience. In the context of Uzbek–English translation, communicative translation is often more effective when cultural expressions are involved.

Hans Vermeer’s Skopos theory further emphasizes the purpose of translation. According to this theory, the translator must determine the intended function of the translated text. If the goal is cross-cultural understanding, adaptation of cultural expressions may be necessary. For example, Uzbek forms of greeting often involve inquiries about family and health, which may appear unusual in English discourse. Translators must decide whether to preserve the literal structure or to convey the pragmatic meaning of politeness.

Another important perspective is Lawrence Venuti’s concept of domestication and foreignization. Domestication adapts cultural references to the target culture, while foreignization preserves the cultural uniqueness of the source language. In practice, translators often combine both strategies depending on context.

Cultural Elements in Uzbek Communication

Uzbek communication frequently incorporates gestures, body language, and social etiquette that carry symbolic meanings. For instance, placing the right hand over the heart while greeting someone expresses respect and sincerity. Bowing the head slightly when greeting elders demonstrates politeness and social hierarchy.

Such gestures may accompany verbal expressions and influence the interpretation of meaning. If translators ignore these non-verbal cues, the translated text may lose important pragmatic information.

Similarly, Uzbek language includes numerous culturally specific expressions such as “rahmat, katta xizmat bo‘ldi,” which literally means “thank you, it became a big service.” However, in context it conveys deep gratitude and appreciation. A literal translation would sound unnatural in English; therefore, translators may render it as “thank you very much for your help.”

Experimental Study with First and Second Year Students

In order to investigate how students approach the translation of culturally embedded expressions, we conducted a small experimental study with first- and second-year undergraduate students majoring in translation studies. The experiment consisted of three stages. First, students were given several Uzbek dialogues containing gestures, cultural references, and idiomatic expressions. They were asked to translate these texts into English without additional guidance. The results revealed that many students relied on literal translation strategies. As a result, several translations sounded unnatural or failed to convey pragmatic meaning.

During the second stage, we introduced theoretical frameworks including dynamic equivalence, communicative translation, and cultural adaptation strategies. Students analyzed examples of successful translations and discussed why certain solutions were more effective.

In the third stage, students translated the same dialogues again using the newly learned strategies. The results showed a noticeable improvement in translation quality. Students began to replace literal expressions with culturally appropriate equivalents and provided explanatory context where necessary.

Analysis of Student Difficulties

The experiment revealed several recurring challenges. First, students often struggled to interpret the pragmatic meaning of culturally specific expressions. They tended to translate words individually rather than considering the broader communicative context.

Second, body language and gestures were frequently ignored. When gestures carried symbolic meaning, the absence of explanation in translation led to loss of cultural nuance.

Third, specialized jargon and informal expressions posed difficulties because students lacked familiarity with equivalent English expressions.

Effective Translation Strategies

Based on the analysis, several strategies appear particularly useful for translating culturally embedded communication:

1. Contextual interpretation before translation.
2. Application of dynamic equivalence rather than literal translation.
3. Cultural annotation or brief explanation where necessary.
4. Comparative analysis of cultural communication patterns.
5. Development of intercultural competence among translation students.

These strategies help translators convey both linguistic meaning and cultural significance.

Recommendations for Translation Pedagogy

Based on the experimental observations, several recommendations can be proposed for improving translation training. First, translation courses should integrate cultural studies components that help students understand the social and behavioural context of communication. Second, practical translation exercises should include texts containing gestures, customs, and culturally specific expressions.

Third, instructors should encourage students to analyze translation decisions critically rather than focusing only on grammatical accuracy. Finally, collaborative workshops and role-playing activities can help students experience how cultural meaning operates in real communication contexts.

Conclusion: The translation of culturally embedded elements such as human behaviour, body language, traditions, and specific jargon requires more than linguistic competence. Translators must also possess cultural awareness and interpretive skills that enable them to mediate between different communication systems. The experimental study with first- and second-year translation students demonstrated that reliance on literal translation often leads to misunderstandings or loss of meaning. However, when students apply translation theories such as dynamic equivalence, communicative translation, and skopos theory, the quality of translation improves significantly.

Therefore, translation pedagogy should emphasize the integration of theoretical knowledge and practical cultural analysis. By combining linguistic training with intercultural competence, translators can more effectively convey meaning when translating from Uzbek into English.

References

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.

Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications. Routledge.

2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

3. Nida, E. (1964). Toward a Science of Translating. Brill.

4. Venuti, L. (1995). The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge.

5. Vermeer, H. (1989). Skopos and Commission in Translational Action. Heidelberg.

TIL O‘QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI (SUN’IY INTELLEKT, ELEKTRON TA’LIM VA ARALASH TA’LIM)

Musulmonova Muslima Erkin qizi
Alfraganus universiteti, Filalogiya va tillarni o`qitish(ingliz tili)
3-bosqich talabasi,
Musulmonovamuslima89@gmail.com

Rahimjonov Farhodjon
Ilmiy rahbar: Xorijiy tillar kafedrasi o`qituvchisi

“Texnologiya ta’limning ajralmas qismiga aylandi, chunki bilim olish endi faqat sinf bilan cheklanmaydi.”
(George Siemens)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimidagi texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (AI), elektron ta’lim (e-learning) va aralash ta’lim (blended learning)ning nazariy va amaliy jihatlari ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu texnologiyalarning ta’lim jarayonida tutgan o‘rnini bevosita o‘rganish va an’anaviy ta’lim tizimi bilan o‘zaro munosabatini yoritib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt o‘quvchilarning ta’lim jarayonida mustaqil bilim olishlari va onlayn resurslardan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi. E-learning orqali esa masofaviy o‘qitishda o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Blended learning esa ushbu ikki usuldan oqilona foydalangan holda ularni birlashtiradi va ta’lim tizimi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, bunday texnologiyalardan samarali foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va kommunikativ kompetensiya kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar tillarni o‘qitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi va ta’lim sifatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Kalit sozlar: o‘zbek tili, AKT, pedagogik texnologiya, raqamli ta’lim, kompetensiya, samaradorlik, innovatsiya, interfaol metod, zamonaviy texnologiyalar.

ABSTRACT: This article examines the theoretical and practical aspects of modern technologies in the education system, particularly artificial intelligence (AI), e-learning, and blended learning, from a scientific perspective. The main aim of this study is to understand how these technologies are used in education and how they are connected with traditional teaching methods. The results of the study show that artificial intelligence enables students to learn independently and make wide use of online resources in the learning process. Through e-learning, effective interaction between teachers and students is established in distance education.Blended learning combines these two methods and helps make the learning process more effective.

Also, using these technologies can help students develop important skills, such as independent thinking, the ability to use digital technologies, and communicative competence. In conclusion, modern technologies play a significant role in language teaching today and contribute greatly to improving the quality of education.

Key words: Uzbek language, ICT (Information and Communication Technologies), pedagogical technology, digital education, competence, effectiveness, innovation, interactive method, modern technologies.

Аннотация: Данная статья рассматривает теоретические и практические аспекты современных технологий в системе образования, в частности искусственного интеллекта (AI), электронного обучения (e-learning) и смешанного обучения (blended learning), с научной точки зрения. Основной целью исследования является понимание того, как эти технологии используются в образовании и как они связаны с традиционными методами обучения. Результаты исследования показывают, что искусственный интеллект позволяет учащимся обучаться самостоятельно и широко использовать онлайн-ресурсы в процессе обучения. Благодаря электронному обучению устанавливается эффективное взаимодействие между преподавателями и учащимися в условиях дистанционного образования. Смешанное обучение объединяет эти два метода и способствует повышению эффективности учебного процесса. Кроме того, использование данных технологий помогает учащимся развивать важные навыки, такие как самостоятельное мышление, умение пользоваться цифровыми технологиями и коммуникативная компетенция. В заключение можно отметить, что современные технологии играют значительную роль в обучении языкам и вносят большой вклад в повышение качества образования.

Ключевые слова: узбекский язык, ИКТ (информационно-коммуникационные технологии), педагогическая технология, цифровое образование, компетенция, эффективность, инновация, интерактивный метод, современные технологии.

Kirish. XXI asrga kelib ta’lim tizimi keng ko‘lamli modernizatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Har qanday soha nuqtai nazaridan qaralganda bu vositalar hayotimizga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz bunday islohotlar orqali ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirib, ta’lim tizimini takomillashtirish va o‘qituvchilarning malaka va salohiyatini hozirgi davr talablari darajasiga ko‘tarishni maqsad qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aynan shu kabi masalalar uchun quyidagi gaplarni o‘z nutqlarida aytib o‘tganlar [1] “Mamlakatimiz rivojlanmaydi, agar har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo‘lmasa.” Bundan kelib chiqadiki, raqamli texnologiyalar uchun, mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda, [2] Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT

kompaniyalar soni 147 ta bo'lgan bo'lsa, hozirda 1 ming 600 taga yetgan. Ish o'rinlari ham qisqa vaqtda 10 baravar ko'payib, 24 mingtadan oshgan.



Neft va gaz terminologiyasining diskursiv xususiyatlari iqtisodiy diskursda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy diskursda terminlar bozor munosabatlari, investitsiya strategiyalari va ishlab chiqarish samaradorligini ifodalash uchun ishlatiladi. “Upstream”, “midstream” va “downstream” terminlari dastlab texnologik jarayon bosqichlarini bildirgan bo‘lsa, iqtisodiy diskursda ular moliyaviy risk, kapital oqimi va bozor qiymatini anglatadigan tushunchalarga aylangan (Cabré, 1999). Bu jarayon terminlarning diskursiv kengayishini ko‘rsatadi, ya’ni termin bir diskursdan ikkinchisiga o‘tganda qo‘shimcha semantik va funksional yuklama kasb etadi.

Siyosiy diskursda esa neft va gaz terminologiyasi strategik va ideologik mazmun bilan boyitiladi. “Energy security”, “strategic reserves” va “energy independence” kabi terminlar siyosiy nutqlarda milliy manfaatlar va geopolitik strategiyalar bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi. Ushbu diskursda terminlar nafaqat axborot berish, balki auditoriyani ishontirish va muayyan siyosiy qarashni shakllantirish vazifasini ham bajaradi (Fairclough, 1995). Natijada terminologiya ideologik diskursning faol vositasiga aylanadi. Diskursiv kontekst terminlarning semantik tuzilishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Neft va gaz terminologiyasida ko‘plab terminlar umumtil birliklaridan terminlashuv jarayoni orqali shakllangan. Masalan, “field”, “pool” va “play” so‘zlari umumiy til tizimida boshqa ma’nolarga ega bo‘lsa-da, professional diskursda maxsus tushunchalarni ifodalaydi. Diskurs ushbu terminlarning umumtil ma’nosidan ajralib chiqishini va terminologik tizimda mustahkamlanishini ta’minlaydi (Sager, 1990).

Ko‘p tilli diskurs neft va gaz terminologiyasining yana bir muhim diskursiv xususiyatini tashkil etadi. Ushbu soha global xarakterga ega bo‘lgani sababli, terminlar ingliz, rus, o‘zbek va boshqa tillarda parallel ravishda qo‘llaniladi. Ingliz tili asosiy terminologik manba bo‘lsa-da, milliy diskurslar doirasida terminlar ma’lum darajada moslashtiriladi. Tarjima jarayonida terminlarning nafaqat lingvistik, balki diskursiv mosligi ham ta’minlanishi zarur. Aks holda termin o‘zining funksional ahamiyatini yo‘qotishi mumkin (Newmark, 1988).

Diskursiv yondashuv terminologiyaning tarixiy rivojlanishini ham tushuntirib beradi. Neft va gaz sohasida texnologik yangiliklar, ekologik talablar va siyosiy omillar ta’sirida yangi terminlar paydo bo‘ladi yoki mavjud terminlarning ma’nosi kengayadi. Masalan, “carbon footprint” va “energy transition” kabi terminlar so‘nggi yillarda ekologik diskurs ta’sirida neft va gaz terminologiyasiga faol kirib kelmoqda. Bu holat terminologiyaning diskursga bog‘liq dinamik tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi (Fairclough, 1995).Shuningdek, diskurs terminlarning funksional ierarxiyasini belgilaydi. Ba’zi terminlar markaziy tushunchalar sifatida barcha diskurslarda qo‘llanilsa, boshqalari faqat ma’lum subdiskurs doirasida ishlatiladi. Masalan, “hydraulic fracturing” termini texnik diskursda jarayonni ifodalasa, ommaviy va siyosiy diskursda u ekologik xavf bilan bog‘liq tushunchaga aylanadi. Bu jarayon terminlarning diskursiv talqinida bahsli ma’nolarning yuzaga kelishiga olib keladi (van Dijk, 1998).

Xulosa qilib aytganda, neft va gaz terminologiyasining diskursiv xususiyatlari uning ko‘p qatlamli va kontekstga bog‘liq tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ilmiy-texnik,

institutsional, professional, iqtisodiy va siyosiy diskurslar terminlarning shakli, ma’nosi va funksiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli neft va gaz terminologiyasini diskursiv yondashuv asosida tahlil qilish zamonaviy terminologiya va kasbiy kommunikatsiya tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday, M. A. K. (1978). Language as Social Semiotic. London: Edward Arnold.
2. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.
3. van Dijk, T. A. (2008). Discourse and Context. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins.
5. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins.
6. Temmerman, R. (2000). Towards New Ways of Terminology Description. Amsterdam: John Benjamins.
7. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell.
8. ISO 704:2009. Terminology work — Principles and methods. Geneva: ISO.
9. Foucault, M. (1972). The Archaeology of Knowledge. London: Tavistock.
10. van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. London: Sage.
11. Swales, J. (1990). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis. London: Longman.
13. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: CUP.
14. Wüster, E. (1979). Einführung in die allgemeine Terminologielehre. Wien: Springer.

XITOY TILI TA’LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUN’IY INTELLEKT VA ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI (TIZIMLI TAHLIL)

Raxmatullayeva Dilshada
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
xitoyshunoslik oliy maktabi doktoranti

Abstract: This article provides a systematic analysis of the integration of Artificial Intelligence (AI), E-learning, and blended learning technologies within the framework of Chinese language instruction. Drawing on contemporary scholarly literature and technological trends (2023–2026), the study explores the role of AI

tools in enhancing phonetic and oral competencies among learners. The research evaluates the effectiveness of chatbots, speech recognition systems, and generative AI platforms in mastering Chinese characters and tones. Furthermore, it discusses the shift in the educator's role from a traditional knowledge provider to a pedagogical facilitator amidst digital transformation, while addressing critical ethical concerns such as data privacy and algorithmic bias. The paper concludes with practical recommendations for integrating AI resources into Chinese language curricula and enhancing the digital literacy of educators to ensure sustainable language acquisition in the digital age.

Keywords: Chinese language teaching (CFL), Artificial Intelligence (AI), blended learning, digital pedagogy, phonetic competence, chatbots, E-learning

Annotatsiya: Ushbu maqolada xitoy tili o‘qitish tizimida sun’iy intellekt (AI), elektron ta’lim (E-learning) va aralash ta’lim (blended learning) texnologiyalarining integratsiyalashuvi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida so‘nggi yillardagi (2023–2026) ilmiy adabiyotlar va texnologik trendlar o‘rganilib, AI vositalarining talabalardagi fonetik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Maqolada chatbotlar, nutqni aniqlash tizimlari va generativ AI platformalarining xitoy tili iyerogliflari hamda tonlarini o‘zlashtirishdagi samaradorligi qiyosiy baholanadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida o‘qituvchi rolini an’anaviy bilim manbaidan pedagogik fasilitatorga aylanishi va bu jarayondagi axloqiy muammolar (ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik) muhokama qilinadi. Xulosa qismida xitoy tili darsliklarini AI resurslari bilan boyitish va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xitoy tili o‘qitish, sun’iy intellekt (AI), aralash ta’lim, raqamli pedagogika, fonetik kompetensiya, chatbotlar, E-learning

Raqamli transformatsiya sharoitida xitoy tilini o‘zlashtirish jarayoni an’anaviy metodikalardan texnologik modernizatsiya bosqichiga o‘tmoqda. Biroq, xitoy tili o‘qitishning o‘ziga xos murakkabliklari - iyerogliflar tizimi, tonlar farqlanishi va leksik kognitiv yuklamaning yuqoriligi - an’anaviy sinf-dars tizimida bir qator cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarga yechim sifatida sun’iy intellekt (AI) va elektron ta’lim (E-learning) platformalari ta’lim samaradorligini oshirishning yangi istiqbollarini ochmoqda [10]. Masalan, chatbotlar va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vositalari talabalarga iyerogliflarni eslab qolish, fonetik xatolarni minimallashtirish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda shaxsiylashtirilgan interfaol yordam ko‘rsatadi [4]. Aralash ta’lim (blended learning) modellari esa raqamli texnologiyalar bilan an’anaviy metodlarni uyg‘unlashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish imkonini beradi [18, 26].

Intellektual o‘quv tizimlari talabalarning xato va kamchiliklarini real vaqt rejimida tahlil qilib, konstruktiv fikr-mulohazalar bildirish orqali til o‘zlashtirishni jadallashtiradi. Mashinaviy o‘rganish va katta ma’lumotlar tahlili (big data) orqali shakllantiriladigan algoritmlar talabalarning progressini monitoring qilib, ularning darajasiga mos kontentni avtomatik taklif etadi [7, 23]. Bu esa kognitiv yuklamani

optimallashtirish va resurslarni ratsional boshqarishga xizmat qiladi [24]. Shuningdek, AI texnologiyalarining integratsiyasi HSK xalqaro imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish tizimini tubdan takomillashtirishga zamin yaratadi [22].

Ushbu tahliliy maqolaning maqsadi - so‘nggi yillardagi ilmiy adabiyotlar asosida sun’iy intellekt, elektron ta’lim va aralash ta’lim texnologiyalarining xitoy tilini o‘qitishdagi integratsiyasini tizimli tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashdan iborat. Maqola tuzilishi jihatidan avvalo sohadagi nazariy yondashuvlar tahlili bilan boshlanadi, so‘ngra texnologik yechimlarning amaliy samaradorligi va yuzaga kelayotgan metodologik muammolar muhokama qilinadi, yakunda esa o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar beriladi. So‘nggi besh yil ichida chop etilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida sun’iy intellekt vositalarining xitoy tilini o‘qitishdagi integratsiyasi to‘rt asosiy yo‘nalishda tizimlashtirildi: (1) intellektual o‘quv tizimlari va nutqiy kompetensiya, (2) aralash ta’lim modellari va adaptiv platformalar, (3) generativ AI va oliy darajadagi kognitiv ko‘nikmalar hamda (4) pedagogik rollar transformatsiyasi va axloqiy masalalar. Ushbu tasnif muammoni kompleks o‘rganish va mavjud tadqiqotlardagi ilmiy bo‘shliqlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘qitish vositalarining avtomatlashuvi o‘quvchilarning “affektiv filtra”ni (psixologik to‘siqlarini) pasaytirib, muloqotga kirishish ishonchini mustahkamlaydi [15, 19]. “Katta ma’lumotlar” (Big Data) tahlili o‘qituvchilarga har bir talabaning o‘zlashtirish dinamikasini monitoring qilish imkonini beradi [1]. Pedagog endi bilimning yagona manbai emas, balki raqamli resurslar va talaba o‘rtasidagi “katalizator” sifatida namoyon bo‘lmoqda [14]. Ba’zi tadqiqotchilar AI o‘qituvchining obro‘sini susaytirishi mumkinligidan xavotir bildirsa [24], aksariyat mualliflar buni yangi bosqich deb baholaydi [21, 25]. Korkut [13] ta’kidlaganidek, AI samaradorligi uning yoshga va darajaga mos metodikaga qanchalik integratsiya qilinganiga bog‘liq. O‘qituvchilarning “AI savodxonligi”ni oshirish bo‘yicha kasbiy rivojlanish dasturlarini [8, 16] yo‘lga qo‘yish lozim. Fonetik bilimlarni diagnostika qilish va qayta aloqa o'rnatishda AI asistentlarining roli beqiyosdir [27].

1. Zamonaviy tadqiqotlar sun’iy intellektning (AI) ta’lim tizimiga integratsiyasi talabalarning mustaqil ta’lim olish paradigmasini ham tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatmoqda [20]. AI chatbotlari talabalarga “o‘quvchi markazlashgan” muhitni yaratib, fonetik kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [6, 11].

2. Xalqaro xitoy tili ta’limida onlayn va oflayn usullarni uyg‘unlashtiruvchi aralash ta’lim (blended learning) eng samarali model sifatida baholanmoqda [17]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar va Web 2.0 texnologiyalari talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi [9]. Moslashuvchan platformalar esa o‘quv jarayonini dinamik optimallashtiradi [3]. Xulosa qilib aytganda, ushbu modellar talabalar mustaqilligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, biroq ularning samaradorligi bevosita o‘qituvchining texnologik va metodik kompetensiyasiga bog‘liqdir.

3. Generativ AI vositalari (masalan, ChatGPT) xitoy tili darslarida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda [12]. Biroq, iqtibos qilingan tahlillarda chatbotlar samaradorligi vazifa turi va talabaning til darajasiga bog‘liq ekanligi isbotlangan [18, 19]. Xususan, boshlang‘ich darajadagi talabalar uchun generativ AI haddan tashqari murakkab javoblar berishi yoki ularni noto‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin. Shuningdek, ushbu vositalarning xitoy tilidagi madaniy va kontekstual nozikliklarni (masalan, chengyu va pragmatik ma’nolarni) to‘liq anglay olmasligi hali ham tizimli muammo bo‘lib qolmoqda.

4. Raqamli transformatsiya o‘qituvchining rolini bilim manbaidan moderatorlikka aylantirmoqda [25]. Tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, AI tizimlarining xolisligi va aniqligi asosiy muammolardan biridir[5]. Agar ASR tizimi faqat standart talaffuz (Putonghua) ma’lumotlari bilan o‘qitilgan bo‘lsa, u mahalliy urg‘u bilan so‘zlashuvchi talabalarni noto‘g‘ri baholashi mumkin. Shu bilan birga, talabalarning nutq ma’lumotlarini uchinchi tomon serverlarida saqlash maxfiylik siyosati va raqamli axloq me’yorlari nuqtai nazaridan jiddiy savollar tug‘diradi. Akademik halollikni ta'minlash va AI tomonidan yaratilgan kontentni baholash mezonlarini ishlab chiqish ushbu transformatsiya jarayonidagi eng dolzarb vazifalardir.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI xitoy tilini o‘qitishda ulkan pedagogik salohiyatga ega. Biroq, uchta asosiy muammo haligacha ochiq qolmoqda: (1) ushbu texnologiyalarning O‘zbekiston ta’lim kontekstidagi samaradorligi yetarlicha o‘rganilmagan; (2) o‘qituvchilarning AI vositalaridan foydalanishdagi metodik tayyorgarligi ikkinchi planda qolmoqda; (3) ma’lumotlar maxfiyligi bo‘yicha aniq siyosat ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan metodologik asoslarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Ushbu maqola tizimli adabiyot sharhi usulida amalga oshirildi. Tadqiqot manbalari sifatida Scopus, Web of Science, ERIC, Google Scholar xalqaro ma’lumotlar bazalari hamda O‘zbekiston OAK ro‘yxatidagi milliy jurnallar tanlab olindi. Ma’lumotlarni qidirishda “xitoy tili o‘qitish”, “sun’iy intellekt”, “aralash ta’lim”, “chatbot”, “generativ AI” kabi kalit so‘zlar va ularning ingliz, rus, xitoy tillaridagi ekvivalentlaridan foydalanildi. Nashrlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: (1) nashr yili 2020–2026; (2) maqola, konferensiya materiali yoki monografiya; (3) mavzuning xitoy tilini o‘qitishga daxldorligi; (4) to‘liq matnning mavjudligi. Dastlabki qidiruvda aniqlangan 347 ta nashrdan inklyuziya va eksklyuziya mezonlari asosida saralashdan so‘ng 62 ta nashr ko’rib chiqildi. Shulardan 27 tasiga yakuniy tahlilga kiritildi va maqolada iqtiboslar berildi.

Tanlab olingan nashrlarni tahlil qilishda tematik tahlil usuli qo‘llanilgan va asosida to‘rtta asosiy mavzu shakllantirildi: (1) intellektual o‘quv tizimlari; (2) aralash ta’lim modellari; (3) generativ AI; (4) pedagogik transformatsiya va axloqiy masalalar. Har bir mavzu doirasidagi tadqiqotlar o‘zaro solishtirilib, asosiy tendensiyalar va ilmiy bo‘shliqlar aniqlandi.

O‘tkazilgan sistemali tahlil xitoy tili xalqaro ta’limida sun’iy intellekt integratsiyasi shunchaki texnik yordamchi vosita bo‘lib qolmay, balki ta’lim

paradigmasini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijasida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha xulosalar shakllantirildi. Tahlillar xitoy tili o‘qitishda uchta asosiy tendensiyani namoyon etdi: (1) O‘qitish vositalarining avtomatlashuvi: ASR va NLP texnologiyalari iyerogliflar talaffuzi va yozilishini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini bermoqda [19]. Bu o‘quvchilarning “affektiv filtri”ni (psixologik to‘siqlarini) pasaytirib, xatolardan qo‘rqmasdan muloqotga kirishish ishonchini mustahkamlaydi [15] (2) Ta’lim mazmunining shaxsiylashuvi: “Katta ma’lumotlar” (Big Data) tahlili o‘qituvchilarga har bir talabaning o‘zlashtirish dinamikasini monitoring qilish va o‘quv dasturiga tezkor tuzatishlar kiritish imkonini beradi [1]. (3) O‘qituvchi rolining transformatsiyasi: Pedagog endi bilimning yagona manbai emas, balki raqamli resurslar va talaba o‘rtasidagi "katalizator" va moderator sifatida namoyon bo‘lmoqda [14]. (4) Adabiyotlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatli qarashlar Tadqiqotlar tahlili jarayonida AI o‘rni bo‘yicha ikki qarama-qarshi qutb aniqlandi. Ba’zi tadqiqotchilar [24] AI o‘qituvchining an’anaviy obro‘sini susaytirishi va talabalarni texnologiyaga haddan tashqari qaram qilib qo‘yishidan xavotir bildirsa, aksariyat mualliflar [21,25] buni inson va kompyuter tandemining (kengaytirilgan intellekt) yangi bosqichi deb baholaydi. Mening fikrimcha, bu qarama-qarshilikka sabab - texnologiyaning metodik bazasiz qo‘llanilishidir. AI samaradorligi uning yoshga va darajaga mos metodikaga qanchalik integratsiya qilinganiga bog‘liq. O‘qituvchining motivatsion qo‘llab-quvvatlashi bo‘lmagan joyda, eng zamonaviy AI ham quruq texnik vosita bo‘lib qolaveradi.

Amaliyot uchun tavsiyalar. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. AI vositalarini darsga kiritishda faqat texnik imkoniyatga emas, balki o‘quvchining kognitiv darajasiga (metodik moslashuvchanlikka) e’tibor qaratish. Xitoy tili darsliklariga AI chatbotlari bilan ishlash bo‘yicha maxsus mustaqil ish topshiriqlarini integratsiya qilish va “raqamli axloq” qoidalarini o‘quv rejasiga kiritish. Shuningdek, o‘qituvchilarning “AI savodxonligi”ni oshirish bo‘yicha kasbiy rivojlanish dasturlarini [8, 16] yo‘lga qo‘yish.

Olib borilgan tizimli adabiyot tahlili asosida sun’iy intellekt (AI), elektron ta’lim va aralash ta’lim texnologiyalarining xitoy tilini o‘qitishdagi integratsiyasi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. ASR (avtomatik nutqni aniqlash) va NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) texnologiyalari xitoy tili iyerogliflari va tonlarini o‘zlashtirishda real vaqt rejimida tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu vositalar talabalarning “affektiv filtr”ini (psixologik to‘siqlarini) pasaytirib, xatolardan qo‘rqmasdan muloqotga kirishishiga zamin yaratadi.

2. Onlayn va oflayn usullarni uyg‘unlashtiruvchi aralash ta’lim (blended learning) xitoy tili ta’limida eng samarali modellardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Moslashuvchan platformalar talabalarning individual o‘zlashtirish sur’atiga moslasha oladi va baholashdagi subyektivlikni kamaytiradi.

3. ChatGPT kabi generativ AI vositalari talabalarning tanqidiy fikrlash va ijodiy lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratsa-da, ularning madaniy kontekst (chengyu, pragmatik ma’nolar) va iyeroglif semantikasini to‘liq anglay olmasligi hali ham tizimli muammo bo‘lib qolmoqda.

4. Raqamli transformatsiya o‘qituvchining rolini an’anaviy “bilim manbai”dan ta’lim jarayonini boshqaruvchi “fasilitator” va “katalizator”ga aylantirmoqda. Bu jarayonda algoritmlar aniqligi, akademik halollikni ta’minlash kabi axloqiy masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tahliliy sharh quyidagi yo‘nalishlarda yangi tadqiqotlarni talab etishini ko‘rsatdi: (a) AI vositalarining O‘zbekiston ta’lim kontekstidagi samaradorligini empirik jihatdan o‘rganish; (b) generativ AI vositalarining iyeroglif semantikasi va madaniy kontekstni tushuntirishdagi imkoniyat va cheklovlarini chuqurroq tahlil qilish; (c) o‘qituvchilarning AI vositalaridan foydalanishdagi metodik kompetensiyasini rivojlantiruvchi modellarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Acuña, B. P., & Durão, R. C. F. (2024). Learning English as a second language with artificial intelligence for prospective teachers: a systematic review. Frontiers in Education, 9. https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1490067

2. Akgür, T. (2025). DIFFERENT APPROACHES AND METHODS IN TEACHING CHINESE CHARACTERS. DergiPark (Istanbul University). https://dergipark.org.tr/en/pub/udekad/issue/94861/1697314

3. Alcívar, D. K. L., Macías, M., & Vera, A. (2024). Integration of Artificial Intelligence in English Teaching. CID - Centro de Investigación y Desarrollo eBooks. https://doi.org/10.37811/cli_w1046

4. Alqahtani, T., et al. (2023). The emergent role of artificial intelligence, natural learning processing, and large language models in higher education and research. Research in Social and Administrative Pharmacy, 19(8), 1236. https://doi.org/10.1016/j.sapharm.2023.05.016

5. Anh, V. T. K. (2025). Transforming Language Learning with AI: Adaptive Systems, Engagement, and Global Impact. https://doi.org/10.3390/engproc2025107007

6. Arif, M. S., et al. (2025). The Impact of AI-Driven Tools on Foreign Students’ Chinese Language Acquisition: A Case Study at Southwest University. Language, Technology, and Social Media, 3(1), 150. https://doi.org/10.70211/ltsm.v3i1.165

7. Babaniyazova, N. (2024). Integration of traditional and digital educational technologies: points of contact and differences in teaching a foreign language. Scientific Herald of Uzhhorod University Series Physics, 2024(55), 2161. https://doi.org/10.54919/physics/55.2024.216kb1

8. Bermúdez, H. D. R., et al. (2025). Integración de la inteligencia artificial en la enseñanza del inglés como lengua extranjera. Código Científico Revista de Investigación, 6, 2477. https://doi.org/10.55813/gaea/ccri/v6/ne1/828

9. Gong, Y., et al. (2020). Blended learning in Chinese as a foreign language: A systematic review. Journal of Computer Assisted Learning, 36(6), 834-847. (Yangi qo'shildi)

10. Gulyamova, G., & Rasulmuhamedova, D. (2025). INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO EDUCATIONAL PLATFORMS FOR

EFFECTIVE LANGUAGE LEARNING. Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi, 9(3), 1009. https://doi.org/10.22437/jiituj.v9i3.42134

11. Ismoilovna, A. D. (2025). Harnessing ai tools to enhance foreign language acquisition: innovations and impacts. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(1), 22. https://doi.org/10.37547/ajsshr/volume05issue01-07

12. Jiang, Y., et al. (2024). Generative AI in language education: Exploring the potential of ChatGPT for Chinese learners. Educational Technology Research and Development.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA YANGI TENDENSIYALAR: INKLYUZIV TA’LIM VA EFL/ESP YO‘NALISHLARIDA INNOVATSIYALAR

Roziqova Nigora
"Xorijiy til va adabiyoti" -yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘qitishda yangi tendensiyalarni chuqur tahlil qiladi, xususan, inklyuziv ta’lim va EFL (Ingliz tili xorijiy til sifatida) hamda ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) yo‘nalishlaridagi innovatsiyalarni o‘rganadi. Inklyuziv ta’lim tamoyillari har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, ta’lim jarayonini moslashtirishga yordam beradi, shu bilan birga til o‘qitish samaradorligini oshiradi (Ainscow, Booth, & Dyson, 2006). EFL va ESP yo‘nalishlarida zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va adaptiv o‘quv platformalari til ko‘nikmalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi (Richards & Rodgers, 2014; Hutchinson & Waters, 1987).Global ta’lim tizimida ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida teng imkoniyatlarni ta’minlash va shaxsiylashtirilgan ta’limni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi har bir o‘quvchi, shu jumladan turli imkoniyatlar va madaniy fonlarga ega shaxslar uchun moslashtirilgan o‘quv jarayonini yaratishga qaratilgan (UNESCO, 2020). Shu bilan birga, EFL va ESP yo‘nalishlarida dars metodikasi talabalarning individual ehtiyojlari va kasbiy maqsadlariga mos kelishi lozim (Jordan, 1997; Hutchinson & Waters, 1987).

Maqola zamonaviy ta’lim jarayonlarida til o‘rgatish metodlarining rivojlanishi, inklyuziv ta’limning ahamiyati, EFL va ESP yo‘nalishlarida innovatsion yondashuvlar, texnologik integratsiya va pedagogik strategiyalarni o‘rganishga qaratilgan. Shu bilan birga, maqola O‘zbekiston kontekstidagi tajribalarni ham o‘z ichiga oladi, bu esa milliy ta’lim tizimi va global tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning til bilimi, kommunikativ qobiliyatlari, motivatsiyasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, EFL, ESP, innovatsiyalar, xorijiy til o‘qitish, texnologik yondashuvlar, individuallashtirilgan ta’lim, O‘zbekiston, pedagogik strategiyalar.*

Kirish: Xorijiy tillarni o‘qitish sohasida oxirgi yillarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar prinsiplariga asoslangan ta’lim siyosati ta’lim jarayonining yangi yo‘nalishlarini shakllantirmoqda (Brown, 2020; Richards & Rodgers, 2014). An’anaviy til o‘qitish metodikalari ko‘pincha sinf sharoitida bir xil dars metodlariga asoslangan bo‘lib, talabalarning individual ehtiyojlarini yetarlicha qamrab olmaydi. Shu sababli inklyuziv ta’lim**,** EFL va ESP yo‘nalishlaridagi innovatsion metodlar hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim kontseptsiyasi har bir o‘quvchining, shu jumladan nogironligi bo‘lgan va turli madaniy-fonlarga ega talabalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir (Ainscow et al., 2006). Bu yondashuv talabaning individual qobiliyatlari, o‘quv motivatsiyasi, psixologik holati va ijtimoiy sharoitlarini hisobga oladi. Inklyuziv ta’lim tizimi pedagoglarga talabalarning farqliliklarini qabul qilish, dars rejalarini moslashtirish va individual resurslarni samarali ishlatish imkoniyatini beradi.

EFL (English as a Foreign Language) va ESP (English for Specific Purposes) ta’lim yo‘nalishlari xorijiy tillarni o‘rgatishda ikki asosiy strategik yo‘nalish hisoblanadi. EFL umumiy til kompetensiyalarini rivojlantirishga, tilning to‘rt asosiy komponentini — tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (Richards & Rodgers, 2014). ESP esa tilni talabalarning kasbiy yoki akademik ehtiyojlariga moslashtiradi, bunda lug‘at boyligi, kommunikativ vazifalar va maxsus fanlar bilan bog‘liq til kompetensiyalari rivojlantiriladi (Hutchinson & Waters, 1987; Jordan, 1997). Shu bilan birga, ESP yo‘nalishida talabalarning kasbiy faoliyatdagi vazifalari va real ish sharoitlariga mos mashqlar qo‘llaniladi, bu esa til o‘rganishni yanada maqsadli qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida **texnologik integratsiya**ning o‘rni katta ahamiyatga ega. Onlayn o‘quv platformalari, interaktiv darslar, multimediya materiallari va adaptiv o‘quv dasturlari talabalarning individual ehtiyojlariga moslashgan o‘quv jarayonini yaratadi (Richards, 2015; Jones, 2018). Shu orqali o‘quv jarayoni shaxsiylashtiriladi, motivatsiya oshadi va til ko‘nikmalari yanada samarali shakllanadi. Masalan, adaptiv dasturlar har bir o‘quvchining bilim darajasiga qarab mashqlarni avtomatik tanlaydi, bu esa dars samaradorligini oshiradi va vaqtni tejashga yordam beradi.O‘zbekiston ta’lim tizimida ham xorijiy tillarni o‘qitishda inklyuziv yondashuvlar va EFL/ESP metodologiyalarining integratsiyasi keng tatbiq etilmoqda. Milliy darajada ishlab chiqilgan **“Oliy va o‘rta maxsus ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish konsepsiyasi”** (Ergasheva, 2019) talabalarni til ko‘nikmalarini amaliyotga mos shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, milliy va xalqaro tajriba solishtirilganda, O‘zbekiston tajribasida inklyuziv metodlarni yanada kengroq tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligi ko‘rinadi.

Maqolaning maqsadi **— xorijiy tillarni o‘qitishda inklyuziv ta’lim tamoyillarini EFL va ESP yo‘nalishlarida qo‘llash,** zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish va innovatsion metodlarni tatbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot shuningdek pedagoglar va ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun foydali bo‘lib,

o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali til o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim va EFL/ESP yo‘nalishlaridagi innovatsiyalarni joriy etishning ilmiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni o‘zlashtirish va motivatsiyasini oshirish.
2. Til ko‘nikmalarining chuqurligini va amaliy moslashuvchan - ligini ta’minlash.
3. Texnologik resurslar yordamida darslarni interaktiv va samarali qilish.
4. Talabalarni kasbiy va akademik ehtiyojlariga moslashtirilgan til kompetensiyalari bilan ta’minlash.
5. Milliy ta’lim **tizimi** va xalqaro tajriba o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish.

Shuningdek, tadqiqotda mavjud adabiyotlar sharhi, metodologik yondashuvlar, natijalar va muhokama keltiriladi, bu esa ilmiy izchillik va aniq tavsiyalarni ta’minlaydi. Natijalar o‘quvchilarning til bilimi, kommunikativ qobiliyatlari, motivatsiyasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha samarali strategiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi va empirik Tajribalar

Zamonaviy ta’lim adabiyotlariga ko‘ra, **inklyuziv ta’lim va EFL/ESP yo‘nalishlarida** nogironligi bor o‘quvchilar uchun alohida yondashuv talab qilinadi (Ainscow et al., 2006; Tomlinson, 2017). O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, darslarni differensial metodlar, texnologik vositalar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘tkazish samarali bo‘ladi (Richards & Rodgers, 2014).

Tajriba va so‘rovnoma natijalari: 2023–2025 yillarda O‘zbekistonning bir necha maktab va oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv EFL/ESP darslari bo‘yicha empirik tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotga jami 120 o‘quvchi jalb qilindi, ulardan:

O‘quvchi – nogironligi bo‘lgan (ko‘rish nuqsoni bilan 15, eshitish nuqsoni bilan 10, jismoniy cheklovlar bilan 15) 80 o‘quvchi – sog‘lom o‘quvchilar

Tajriba uch guruhda olib borildi:

1. Guruh A – inklyuziv metod va interaktiv texnologiyalar bilan EFL/ESP darsi (nogiron va sog‘lom aralash)
2. Guruh B – an’anaviy metod bilan EFL/ESP darsi (nogiron va sog‘lom aralash)
3. Guruh C – faqat sog‘lom o‘quvchilar bilan interaktiv EFL/ESP darsi

So‘rovnomalar va kuzatuvlar natijalariga ko‘ra:

Ko‘rsatkich	**Guruh A (nogiron+ sog‘lom)**	**Guruh B (nogiron+ sog‘lom)**	**Guruh C (sog‘lom)**
O‘quv motivatsiyasi (foiz)	88%	65%	92%
Til ko‘nikmalarini oshirish (foiz)	85%	60%	90%

Mashg‘ulotlarni tushunish (foiz)	90%	63%	93%
Dars jarayonida qatnashish (foiz)	87%	58%	91%
O‘zini erkin ifoda etish (foiz)	83%	55%	89%

Tahlil shuni ko‘rsatdiki:

Guruh A (nogiron va sog‘lom aralash, inklyuziv metod) barcha ko‘rsatkichlarda an’anaviy metoddan 20–30 foiz yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar (Guruh A) dars jarayonida texnologik va interaktiv metodlar orqali osonroq tushunish va faol qatnashish imkoniga ega bo‘lishgan.

Masalan, ko‘rish nogironligi bo‘lgan o‘quvchi**lar** uchun multimedia (audio kitoblar, interaktiv ilovalar) yordamida so‘z boyligini oshirish 90% samaradorlik bilan amalga oshdi.

Eshitish cheklovi bo‘lganlar uchun video subtitrlar va vizual materiallar yordamida tushunish 87% ni tashkil qildi.

Guruh B (an’anaviy metod) ko‘rsatkichlari pastroq bo‘lib, ayniqsa nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar motivatsiyasi va darsga faollik jihatdan 50–60% atrofida qolgan.

Guruh C (sog‘lom o‘quvchilar) yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da, inklyuziv metodlarni tatbiq etish bilan farq deyarli yo‘q (faqat 2–3 foiz farq), bu esa sog‘lom o‘quvchilar uchun innovatsion metodlarning qo‘shimcha foydasi biroz past ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuningdek, darslarni qanday yo‘nalishda olib borish samarali ekanligini aniqladi:

1. Individual moslashtirilgan vazifalar – nogiron o‘quvchilar uchun vazifalarni daraja va qobiliyatga moslashtirish.
2. Multimedia va texnologik integratsiya – audio, video, adaptiv ilovalar.
3. Guruhlash va hamkorlik – nogiron va sog‘lom o‘quvchilarni aralash guruhlarda ishlash motivatsiyasini oshiradi.
4. Vizual va kinestetik mashg‘ulotlar – ko‘rish va jismoniy cheklovlari bo‘lganlar uchun qulay.
5. Qisqa modul va interaktiv mashqlar – o‘quvchilarning diqqatini saqlash va mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shu natijalardan kelib chiqqan holda, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan darslarni interaktiv, multimediya va inklyuziv metodlar orqali olib borish tavsiya etiladi. Bu dars jarayonini osonroq va samaraliroq qiladi, motivatsiyani oshiradi hamda til kompetensiyalarini tez rivojlantirishga yordam beradi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi nogironligi bo‘lgan va sog‘lom o‘quvchilar o‘rtasida EFL (English as a Foreign Language) va ESP (English for Specific Purposes) yo‘nalishlarida dars jarayonlarini inklyuziv, adaptiv va innovatsion metodlar orqali tashkil etish samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot O‘zbekistonning bir nechta oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida

2024–2025 yillarda o‘tkazildi va unda empirizm va eksperiment kombinatsiyasi asosida yangi pedagogik yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqotning ilmiy asosli vazifalari qatoriga talabalar motivatsiyasini va til ko‘nikmalarini baholash, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun adaptiv va interaktiv metodlarni qo‘llash, guruhlar o‘rtasida samaradorlikni foizlarda aniqlash, shuningdek dars jarayonlarining samaradorligini oshiruvchi tavsiyalar ishlab chiqish kiritildi. Tadqiqot dizayni eksperimental va nazorat guruhlarining kuzatuvi, so‘rovnomalar va dars jarayonlaridagi faoliyat tahliliga asoslandi, shuningdek, empirik natijalarni foizlarda ko‘rsatish imkonini berdi.

Tadqiqotga jami 150 o‘quvchi jalb qilindi, ulardan 50 nafari nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lib, ular orasida 20 kishi ko‘rish nogironligi, 15 kishi eshitish nogironligi va 15 kishi jismoniy cheklovlar bilan ta’minlangan. Qolgan 100 kishi sog‘lom o‘quvchilar bo‘lib, ular yosh, jins va ilgari o‘rganilgan til darajasi bo‘yicha muvozanatli tarzda tanlandi. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun dars jarayonida individual ehtiyojlar hisobga olindi, bunda audio kitoblar, subtitrli videolar, vizual kartalar va kinestetik mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning mavzuni tushunish va til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratildi. Ishtirokchilar uch guruhga bo‘lingan: Guruh X — inklyuziv va adaptiv metodlar bilan aralash guruh (nogiron + sog‘lom), Guruh Y — vizual-kinestetik va guruhlash metodlari bilan aralash guruh, Guruh Z esa faqat sog‘lom o‘quvchilar uchun faol interaktiv metodlar bilan tashkil etilgan. Guruhlar tarkibi tasodifiy tanlash usuli bilan belgilangan bo‘lib, bu metodologik izchillik va statistik asosni ta’minladi, shuningdek nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning har bir guruhda teng taqsimlanishi empirik tadqiqotning haqqoniyligini oshirdi.

Tadqiqot eksperimental-empirik dizayn bilan amalga oshirildi. Eksperimental guruhlar — Guruh X va Y — inklyuziv va innovatsion metodlarni tatbiq etgan bo‘lsa, nazorat guruhi — Guruh Z — an’anaviy yoki faqat interaktiv metodlar bilan dars o‘tkazdi. Darslar 12 hafta davomida, haftasiga 3 marta, har biri 45 daqiqa davomida o‘tkazildi. Tadqiqot davomida har bir o‘quvchining motivatsiyasi, mavzuni tushunishi, til ko‘nikmalari va darsga faol qatnashishi foizlarda qayd qilindi. Ushbu dizayn nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun adaptiv metodlar samaradorligini aniq ko‘rsatishga imkon berdi.Ma’lumot yig‘ish uchun bir nechta metodlar qo‘llanildi. Birinchidan, **so‘rovnomalar** orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi, mavzuni tushunish darajasi, til ko‘nikmalari, darsda faol qatnashishi va o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati baholandi. So‘rovnomalar Likert shkalasi (1–5) asosida amalga oshirildi. So‘rovnomada beshta asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oldi: darsga qiziqish, mavzuni tushunishning osonligi, til ko‘nikmalarini oshirish darajasi, dars jarayonida faol qatnashish va o‘z fikrini erkin ifoda etish. Har bir ko‘rsatkich foizlarda ko‘rsatilib, guruhlar o‘rtasidagi farq aniqlandi. Ikkinchidan, **kuzatuvlar** o‘qituvchilar tomonidan dars jarayonida amalga oshirildi. Kuzatuvlar davomida o‘quvchilarning faol ishtiroki, guruh ishlarida qatnashishi, mavzuni tushunish darajasi va interaktivlik baholandi. Har bir dars yakunida natijalar foizlarda qayd qilindi va o‘quvchilarning kundalik faoliyati monitoring qilindi. Uchinchidan, **eksperimental darslar** orqali guruhlar o‘rtasida

metodlar samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Guruh X inklyuziv va adaptiv metodlar yordamida dars o‘tkazdi, bunda multimedia, interaktiv ilovalar, audio va kinestetik mashg‘ulotlar birgalikda qo‘llanildi. Guruh Y esa vizual-kinestetik metodlar va guruhlash orqali mashg‘ulotlarni tashkil etdi. Guruh Z faqat interaktiv metodlardan foydalangan holda sog‘lom o‘quvchilar bilan dars o‘tkazdi.

Haftalik dars rejasi har bir guruh uchun alohida ishlab chiqildi. Masalan, Guruh X darslari quyidagi tarzda tashkil etildi: birinchi hafta o‘quvchilar bilan tanishuv va EFL/ESP mavzulariga kirish, interaktiv o‘yinlar va audio-video resurslar yordamida dars o‘tkazildi. Ikkinchi hafta lug‘at boyligini oshirish uchun adaptiv mashqlar, vizual kartalar va individual vazifalar qo‘llanildi. Uchinchi hafta tinglab tushunish bo‘yicha audio mashqlar, subtitrli videolar va podkastlar orqali darslar o‘tkazildi. Shu tarzda har hafta mavzu qamrovi va metodlar uyg‘unlashtirilib, 12 haftalik modul yakunlandi. Guruh Y uchun darslar vizual va kinestetik mashg‘ulotlar, aralash guruh ishlari va kooperativ faoliyat orqali tashkil etildi. Guruh Z esa sog‘lom o‘quvchilar bilan interaktiv platformalar, prezentatsiyalar va faol mashg‘ulotlar orqali darslar o‘tkazdi. Har bir darsning natijalari foizlarda qayd qilinib, samaradorlik tahlili amalga oshirildi.Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida foizli natijalar asosiy ko‘rsatkich sifatida ishlatildi. Har bir o‘quvchining motivatsiyasi, mavzuni tushunish darajasi, til ko‘nikmalari va faol qatnashishi foizlarda ifodalanib, guruhlar o‘rtasidagi farq aniqlandi. Ko‘rish nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar multimedia va audio resurslar yordamida mavzuni tushunishda 88–92% samaradorlik ko‘rsatdi. Eshitish cheklovi bo‘lganlar subtitrlar va guruh ishlarida ishtirok etish orqali 85–89% natija ko‘rsatdi. Jismoniy cheklovlari bo‘lganlar kinestetik mashg‘ulotlar yordamida 83–87% muvaffaqiyatga erishdi. Statistika tahlilida o‘rtacha qiymat, standart og‘ish va korrelyatsiya tahlillari qo‘llanildi, bu esa natijalarni ilmiy asoslash imkonini berdi.Tadqiqot davomida **etik qoidalar** qat’iy rioya qilindi. Har bir ishtirokchidan rozilik formasi olindi, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga individual resurslar va qo‘shimcha yordam taqdim etildi, pedagoglar tomonidan muntazam monitoring olib borildi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlari doimo nazorat qilindi. Shu bilan birga, dars jarayonlari inklyuziv va xavfsiz muhitda amalga oshirildi, o‘quvchilar bir-birini hurmat qilish va yordam berish asosida ishlashga o‘rgatildi.

Darslarni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham tadqiqot metodologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun adaptiv mashqlar, multimedia vositalari va interaktiv metodlar samaradorligi yuqori bo‘lgani uchun ularni qo‘llash tavsiya qilinadi. Guruhlash va hamkorlik mashg‘ulotlari nogiron va sog‘lom o‘quvchilar o‘rtasidagi integratsiyani oshiradi, motivatsiyani mustahkamlaydi va til o‘qitish jarayonini samarali qiladi. Vizual va kinestetik mashg‘ulotlar ko‘rish yoki jismoniy cheklovlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun zarur bo‘lib, qisqa modul va interaktiv mashqlar diqqatni saqlash va mavzuni tez o‘zlashtirishga yordam beradi. Individual nazorat va yordam pedagoglar tomonidan muntazam amalga oshirilishi natijalarni yanada oshiradi.Shu tarzda ushbu metodologiya dars jarayonlarini **butunlay inklyuziv, adaptiv va samarali** tarzda tashkil etishga imkon beradi, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni faol

jalb qiladi, motivatsiyasini oshiradi va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv va interaktiv metodlar motivatsiya, mavzuni tushunish va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda 20–25 foiz yuqori samaradorlik beradi, bu esa ilgari mavjud an’anaviy metodlardan sezilarli farq qiladi. Tadqiqot shuningdek, global pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’limni yanada samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Natijalar: Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va sog‘lom o‘quvchilar o‘rtasida EFL va ESP darslarini inklyuziv va adaptiv metodlar orqali olib borish samaradorligi aniq sezildi. Tadqiqotga jalb qilingan 150 nafar o‘quvchining dars jarayonidagi faolligi, mavzuni tushunishi va til ko‘nikmalari muntazam ravishda kuzatildi va foizlarda baholandi.

Guruh X (nogiron + sog‘lom, inklyuziv va adaptiv metodlar) o‘quvchilarining motivatsiyasi o‘rtacha 91% ni tashkil etdi, mavzuni tushunish darajasi 89%, til ko‘nikmalari rivojlanishi 88%, darsdagi faol qatnashish 86%, o‘zini ifoda etish imkoniyati esa 84% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv va adaptiv metodlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish va til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Guruh Y (nogiron + sog‘lom, vizual-kinestetik metodlar) natijalari biroz pastroq bo‘lib, motivatsiya 78%, mavzuni tushunish 72%, til ko‘nikmalari 75%, faol qatnashish 70%, o‘zini ifoda etish 68% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar vizual-kinestetik metodlar samaradorligini ko‘rsatadi, ammo adaptiv va inklyuziv metodlar bilan solishtirganda 10–15% pastroq natija beradi.

Guruh Z (faqat sog‘lom o‘quvchilar, interaktiv metodlar) esa motivatsiya 94%, mavzuni tushunish 93%, til ko‘nikmalari 92%, faol qatnashish 90% va o‘zini ifoda etish 91% natijalarini ko‘rsatdi. Bu guruh sog‘lom o‘quvchilar bilan interaktiv metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi, lekin nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun qo‘shimcha adaptiv yondashuvlar zarurligi ko‘rsatildi.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun individual ehtiyojlarga moslashtirilgan mashg‘ulotlar samaradorligini ko‘rsatish maqsadida ko‘rish nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar multimedia va vizual resurslar yordamida mavzuni tushunishda 90% samaradorlik ko‘rsatdi, eshitish cheklovi bo‘lganlar subtitrlar va guruh ishlarida ishtirok etish orqali 87% muvaffaqiyatga erishdi, jismoniy cheklovlari bo‘lganlar esa kinestetik mashg‘ulotlar yordamida 85% natijaga erishdi. Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv metodlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun motivatsiya, mavzuni tushunish va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi.Haftalik darslar davomida natijalar shuningdek o‘quvchilarning individual faoliyati bo‘yicha ham kuzatildi. Masalan, Guruh X o‘quvchilari darsga 88–92% darajada faol qatnashishgan, Guruh Y o‘quvchilari 70–78%, va Guruh Z 90–94% faoliyatni ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkichlar guruhlar o‘rtasidagi samaradorlikni foizlarda aniqlash imkonini berdi va adaptiv, inklyuziv metodlarning nogiron o‘quvchilar uchun samaradorligini tasdiqladi.

Muhokama: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv va adaptiv metodlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularning

motivatsiyasini oshirish va mavzuni tushunish darajasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Guruh Xdagi aralash guruh metodlari o‘quvchilarga bir-biriga yordam berish, fikr almashish va mavzuni yanada mustahkamlash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, vizual-kinestetik metodlar (Guruh Y) nogiron o‘quvchilar uchun samarali bo‘lsa-da, adaptiv va inklyuziv metodlarga nisbatan 10–15% pastroq samaradorlik ko‘rsatdi.Interaktiv metodlar (Guruh Z) sog‘lom o‘quvchilar uchun yuqori motivatsiya va faoliyat ko‘rsatdi, lekin nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan birga tatbiq etilganda, ular uchun qo‘shimcha adaptiv resurslar zarur bo‘lishi aniqlandi. Shu sababli, inklyuziv ta’limda multimedia, audio-visual materiallar, kinestetik mashg‘ulotlar va aralash guruh ishlari qo‘llanilishi nogiron o‘quvchilarni samarali jalb qilish uchun muhimdir.Tadqiqot shuningdek, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun motivatsiyani oshirishning va mavzuni tushunishni yaxshilashning samarali strategiyalarini ko‘rsatdi. Ko‘rish nogironligi bo‘lganlar uchun audio va vizual materiallar, eshitish chekloviga ega o‘quvchilar uchun subtitr va guruh ishlari, jismoniy cheklovlari bo‘lganlar uchun kinestetik mashg‘ulotlar eng samarali usullar sifatida aniqlandi. Ushbu yondashuvlar dars jarayonida o‘quvchilarning 20–25% yuqori natija ko‘rsatishiga olib keldi.Muhokama shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va sog‘lom o‘quvchilarni aralash guruhda o‘qitish, adaptiv va inklyuziv metodlar bilan darslarni tashkil etish, til ko‘nikmalarini rivojlantirish va motivatsiyani oshirish uchun samarali strategiya hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlarni individual ehtiyojga moslashtirish, dars materiallarini multimediya va interaktiv resurslar bilan boyitish muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limning samaradorligi nafaqat nogiron o‘quvchilar uchun, balki umumiy dars jarayonining sifatini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa: Ushbu tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv va adaptiv metodlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni EFL va ESP yo‘nalishlarida dars jarayoniga samarali jalb qilishda yuqori samaradorlikka ega. Aralash guruhlar, multimediya va interaktiv resurslar yordamida olib borilgan darslar nogiron o‘quvchilarning motivatsiyasini 91% gacha oshirdi, mavzuni tushunish darajasini 89%, til ko‘nikmalarini 88% darajada rivojlantirdi va darsdagi faol qatnashish 86% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, vizual-kinestetik metodlar nogiron o‘quvchilar uchun ham samarali bo‘lsa-da, adaptiv va inklyuziv metodlarga nisbatan 10–15% pastroq natija berdi.Nazorat guruhi (faqat sog‘lom o‘quvchilar) interaktiv metodlar yordamida motivatsiya 94%, mavzuni tushunish 93%, til ko‘nikmalari 92%, faol qatnashish 90% va o‘zini ifoda etish 91% natija ko‘rsatdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, nogiron o‘quvchilar uchun qo‘shimcha adaptiv va inklyuziv yondashuvlar zarur. Tadqiqot shuningdek, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan dars materiallari va metodlar ularga muvaffaqiyatli til o‘rganish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1) Inklyuziv va adaptiv metodlar nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning motivatsiyasini va til ko‘nikmalarini oshiradi, ularni dars jarayoniga faol jalb qiladi.

2) Multimedialar, audio-visual materiallar va kinestetik mashg‘ulotlar nogiron o‘quvchilarga mavzuni tushunishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

3) Aralash guruh ishlari nogiron va sog‘lom o‘quvchilar o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlaydi va o‘zaro yordam asosida bilimni oshiradi.

4) Vizual-kinestetik metodlar samarali bo‘lsa-da, adaptiv va inklyuziv metodlarga nisbatan natija pastroq bo‘ladi, shu sababli dars jarayonida har bir o‘quvchining individual ehtiyojiga moslash zarur.

5) Inklyuziv metodlar nafaqat nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun, balki umumiy dars sifatini oshirish va pedagogik jarayonni optimallashtirish uchun muhim strategiya hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida EFL va ESP yo‘nalishlarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, dars jarayonlarini samarali tashkil etish va nogiron o‘quvchilarni faol jalb qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shuningdek, global pedagogik tajribalar bilan solishtirish orqali lokal va xalqaro darajada qo‘llanishi mumkin bo‘lgan inklyuziv ta’lim yondashuvlarini aniqlash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving schools, developing inclusion. London: Routledge.
2. Brown, H. D. (2014). Principles of language learning and teaching (6th ed.). New York: Pearson Education.
3. Creswell, J. W. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). Thousand Oaks, CA: SAGE Publications.
4. Harmer, J. (2015). The practice of English language teaching (5th ed.). London: Pearson Education Limited.
5. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for specific purposes: A learning-centred approach. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Jordan, R. R. (1997). English for academic purposes: A guide and resource book for teachers. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Scrivener, J. (2011). Learning teaching: The essential guide to English language teaching (3rd ed.). Oxford: Macmillan Education.

CRITICAL THINKING AS A MEANS OF PREVENTING PLAGIARISM IN EFL CLASSROOMS

Ruziyeva Mohinur Murod qizi,
2nd Year Student, TSUOS

Khaydarova Ravno Anvarovna
Scientific Supervisor: Senior Lecturer, TSUOS
E-mail: mohinur.bintu.murod.07@gmail.com

Teacher education programmes play a crucial role in preparing future teachers for such classrooms. However, research in the Uzbek context also suggests that teacher awareness of inclusive education is still developing. For example, Isamukhamedova, Shavkieva, and Kamilova (2023) found that while teachers generally express positive attitudes towards inclusion, many report limited practical knowledge of strategies for supporting learners with diverse needs in the classroom. PRESETT Teacher educators themselves may also have limited opportunities to develop expertise in inclusive pedagogy, particularly in contexts where inclusive education has only recently become a policy priority (Florian & Pantić, 2017).

These challenges are particularly relevant in the context of Uzbekistan, where ongoing educational reforms aim to improve the quality of teacher education and expand access to learning opportunities. Although inclusive education is increasingly emphasised in national policy and professional discourse, many teacher educators report limited experience in implementing inclusive practices in teaching (Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, 2020).

In response to these challenges, the project “Effective Strategies for Promoting Inclusion in Pre-Service English Language Teacher Education in Uzbekistan” was developed through collaboration between Lancaster University, Westminster International University in Tashkent (WIUT), and Uzbekistan State University of World Languages (UzSWLU). The project aimed to strengthen institutional capacity for inclusive language teacher education, support the professional development of teacher educators, and develop practical resources that could be used across PRESETT programmes.

This paper describes the key activities and outcomes of the project and reflects on the lessons that may inform similar initiatives in other contexts.

Inclusion and Language Teacher Education

Inclusive education is grounded in the principle that education systems should adapt to the diverse needs of learners rather than expecting learners to fit predetermined structures. Florian (2014) argues that inclusive teaching requires educators to move beyond deficit-oriented views of learner differences and instead design teaching practices that anticipate variability among learners from the outset. One framework that has gained prominence in this area is Universal Design for Learning (UDL), which encourages educators to create flexible learning environments by providing multiple ways for students to engage with content, access learning materials, and demonstrate their understanding (CAST, 2018). By considering learner variability during the planning stage, teachers can reduce barriers to participation and create more equitable learning opportunities.

In language education, inclusive teaching may involve adapting teaching materials, offering alternative forms of classroom participation, using multimodal resources, or providing differentiated support for learners who require additional scaffolding. Such strategies are particularly important for students with specific learning differences such as dyslexia, which can affect language learning processes (Kormos, 2017).

Despite the growing recognition of these principles, teacher education programmes often struggle to integrate inclusive pedagogy into their curricula in meaningful ways. Florian and Spratt (2013) note that teachers frequently express support for inclusive education but feel uncertain about how to implement inclusive strategies in practice. Professional development initiatives targeting teacher educators can therefore play an important role in bridging the gap between inclusive education policies and classroom realities.

Project Context and Activities

The project described in this paper was implemented over a five-month period and involved collaboration between universities in the United Kingdom and Uzbekistan. Its main goal was to promote inclusive practices in pre-service English language teacher education by combining professional development, resource development, and professional networking.

An initial phase of the project focused on strengthening the expertise of the Uzbekistan project team. Team members participated in online courses on inclusive education, engaged in mentoring sessions with UK experts, and took part in a study visit to Lancaster University. These activities provided opportunities to explore current research on inclusive pedagogy, neurodiversity, and Universal Design for Learning while reflecting on how these concepts could be applied in the Uzbek educational context.

A central component of the project was the organisation of a two-day hybrid professional development workshop for teacher educators. The workshop brought together participants from eighteen higher education institutions across Uzbekistan and included both in-person and online participation. In total, 141 educators took part in the event, representing a wide range of teacher education institutions and professional organisations.

The workshop was designed not only as a training event but also as a collaborative space where participants could exchange experiences and reflect on their teaching practices. Activities encouraged participants to consider the barriers that learners may face in language classrooms and to explore strategies that could help make their teaching more inclusive.

An important feature of the workshop was the participation of representatives from the Uzbek Society of the Deaf. Sign language interpretation was provided throughout the event, allowing deaf participants to engage fully in discussions. Their contributions helped participants reflect on accessibility issues and consider how language classrooms could better support students with hearing impairments.

Development of the Inclusive Teacher Guidebook

One of the key outcomes of the project was the development of an Inclusive Teacher Guidebook designed to support teacher educators and English language teachers working in PRESETT programmes. The Guidebook focuses on practical strategies that educators can use to create more inclusive language learning environments. It addresses themes such as inclusive pedagogy, Universal Design for Learning, neurodiversity, classroom management, inclusive assessment, and the use of digital tools to support accessibility.

The development process involved close collaboration between the UK and Uzbekistan teams. Draft materials were shared with workshop participants, whose feedback helped refine the content and ensure that the Guidebook addressed the realities of language teaching in Uzbekistan. This collaborative approach helped bridge the gap between research-based knowledge and classroom practice.

Professional Community and Continuing Dialogue

To support the sustainability of the project outcomes, the team established a Community of Practice dedicated to inclusive English language teaching. The community functions as an online platform where educators can share resources, participate in webinars, and discuss challenges related to inclusive teaching. The Community of Practice currently includes approximately five hundred members from across Uzbekistan. Through regular webinars and online discussions, participants continue to exchange ideas about inclusive pedagogy and classroom practice.

Professional communities such as this can play an important role in supporting teacher learning. Wenger (1998) describes Communities of Practice as spaces where professionals develop shared knowledge through ongoing interaction. Within teacher education, such communities can help sustain innovation by enabling educators to reflect collectively on their experiences and experiment with new teaching approaches.

Project Impact

To evaluate the impact of the project, a survey was conducted following the workshop. The results suggest that the training contributed to increased awareness of inclusive education among participants. Seventy-eight per cent of respondents indicated that inclusive teaching should be considered a core professional competence for language educators. At the same time, seventy-nine per cent reported that they were willing to experiment with new teaching strategies and digital tools to make their classrooms more inclusive. Participants also reported increased confidence in reflecting on their teaching practices and in designing learning tasks that accommodate different learner strengths and preferences. These findings suggest that professional development activities can play a meaningful role in supporting teacher educators as they begin to integrate inclusive approaches into their teaching.

However, the survey results also highlighted continuing institutional challenges. Only forty per cent of respondents believed that their institutions currently provide adequate support for inclusive education. This indicates that while

awareness of inclusive pedagogy is growing, further institutional efforts will be necessary to support its implementation.

Discussion: Several insights from this project may be relevant for similar initiatives in language teacher education contexts.

First, the collaboration between international and local partners proved particularly valuable. International experts contributed research-based knowledge and experience in inclusive pedagogy, while Uzbek educators ensured that the project remained grounded in the realities of teacher education in the country. Such partnerships can be effective in promoting educational innovation because they combine global perspectives with local contextual understanding (Florian & Pantić, 2017).

Second, the project highlighted the importance of participatory professional development. Rather than positioning participants as passive recipients of training, the workshop encouraged teacher educators to reflect on their own practices and share experiences with colleagues. Research on teacher professional learning suggests that collaborative and reflective approaches are more likely to lead to sustained changes in practice than one-off training sessions (Avalos, 2011).

Another important lesson concerns the value of modelling inclusive practices during professional development. Providing sign language interpretation and hybrid participation options allowed participants to experience inclusive principles in practice. Florian (2014) emphasises that teachers’ understanding of inclusion often develops most effectively when they are able to observe inclusive pedagogy being implemented in authentic contexts.

Finally, the establishment of a Community of Practice created a mechanism for sustaining professional dialogue beyond the duration of the project. Communities of Practice have been shown to support teacher learning by enabling educators to share experiences, reflect on classroom challenges, and develop collective knowledge (Wenger, 1998; Borg, 2015). In this project, the community has continued to provide a space where educators can exchange ideas and resources related to inclusive teaching.

Conclusion: Promoting inclusive education within language teacher education requires more than policy commitments. It requires sustained efforts to support teacher educators in developing the knowledge, confidence, and practical strategies needed to respond to learner diversity.

The project described in this paper demonstrates that collaborative initiatives combining professional development, resource development, and professional networking can contribute to this process. By bringing together international expertise and local professional knowledge, the project helped raise awareness of inclusive pedagogy among teacher educators in Uzbekistan.

Although further work is needed to embed inclusive practices across institutions, the experiences described here suggest that partnerships between universities and sustained professional dialogue can play an important role in supporting inclusive language education.

References

1. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in teaching and teacher education over ten years. *Teaching and Teacher Education*, 27(1), 10–20.
2. Borg, S. (2015). *Teacher cognition and language education.* Bloomsbury.
3. CAST. (2018). *Universal Design for Learning guidelines version 2.2.* CAST. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? *European Journal of Special Needs Education*, 29(3), 286–294.
4. Florian, L., & Pantić, N. (2017). *Teacher education for the changing demographics of schooling.* Springer.
5. Florian, L., & Spratt, J. (2013). Enacting inclusion. *European Journal of Special Needs Education*, 28(2), 119–135.
6. Kormos, J. (2017). *The second language learning processes of students with specific learning difficulties.* Routledge.
7. UNESCO. (2020). *Global education monitoring report: Inclusion and education – All means all.* UNESCO.
8. Wenger, E. (1998). *Communities of practice: Learning, meaning and identity.* Cambridge University Press.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI “KO‘Z” KOMPONENTLI IJOBIY MA’NOLI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLIL

Xabibullayeva Dilbar Shuxrat qizi
dilim0605@gmail.com
Xorijiy til va adabiyot, ingliz tili magistratura mutaxassisligi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Abidova Zilola Xabibullayevna
https://orcid.org/0000-0002-3013-0063
G‘arb tillari kafedrasi Phd, katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida “ko‘z/eye” komponenti ishtirok etgan ijobiy ma’noli frazeologizmlar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki til frazeologik tizimida “ko‘z” komponentining qanday ijobiy semantik mazmunlarni ifodalashini aniqlash hamda ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda ham “ko‘z/eye” komponentli frazeologizmlar mehr, e’tibor, hurmat, qadrlash va kuzatuvchanlik kabi ijobiy semantik ma’nolarni ifodalashda faol qo‘llanadi. Shu bilan birga, ayrim frazeologizmlar milliy madaniyat va til an’analari bilan bog‘liq holda o‘ziga xos semantik xususiyatlarga ega.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, semantik tahlil, ko‘z komponenti, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili*

Abstract. This article analyzes the positive-meaning phraseological units containing the component “ko‘z/eye” in Uzbek and English from a semantic

perspective. The main aim of the study is to identify the positive semantic meanings expressed by the “eye” component in the phraseological systems of the two languages and to reveal their similarities and differences. Comparative-analytical, semantic, and contextual analysis methods were used in the research process. The results show that in both languages phraseological units with the component “eye” are actively used to express positive semantic meanings such as affection, attention, respect, appreciation, and attentiveness. At the same time, some phraseological units have specific semantic features related to national culture and linguistic traditions.

Keywords: *phraseological unit, semantic analysis, eye component, comparative linguistics, English language, Uzbek language.*

Аннотация. В данной статье проводится семантический анализ фразеологизмов с компонентом «ko‘z/eye» (глаз) положительной семантики в узбекском и английском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении положительных семантических значений, выражаемых компонентом «глаз» в фразеологических системах двух языков, а также в определении их сходств и различий. В процессе исследования использованы сравнительно-аналитический, семантический и контекстуальный методы анализа. Результаты показали, что в обоих языках фразеологизмы с компонентом «глаз» активно используются для выражения положительных значений, таких как любовь, внимание, уважение, ценность и наблюдательность. В то же время некоторые фразеологические единицы обладают специфическими семантическими особенностями, связанными с национальной культурой и языковыми традициями.

Ключевые слова: *фразеологизм, семантический анализ, компонент «глаз», сравнительное языкознание, английский язык, узбекский язык.*

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tilning obrazli birliklarini o‘rganadi. Frazeologik birliklar tilning milliy xususiyatlarini, xalqning madaniyati va mentalitetini aks ettiradi (Rahmatullayev, 2006). Shu sababli frazeologizmlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Ko‘plab tillarda inson tana a’zolari bilan bog‘liq frazeologizmlar keng tarqalgan. Ayniqsa, “ko‘z” komponenti insonning idrok qilish, kuzatish va baholash jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgani sababli frazeologik birliklarda faol qo‘llanadi. Ingliz tilida ham “eye” komponenti turli metaforik va semantik ma’nolarni ifodalashda keng ishlatiladi (Baker, 2011).O‘zbek va ingliz tillaridagi “ko‘z/eye” komponentli frazeologizmlar turli semantik guruhlarga ajraladi. Ushbu maqolada aynan ijobiy semantik ma’no ifodalovchi frazeologizmlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Frazeologiya masalasi tilshunoslikda keng o‘rganilgan sohalardan biridir. O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev (2006) frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlarini batafsil yoritib bergan. N. Mahmudov (2013) esa o‘zbek tilining nazariy grammatikasi doirasida frazeologik birliklarning nutqdagi funksiyasini tahlil qilgan. Ingliz tilshunosligida frazeologik birliklar va ularning tarjimasi masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Masalan, Baker (2011) frazeologizmlarning tarjimada ekvivalentligini aniqlash muammolarini ko‘rib chiqqan. Newmark (1988) esa tarjima jarayonida idiomatik birliklarning semantik xususiyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, Nida (1964) tarjima nazariyasida semantik va funksional ekvivalentlik masalalarini asoslab bergan. Ushbu tadqiqotlar frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod qo‘llanilib, o‘zbek va ingliz tillaridagi “ko‘z/eye” komponenti ishtirok etgan frazeologizmlar o‘zaro solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, semantik tahlil metodi yordamida frazeologik birliklarning ma’no xususiyatlari, ularning ifodalaydigan ijobiy semantik mazmunlari hamda mazkur ma’nolarning til tizimidagi o‘rni tahlil qilindi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi asosida frazeologizmlarning nutq jarayonida qo‘llanishi, badiiy va publitsistik matnlardagi funksional xususiyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik lug‘atlar, shuningdek badiiy adabiyot namunalaridan olingan frazeologik birliklar tanlab olindi. Tanlangan materiallar asosida “ko‘z/eye” komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, ularning qo‘llanish doirasi va qiyosiy jihatlari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Natijalar. O‘zbek va ingliz tillarida “ko‘z/eye” komponenti ishtirok etgan frazeologik birliklar insonning turli ruhiy holatlari, munosabati va xususiyatlarini ifodalashda muhim semantik vazifani bajaradi. Masalan, o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan **“ko‘z qorachig‘idek asramoq”** frazeologizmi juda qadrli bo‘lgan inson yoki narsani ehtiyotlab saqlash, unga katta mehr va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish ma’nosini bildiradi. Mazkur iboraning semantik asosida “ko‘z qorachig‘i” inson tanasining eng muhim va nozik qismlaridan biri ekani haqidagi tasavvur yotadi. Shu sababli bu ibora orqali muayyan shaxs yoki narsaning alohida qadrlanishi ifodalanadi. Ingliz tilida ushbu ma’noga yaqin frazeologik birlik **“apple of one’s eye”** hisoblanadi. Har ikkala ibora ham semantik jihatdan juda qadrli va aziz inson yoki narsani ifodalashi bilan o‘xshashlik kasb etadi.

O‘zbek tilidagi yana bir frazeologik birlik – **“ko‘ziga issiq ko‘rinmoq”** iborasi ham ijobiy semantik mazmunga ega. Bu ibora biror inson yoki narsaning yoqimli, ma’qul yoki samimiy bo‘lib tuyulishini bildiradi. Bunday frazeologizm odatda insonlar o‘rtasidagi ijobiy hissiy munosabatni ifodalashda qo‘llanadi. Ingliz tilida bu ma’noga qisman mos keluvchi iboralardan biri **“catch someone’s eye”** hisoblanadi. Mazkur ibora biror narsaning yoki insonning e’tiborni tortishi, yoqimli yoki qiziqarli ko‘rinishini ifodalaydi.

Shuningdek, o‘zbek tilida **“ko‘z-quloq bo‘lib turmoq”** frazeologizmi ham keng qo‘llanadi. Bu ibora biror ishni diqqat bilan kuzatib turish, nazorat qilish yoki ehtiyotkorlik bilan qarab turish ma’nosini bildiradi. Mazkur ibora insonning hushyorligi, e’tiborli va mas’uliyatli bo‘lishi bilan bog‘liq semantik mazmunga ega. Ingliz tilida bu ma’noga semantik jihatdan yaqin bo‘lgan frazeologizm **“keep an eye**

on” hisoblanadi. Ushbu ibora ham biror narsani kuzatib turish yoki nazorat qilish ma’nosida qo‘llanadi.

O‘zbek tilidagi **“ko‘zi o‘tkir”** frazeologizmi esa insonning kuzatuvchanligi, sezgirligi hamda mayda tafsilotlarni tez ilg‘ay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu ibora odatda ziyrak va hushyor insonlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Ingliz tilida bu ma’noga yaqin frazeologik birlik **“a sharp eye”** hisoblanadi. Mazkur ibora ham kuzatuvchan, e’tiborli va tafsilotlarga tez e’tibor qaratadigan insonni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Ingliz tilida keng uchraydigan **“have an eye for something”** frazeologizmi esa insonning muayyan sohaga nisbatan didi yoki qobiliyati borligini bildiradi. Masalan, san’at, dizayn yoki estetika sohasida yaxshi didga ega bo‘lgan insonlarga nisbatan qo‘llanadi. O‘zbek tilida bu ma’noga yaqin iboralardan biri **“ko‘zi yetmoq”** yoki **“ko‘zi o‘tkir”** frazeologizmlaridir, chunki ular ham insonning biror narsani to‘g‘ri baholash yoki anglash qobiliyatini bildiradi.

Bundan tashqari, ingliz tilida **“be easy on the eyes”** frazeologizmi ham ijobiy semantik mazmunga ega bo‘lib, u biror inson yoki narsaning estetik jihatdan yoqimli ko‘rinishini ifodalaydi. Ushbu ibora odatda chiroyli yoki ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘lgan shaxs yoki predmetlarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tilida bu ma’noga yaqin iboralar sifatida **“ko‘zga yoqimli ko‘rinmoq”** yoki **“ko‘ziga issiq ko‘rinmoq”** frazeologizmlarini keltirish mumkin. Shunday qilib, tahlil qilingan frazeologik birliklar o‘zbek va ingliz tillarida “ko‘z/eye” komponenti orqali ko‘pincha ijobiy semantik ma’nolar – mehr, e’tibor, kuzatuvchanlik, estetik did va ijobiy munosabatni ifodalashini ko‘rsatadi. Bu esa ikki til frazeologik tizimida muayyan semantik o‘xshashliklar mavjudligini tasdiqlaydi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillarida “ko‘z/eye” komponentli frazeologizmlar semantik jihatdan boy tizimni tashkil etadi. Ijobiy ma’noli frazeologizmlar asosan mehr, e’tibor, hurmat, qadrlash va kuzatuvchanlik kabi semantik ma’nolarni ifodalaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikkala til frazeologik tizimida umumiy semantik xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim frazeologizmlar milliy madaniyat va til an’analari ta’sirida o‘ziga xos semantik shaklga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida keyingi ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

References

1. Abidova, Z. X. (2023). Tarjimalarda tafakkur fe’llari semantik darajalanish usullari. In Chet tillarni o‘qitishda dolzarb muammolar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (Vol. 1, pp. 186–192).
2. Baker, M. (2011). In other words: A coursebook on translation (2nd ed.). Routledge.
3. Kunin, A. V. (1984). Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar (English-Russian phraseological dictionary). Russkiy yazyk.
4. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.

5. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Brill.
6. Oxford University Press. (2015). Oxford idioms dictionary for learners of English (2nd ed.). Oxford University Press.
7. Rahmatullayev, S. (1992). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Qomuslar bosh tahririyati.
8. Rahmatullayev, S. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Universitet.
9. Sayfullayeva, R., & Mengliyev, B. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti. (2006). O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

EFL DARSLARIDA INTERKULTURAL KOMMUNIKATSIYANI RIVOJLANTIRISH

Xabibullayeva Maxliyo
TDShU katta o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston
Tel: +998909719403;
E-mail: khabibullaevam777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirish masalalari pedagogik tajriba asosida yoritiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida til o‘rganish faqat lingvistik bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmay, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish kompetensiyasini ham shakllantirishni talab etishi sababli, interkultural kommunikatsiya til ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Maqolada EFL darslarida interkultural yondashuvni qo‘llash imkoniyatlari, metodlari va samaradorligi uzoq yillik pedagogik tajriba asosida tahlil qilinadi. Rol o‘yinlari, autentik materiallar, madaniyatlararo muhokamalar va loyiha asosida o‘qitish kabi usullar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar interkultural yondashuv o‘quvchilarning madaniy ongini kengaytirishi, muloqotda ishonchini oshirishi va global fikrlashini rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: interkultural kommunikatsiya, EFL, kommunikativ kompetensiya, global kompetensiya, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. This article examines the development of intercultural communication in teaching English as a foreign language based on pedagogical experience. In the context of globalization, language learning is no longer limited to acquiring linguistic knowledge but also requires the formation of the ability to communicate effectively with representatives of different cultures. Therefore, intercultural communication is considered an essential component of language education. The article analyzes the possibilities, methods, and effectiveness of implementing an intercultural approach in EFL classes based on long-term teaching experience. Methods such as role plays, authentic materials, intercultural

discussions, and project-based learning play an important role in developing learners’ communicative competence. The results indicate that the intercultural approach enhances students’ cultural awareness, increases their confidence in communication, and develops global thinking.

Keywords: intercultural communication, EFL, communicative competence, global competence, intercultural interaction

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития межкультурной коммуникации в процессе преподавания английского языка как иностранного на основе педагогического опыта. В условиях глобализации изучение языка уже не ограничивается овладением языковыми знаниями, но также требует формирования способности эффективно общаться с представителями различных культур. В связи с этим межкультурная коммуникация рассматривается как важный компонент языкового образования. В статье анализируются возможности, методы и эффективность применения межкультурного подхода на занятиях по английскому языку на основе многолетнего педагогического опыта. Такие методы, как ролевые игры, аутентичные материалы, межкультурные обсуждения и проектное обучение, играют важную роль в развитии коммуникативной компетенции обучающихся. Результаты показывают, что межкультурный подход способствует расширению культурного кругозора студентов, повышает уверенность в общении и развивает глобальное мышление.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, EFL, коммуникативная компетенция, глобальная компетенция, межкультурное взаимодействие.

Kirish qismi: Globallashuv jarayonining jadallashuvi natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda. Bunday sharoitda ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda u nafaqat aloqa vositasi, balki global bilimlar almashinuvi, axborot oqimi va madaniyatlararo integratsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ingliz tilini o‘qitish jarayoni ham zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilishi muhimdir.

Zamonaviy ta’lim tizimida chet tilini o‘rganish faqat grammatik qoidalar yoki lug’at boyligini egallash bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, bu jarayon o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda interkultural kompetensiyani ham shakllantirishni nazarda tutadi. Interkultural kompetensiya turli madaniyat vakillari bilan samarali va mos muloqot qilish qobiliyatini anglatadi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, EFL o‘quvchilari tilning grammatik va leksik jihatlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsalar ham, real kommunikativ vaziyatlarda madaniy tafovutlar sababli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa nutqiy samaradorlikning pasayishiga, noto‘g‘ri talqinlarga va kommunikativ to‘siqlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shu sababli interkultural kommunikatsiyani rivojlantirish EFL ta’limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi EFL darslarida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va yondashuvlarni

pedagogik tajriba hamda amaliy kuzatuvlar asosida tahlil qilish va ularning samaradorligini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi: Interkultural kommunikatsiya va interkultural kompetensiya masalalari ko‘plab olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘ib, bu borada Michael Byramning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U interkultural kompetensiyani til o‘qitishning ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uni bilim, ko‘nikma, munosabat va tanqidiy madaniy ong kabi tarkibiy qismlarga ajratadi (Byram, 1997). Uning fikricha, til o‘rganuvchi nafaqat til tizimini bilishi, balki turli madaniyatlar o‘rtasida vositachi bo‘la olishi ham zarur.

Byram modeli o‘quvchilarda global fikrlash, empatiya va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u stereotiplarni aniqlash va ularni tahlil qilish orqali madaniy ongni kengaytirish muhimligini ta’kidlaydi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Claire Kramsch esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikga urg’u beradi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib, uni madaniy kontekstdan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi (Kramsch, 1993). Kramschning *“uchinchi makon”* konsepsiyasi o‘quvchining o‘z madaniyati va o‘rganilayotgan til madaniyati o‘rtasida muvozanatli pozitsiyani egallashini nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarga ikki madaniyat o‘rtasida moslashuvchan fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar interkultural kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, autentik materiallar va interaktiv metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Deardorff interkultural kompetensiyani rivojlantirishda amaliy tajriba va refleksiyaning muhimligini ta’kidlasa, OECD global kompetensiya tushunchasini ilgari surib, o‘quvchilarning turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

Umuman olganda, Kramschning til va madaniyatni integratsiyalashgan holda o‘rganish haqidagi qarashlari EFL ta’limida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, biroq uni amaliyotga tatbiq etishda pedagogik sharoitlar va resurslar hisobga olinishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda interkultural kommunikatsiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, autentik materiallardan hamda interaktiv metodlarning samaradorligi alohida ta’kidlanadi (Deardorff, 2006; OECD, 2018).

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqola empirik eksperiment emas, balki pedagogik tajriba va amaliy kuzatuvlarga asoslangan ilmiy-amaliy yondashuvga tayanadi. Tadqiqot davomida EFL darslarida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan turli metodlar amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: **kuzatuv metodi; taqqoslash metodi; analitik tahlil; pedagogik tajriba.**

Kuzatuv metodi yordamida dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, ishtiroki va kommunikativ xatti-harakatlari tizimli ravishda o‘rganildi. O‘qituvchi maxsus kuzatuv jadvallari yordamida o‘quvchilarning savol berish darajasi, muhokamalarda ishtiroki va nutqiy faolligini qayd etdi. Shuningdek, o‘quvchilarning

madaniyatlararo vaziyatlarda o‘zini tutishi, masalan, turli madaniy kontekstlarda to‘g‘ri murojaat shakllarini qo‘llay olishi ham kuzatildi.

Taqqoslash metodi orqali interkultural elementlar qo‘llanilgan va qo‘llanilmagan darslar natijalari solishtirildi. Masalan, bir guruhda an’anaviy grammatika asosidagi dars o‘tkazilgan bo‘lsa, boshqa guruhda rol o‘yinlari, autentik materiallar va madaniyatlararo muhokamalar qo‘llanildi. Natijada, ikkinchi guruh o‘quvchilarining kommunikativ faolligi va nutqiy erkinligi yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Analitik tahlil metodi olingan natijalarni tizimli baholash va o‘zgarish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, o‘quvchilarning dars boshidagi va dars oxiridagi ko‘rsatkichlari (masalan, ishtirok darajasi, nutqiy xatolar soni, muloqotdagi ishonchlilik) solishtirilib, o‘zgarish dinamikasi aniqlab olindi. Bu esa interkultural yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda izohlash imkonini berdi.

Pedagogik tajriba orqali esa turli metodlarning samaradorligi amaliy jihatdan tekshirishga xizmat qildi. Masalan, bir necha hafta davomida darslarda muntazam ravishda interkultural topshiriqlar (rol o‘yinlari, madaniyatlararo taqdimotlar, videomateriallar tahlili) joriy etildi va ularning o‘quvchilarga ta’siri kuzatildi. Tajriba yakunida o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalari, balki madaniy tushunchalari va global fikrlash darajasi ham oshgani aniqlandi.

Asosiy qism: Dars jarayonida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar kompleks tarzda qo‘llanildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

1. Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin muhitga olib kirib, ularning kommunikativ va madaniy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirdi.Ushbu metod orqali o‘quvchilar turli madaniy kontekstlarda qanday muloqot qilish kerakligini amaliy tarzda o‘rganadilar.

Byram (1997) ta’kidlaganidek, interkultural kompetensiya vositachilik qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi, rol o‘yinlari esa aynan shu ko‘nikmani shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, *“xalqaro mehmonni kutib olish”, “xorijiy hamkor bilan uchrashuv”, yoki “turli mamlakat vakillari bilan muzokara”* kabi vaziyatlar sahnalashtirildi. O‘quvchilar turli rollarni (mehmon, mezbon, tarjimon) bajarib, madaniy jihatdan mos kommunikatsiya strategiyalarini qo‘llashga harakat qildilar. Bunday jarayonlarda o‘quvchilar nafaqat til birliklarini qo‘llaydilar, balki muomala madaniyati, tana tili, murojaat shakllari va etik qoidalarga ham e’tibor qaratadilar. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, ushbu metod o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning madaniy moslashuvchanligini ham rivojlantirdi.

2.**Madaniyatlararo muhokamalar** orqali o‘rganuvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya va bag‘rikenglik shakllandi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar turli mamlakatlarning urf-odatlari, qadriyatlari, ijtimoiy normalari va hayot tarzi haqida fikr almashadilar. Masalan, dars jarayonida*“turli mamlakatlarda bayramlar qanday nishonlanadi?”, “muloqotda hurmat qanday ifodalanadi?”* kabi mavzular muhokama qilinadi.

Talabalar o‘z madaniyati bilan boshqa madaniyatlarni taqqoslab, o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlab, o‘z fikrlarini asoslab berishga, hamda boshqalarning nuqtai nazarini tushunishga harakat qildilar. Mini-kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunday muhokamalar talabalarda bag‘rikenglik, empatiya va ochiq fikrlilikni shakllantiradi. Shu bilan birga, stereotiplarni anglash va ularni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasi ham rivojlanadi.

3.**Autentik materiallardan foydalanish** o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Deardorff (2006) interkultural kompetensiyani rivojlantirishda real tajriba va kontekst muhimligini ta’kidlaydi. Autentik materiallar aynan shunday kontekstni yaratadi.

Amaliyotda ingliz tilidagi videolar, filmlar, intervyular, podkastlar, yangiliklar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlardan foydalanildi. Ushbu materiallar o‘quvchilarga tilning haqiqiy qo‘llanilishi va madaniy kontekstini tushunishga yordam berdi. Masalan, ingliz tilidagi videorolik orqali turli mamlakatlardagi salomlashish usullari yoki kundalik muloqotdagi iboralar o‘rganildi. Bu esa o‘quvchilarning eshitish, tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Shuningdek, autentik materiallar orqali o‘quvchilar turli aksentlar, nutq tezligi va uslublarga moslashishni o‘rganadilar.

4. Guruh va juftlik faoliyati hamkorlikda o‘rganish orqali kommunikativ kompetensiyani mustahkamladi. Bu metod ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, bilimlar o‘zaro muloqot jarayonida shakllanishini nazarda tutadi.

Dars jarayonida o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan madaniy muammolarni hal qilish ustida ishladilar. Masalan, *“xalqaro jamoada kelib chiqadigan tushunmovchilikni bartaraf etish”* kabi vazifalar berildi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, guruh ishlari davomida o‘quvchilar o‘zaro tinglash, fikr almashish va murosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamladi.

5. Loyiha asosida topshiriqlar esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirdi. OECD (2018) global kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini muhim deb hisoblaydi. Ushbu metod doirasida o‘quvchilarga turli mamlakatlar madaniyati, urf-odatlari, ta’lim tizimi yoki kundalik hayoti haqida loyiha tayyorlash topshirig‘i beriladi.

Amaliyotda o‘quvchilarga *“bir mamlakat madaniyatini tadqiq qilish”* yoki *“madaniyatlararo farqlarni tahlil qilish”, “xalqaro festival loyihasi”,* kabi loyihalar beriladi. Ular ma’lumot izlash, uni tahlil qilish va taqdim etish jarayonida faol ishtirok etadilar. Loyiha yakunida o‘tkaziladigan taqdimotlar o‘quvchilarning nutqiy ishonchliligini oshiradi va ularning global dunyoqarashini kengaytiradi, hamda talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida interkultural yondashuvning EFL ta’limidagi samaradorligi aniqlanib, quyidagi natijalar qayd etildi: *birinchidan,* interkultural elementlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning kommunikativ faolligi sezilarli darajada oshdi. Ular fikr bildirish, savol berish va muhokamalarda ishtirok etishga ko‘proq intildilar. *Ikkinchidan,* o‘quvchilarda madaniy ong kengaydi. Turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni tushunish darajasi oshdi.

Uchinchidan, interkultural yondashuv o‘quvchilarning global fikrlashini rivojlantirdi. Global mavzular asosida tashkil etilgan topshiriqlar ularning dunyoqarashining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. *To‘rtinchidan,* kommunikativ to‘siqlar kamaydi va o‘quvchilar real muloqot vaziyatlarida o‘zlarini ishonchliroq his qila boshladilar.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, vaqt yetishmasligi, metodik resurslarning cheklanganligi va o‘qituvchilarning interkultural kompetensiyasini yanada rivojlantirish zarurati shular jumlasidandir. Bu muammolarni hal etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va malaka oshirish dasturlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, EFL darslarida interkultural kommunikatsiyani rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interkultural yondashuv o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning madaniy ongini kengaytiradi, kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi va global fikrlashini shakllantiradi. Interkultural yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: *Madaniy tushuncha va ong rivojlanadi, kommunikativ samaradorlik oshadi, global kompetensiya shakllanadi, tanqidiy fikrlash rivojlanadi.*

Shu asosda quyidagi tavsiyalar beriladi: *Dars jarayonida interkultural elementlardan tizimli foydalanish, autentik materiallarni keng qo‘llash, interaktiv metodlarni faol joriy etish, o‘qituvchilarning interkultural kompetensiyasini oshirish, loyiha va muhokama asosidagi topshiriqlarni ko‘paytirish.*

Xulosa qilib aytganda, interkultural kommunikatsiya EFL ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat til, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов, Э. Г., & Щукин, А. Н. (2009). *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. Академия.
2. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
3. Deardorff, D. K. (2006). The identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education, 10*(3), 241–266. https://doi.org/10.1177/1028315306287002
4. Хабибуллаева, М. Э. (2013). Обучение иноязычному говорению на базе учебного текста. ТДЮИ.
5. Habibullayeva, M. E. (2018). Interactive “sequencing” activities focusing on language acquisition. In *Modern linguistics, translatology, linguodidactics*. NUU.
6. Habibullaeva, M. E. (2021). Old path and new directions in the English language teaching. International Scientific-Practical Conference, JDPI.
7. Hamidov, H., & Mahmudov, K. (2018). *Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar*. Fan va texnologiya nashriyoti.

8. Kramsch, C. (1993). *Context and culture in language teaching*. Oxford University Press.
9. OECD. (2018). *Preparing our youth for an inclusive and sustainable world: The OECD PISA global competence framework*. OECD Publishing.
10. Пассов, Е. И. (1991). *Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению*. Просвещение.
11. Соловова, Е. Н. (2008). *Методика обучения иностранным языкам*. АСТ: Астрель.

LOGISTIKA TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MIQYOSIDA)

Xo‘jaqulova Shohista G‘ofur qizi
Magistrant, Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Shokhistakhujakulova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-9520-0977

Aripova Gulnoza Tulkunovna
Ilmiy rahbar, Email: aripova-gulnoza@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminologiyasining leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari doirasida logistika terminlarining semantik tuzilmasi, atamalarni shakllantirish mexanizmlari, terminlarning o‘zlashuvi va moslashuvi jarayonlari, shuningdek, ularni standartlashtirish hamda lug‘atlarda ifodalash masalalari batafsil o‘rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida deskriptiv, qiyosiy-tahliliy, leksikografik va korpusga asoslangan metodlardan kompleks tarzda foydalanildi, bu esa ikki terminologik tizim o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalarga ko‘ra, ingliz tilidagi logistika terminologiyasi yuqori darajada normallashtirilganligi, terminlarning aniq definitsiyalarga ega ekanligi va polisemiyaning samarali boshqarilishini ko‘rsatdi. O‘zbek logistika terminologiyasi esa rivojlanish bosqichida bo‘lib, terminlarning yagona muqobillarini belgilash, ularni tizimlashtirish va leksikografik manbalarda izchil qayd etish zarurati mavjudligini namoyon etdi. Tadqiqot natijalarining xulosasiga ko‘ra, kelgusida logistika terminologiyasini normallashtirish, maxsus terminologik lug‘atlar yaratish hamda tarjima amaliyotini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: logistika terminologiyasi, leksikografiya, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, ingliz tili, korpus, polisemiya, standartlashtirish.

Abstract: The primary objective of this study is to conduct a comparative lexicographic analysis of logistics terminology in the Uzbek and English languages. The research focuses on examining the semantic structure of logistics terms, mechanisms of term formation, processes of borrowing and adaptation, as well as

issues related to standardization and lexicographic representation in dictionaries. A combination of descriptive, comparative-analytical, lexicographic, and corpus-based research methods is employed, enabling the identification of similarities and differences between the two terminological systems. The findings indicate that English logistics terminology demonstrates a high degree of standardization, clearly defined conceptual boundaries, and effective management of polysemy. In contrast, Uzbek logistics terminology is still undergoing processes of normalization and terminological stabilization, which results in the parallel use of synonymous terms and inconsistencies in lexicographic documentation. The results of this study provide a solid theoretical foundation for the future normalization of logistics terminology, the development of specialized terminological dictionaries, and the improvement of translation practices in the field of logistics.

Keywords: logistics terminology, lexicography, comparative analysis, Uzbek language, English language, corpus, polysemy, standardization.

Аннотация: Основная цель нашего исследования — проведение сравнительного лексикографического анализа логистической терминологии на узбекском и английском языках. Изучены ход исследования, семантическая структура данной логистической терминологии, процессы обработки, ассимиляции терминов, вопросы стандартизации и восстановления в словаре. В качестве инструментов исследования использованы различные методы, а именно описательный, сравнительный корпусный и метод обработки; исследование выявляет специфические сходства и различия между двумя терминологическими системами. Исследование служит научной основой для будущей нормализации логистической терминологии, обогащения лексикографической базы и обеспечения её продуктивности. Управление исследованием показывает, что английская логистическая терминология находится в процессе стандартизации и управления полисемией, в то время как узбекская логистическая терминология всё ещё находится в процессе нормализации и терминологической очистки.

Ключевые слова: логистическая терминология, лексикография, сравнительный анализ, узбекский язык, английский язык, корпус, полисемия, стандартизация.

Kirish: So‘nggi o‘n yilliklarda logistika sohasi global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Xalqaro savdo, transport, omborxona tizimi va ta’minot zanjirlarining rivojlanishi natijasida logistika terminlari nafaqat iqtisodiy, balki lingvistik tadqiqotlarning ham muhim obyektiga aylandi. Har bir fan sohasi kabi logistika ham o‘ziga xos terminologik tizimga ega bo‘lib, ushbu tizim tilning lug‘at tarkibida muhim o‘rin egallaydi [John Benjamins, 2002; 84]. Uning fikriga ko‘ra aynan mana shunday terminlar muayyan mazmun va strukturaga ega bo‘lish kerakligi haqida so‘z bormoqda.

Ingliz tili logistika terminologiyasining asosiy donor tili hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro standartlar va ilmiy adabiyotlarning katta qismi ingliz tilida yaratilgani sababli logistika terminlarining aksariyati o‘zbek tiliga bevosita yoki bilvosita ingliz tilidan kirib kelmoqda [Hutchins, J. London, 2005; 68].

Bu esa hozirgi kundagi ingliz tilidan kirib kelgan terminlarning aksariyati o‘zbek tiliga kirib kelgan va moslashmayotganidan va bir qancha nuqson aniqlanayotganidan dalolat beradi.

Bu holat terminlarning moslashuvi, semantik aniqligi va leksikografik qayd etilishida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, o‘zbek tilshunosligida logistika terminologiyasining qiyosiy leksikografik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni cheklangan. Aksariyat ishlar umumiy terminologiya yoki iqtisodiy terminlar doirasida olib borilgan bo‘lib, logistika terminlari alohida tizim sifatida yetarlicha yoritilmagan [Christopher, M.2016; 79].

Tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik tuzilishi, so‘z yasalishi, lug‘atlarda berilishi va standartlashuv darajasini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- logistika terminlarining nazariy asoslarini yoritish;
- ingliz va o‘zbek tillaridagi asosiy logistika terminlarini aniqlash;
- terminlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini qiyoslash;
- leksikografik manbalarda terminlarning berilish usullarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda yuqorida ta’kidlaganimizdek, ingliz va o‘zbek tillarida logistika terminologiyasi hamda leksikografiya masalalariga oid ilmiy adabiyotlar tizimli va tanqidiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotlar natijasi darajasidagi tadqiqot uchun muhim bo‘lib, mavjud ilmiy qarashlar, yondashuvlar va muammolarni aniqlash, shuningdek, tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘ini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida logistika terminlarining leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning semantik tuzilishi, etimologik manbalari va terminologik ekvivalentlik darajasini aniqlashdan iborat. O‘zbek tilida logistika terminologiyasi nisbatan yangi soha hisoblanadi. Mustaqillikdan keyingi davrda iqtisodiyot va transport tizimining jadal rivojlanishi logistika atamalarining faol qo‘llanilishiga olib keldi [O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020; 86].

Biroq mazkur terminlarning leksikografik jihatdan yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi tufayli, mavjud lug‘atlarda bir xillikning ta’minlanmaganligi va ayrim terminlarning izohida aniqlik yetishmasligi ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois logistika terminlarini ingliz va o‘zbek tillari kesimida qiyosiy tahlil qilish, ularning lug‘atlarda berilish xususiyatlarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi [Newmark, P 1988; 97].

Shuningdek, tarjimashunoslikka oid adabiyotlarda soha terminlarini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik yo‘qotishlar va noto‘g‘ri ekvivalent tanlash muammolari qayd etiladi. Xususan, ingliz tilidagi freight va cargo terminlarining o‘zbek tilida ko‘pincha umumiy “yuk” so‘zi bilan ifodalanishi ularning funksional farqlarini yo‘qotishga olib keladi [Christopher, M. 2016; 79-80]. Bu esa leksikografik manbalarda ham aniqlik yetishmasligiga sabab bo‘ladi.

Xorijiy ilmiy manbalarda logistika terminologiyasi asosan iqtisod, menejment va tilshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganilgan. Ingliz tilida yaratilgan maxsus

lug‘atlar va tadqiqotlarda logistika terminlari aniq ta’riflangan, ularning semantik chegaralari belgilangan va amaliy qo‘llanishi ko‘rsatib berilgan [Lambert, D. M. 2014; 68]. Masalan, Oxford Dictionary of Logistics hamda Cambridge Business English Dictionary kabi manbalarda logistics, supply chain, freight, inventory, warehouse kabi terminlar yagona va barqaror ma’noda izohlangan [Oxford University Press, 2020; 89-90].

Ushbu lug‘atlarda terminlarning grammatik toifasi, kontekstual qo‘llanishi va soha doirasidagi funksiyasi alohida e’tiborga olinadi.

Ingliz tilshunosligida terminologiya masalalari E.Vyuster, J.Sager, H.Felber kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar asosida o‘rganiladi. Ularning tadqiqotlarida termin tushunchasining aniqligi, bir ma’nolilik va standartlashuv tamoyillari asosiy mezon sifatida qaraladi .Logistika terminologiyasi ham aynan ushbu tamoyillar asosida shakllangan bo‘lib, ingliz tilida terminlarning sinonimik qatlamining nisbatan cheklanganligi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODLARI: Mazkur tadqiqotda kompleks lingvistik metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi logistika terminlari tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa ushbu terminlarning leksikografik xususiyatlari hisoblanadi.

Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Deskriptiv metod — logistika terminlarining lug‘aviy ma’nolari va izohlarini tavsiflash uchun qo‘llanildi.

Tavsifiy metod yordamida terminlarning real nutqiy va kasbiy muhitdagi qo‘llanilish holati o‘rganildi.

Misol: Warehouse management system termini ilmiy va texnik matnlarda ko‘pincha qisqartma shaklda — WMS tarzida ishlatiladi. O‘zbek tilidagi matnlarda esa ushbu termin to‘liq tarjima qilinib, omborlarni boshqarish tizimi shaklida qo‘llaniladi [ISO, 2017; 98].

Bu holat terminning tilga moslashish jarayonini aks ettiradi.

2. Qiyosiy-tahliliy metod — o‘zbek va ingliz tillaridagi terminlarning semantik va struktur farqlarini aniqlashda ishlatildi.

Misol: Supply chain termini o‘zbek tilida ta’minot zanjiri shaklida qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi chain komponenti jarayonlarning uzviy bog‘liqligini ifodalasa, o‘zbek tilidagi zanjir birligi mazkur semantik yuklamani to‘liq saqlab qolgan. Biroq ayrim manbalarda ushbu termin yetkazib berish zanjiri tarzida ham tarjima qilinadi, bu esa terminologik variantlilikni yuzaga keltiradi [Lambert, D. M.2014; 68-69].

3. Leksikografik tahlil — terminlarning izohli, ikki tilli va terminologik lug‘atlardagi qayd etilish holatini o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Misol: Logistics hub termini inglizcha maxsus lug‘atlarda “transport va taqsimot faoliyatining markazi” sifatida izohlanadi. O‘zbek tilidagi lug‘atlarda esa ushbu termin ko‘pincha logistika markazi tarzida berilib, izoh qismi yetarlicha keng yoritilmagan. Bu holat terminning funksional mazmunini to‘liq anglashda qiyinchilik tug‘diradi.

4. Korpus va manba tahlili — ilmiy maqolalar, darsliklar va xalqaro

standartlar asosida terminlarning real qo‘llanishi tahlil qilindi.

Misol: Ingliz tilidagi korpus matnlarida supply chain termini ko‘pincha management, optimization, resilience kabi birliklar bilan birikib kelishi aniqlandi (supply chain management, supply chain optimization). O‘zbek tilidagi korpusda esa ushbu termin asosan ta’minot zanjirini boshqarish yoki ta’minot zanjiri samaradorligi shaklida qo‘llaniladi. Bu holat terminning har ikki tilda ham funksional barqarorlikka ega ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot materiallari sifatida ingliz tilidagi logistics, supply chain, freight, inventory management, warehousing kabi terminlar hamda ularning o‘zbek tilidagi muqobillari logistika, ta’minot zanjiri, yuk tashish, zaxiralarni boshqarish, omborxona faoliyati tanlab olindi.

Natijalar: Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi logistika terminlari o‘rtasida sezilarli leksikografik farqlar mavjud.

1. Semantik xususiyatlar. Ingliz tilidagi logistika terminlari ko‘pincha ko‘p ma’nolilik (polysemy) xususiyatiga ega. Masalan, logistics termini harbiy, biznes va axborot texnologiyalari kontekstida turlicha ma’nolarda qo‘llanadi [Yo‘ldoshev,B.2021; 97-98]. Leksikografik manbalarda bu holat aniq izohlar va kontekstlar orqali beriladi.

O‘zbek tilida esa logistika terminlari nisbatan tor ma’noda qo‘llanadi. Logistika termini asosan iqtisodiy va transport sohasi bilan bog‘lanib, harbiy ma’nosi kamroq faollikka ega. Bu holat o‘zbek tilidagi lug‘atlarda terminning semantik diapazoni yetarlicha keng yoritilmaganini ko‘rsatadi.

2. Struktur xususiyatlar. Ingliz tilida logistika terminlari ko‘pincha ikki yoki undan ortiq komponentli birikmalar orqali ifodalanadi: supply chain management, third-party logistics (3PL), just-in-time delivery. Bu terminlar qisqartmalar orqali ham faol ishlatiladi.

O‘zbek tilida esa ushbu terminlar asosan tarjima yo‘li bilan hosil qilinadi: ta’minot zanjirini boshqarish, uchinchi tomon logistikasi, aniq vaqtida yetkazib berish. Natijada terminlar uzun va ba’zan noqulay shaklga ega bo‘ladi [John Benjamins, 1990; 84-85].

3. O‘zlashma va moslashuv jarayoni. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek logistika terminologiyasining katta qismi ingliz tilidan o‘zlashgan. Biroq ularning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi bir xil darajada emas. Masalan, freight — fracht — yuk, warehouse — ombor, inventory — zaxira [Rahmatullayev, Sh. 2018; 90-91].

Munozara. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi logistika terminlarining leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, olingan natijalar ikki til o‘rtasida terminologik nomuvofiqliklar mavjudligini ko‘rsatdi [Qodirov, A. 2019; 67-68]. Ayniqsa, ingliz tilida shakllangan logistika terminlarining o‘zbek tiliga tarjimasida semantik torayish, kengayish yoki funksional mos kelmaslik holatlari tez-tez uchrashi aniqlangan.

Munozara jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalardan biri shundaki, ingliz logistika terminlari asosan xalqaro savdo va global yetkazib berish tizimlari asosida shakllangan. O‘zbek tilida esa logistika sohasi nisbatan yangi bo‘lgani sababli ko‘plab terminlar hali to‘liq standartlashmagan. Bu holat

ayrim terminlarning bir nechta muqobilda qo‘llanishiga olib keladi, natijada ilmiy va amaliy matnlarda terminologik barqarorlik buziladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari logistika terminologiyasini o‘zbek tilida rivojlantirishda yagona terminologik standart yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Terminlarning semantik, funksional va kontekstual jihatdan mosligini ta’minlash ilmiy matnlar sifatini oshirish bilan birga, amaliy logistika jarayonlarida ham tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Umuman olganda, munozara qismi tadqiqot natijalarini faqat tasvirlash bilangina cheklanmay, balki ularning amaliy va nazariy ahamiyatini asoslab beradi. Olingan xulosalar kelgusida logistika terminologiyasini yanada chuqurroq o‘rganish va leksikografik manbalarni takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar logistika terminologiyasining rivojlanish darajasi tilning umumiy terminologik siyosati bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ingliz tilida terminlar standartlashgan, xalqaro normalarga mos va leksikografik jihatdan puxta ishlangan. Har bir termin aniq definitsiya, qo‘llanish sohasi va misollar bilan beriladi[7].

O‘zbek tilida esa logistika terminologiyasi hali shakllanish bosqichida. Terminlarning yagona muqobili mavjud emasligi, sinonimlarning parallel qo‘llanishi (ta’minot zanjiri / yetkazib berish zanjiri), lug‘atlarda izohlarning qisqa va umumiy berilishi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

Shuningdek, terminlarning normativ lug‘atlarga kiritilishi sust kechmoqda. Bu esa ilmiy va amaliy matnlarda terminologik nomuvofiqlikni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, logistika terminlarini tizimli ravishda standartlashtirish va maxsus terminologik lug‘atlar yaratish zarurati yuzaga kelmoqda[8].

Bundan tashqari, ingliz tilidagi qisqartmalar va akronimlarning o‘zbek tilidagi normativ holati yetarli darajada tartibga solinmagan. SCM, 3PL, JIT kabi birliklar amaliy matnlarda faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning yagona va barqaror o‘zbekcha muqobillari mavjud emas [Hutchins, J.2005; 90-92]. Shu bois, logistika sohasiga oid qisqartmalarni qamrab oluvchi maxsus terminologik lug‘at yaratish hamda ularni normativlashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbek logistika terminologiyasida bir terminning bir nechta tarjima variantlari parallel qo‘llanilishi ham muhim muammolardan biridir. Bu holat terminologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ilmiy hamda amaliy matnlarda tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin [John Benjamins, 1990;32-33]. Shuning uchun, terminlarni standartlashtirish va yagona me’yoriy variantlarni belgilash bo‘yicha maxsus ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Munozara davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — leksikografik manbalarda logistika terminlarining izohlanish darajasi bir xil emasligidir [Rahmatullayev, Sh 2018; 150-151]. Ingliz tilidagi lug‘atlarda terminlar ko‘pincha keng qamrovli, misollar bilan boyitilgan holda beriladi, o‘zbek tilidagi lug‘atlarda esa qisqa va umumiy izohlar bilan cheklaniladi. Bu holat tarjimonlar va soha mutaxassislari uchun terminni to‘g‘ri qo‘llashda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi logistika terminlarining

leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Ingliz logistika terminologiyasi yuqori darajada standartlashgan va leksikografik jihatdan mukammal tizimga ega.
2. O‘zbek logistika terminologiyasi asosan ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, moslashuv jarayoni hali yakunlanmagan.
3. Terminlarning semantik aniqligi va lug‘atlardagi qayd etilishi o‘zbek tilida yetarli darajada emas.
4. Maxsus ikki tilli va izohli logistika lug‘atlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘zbek logistika terminologiyasining ingliz tiliga kuchli darajada bog‘liqligini tasdiqladi. Terminlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi bir xil darajada kechmayotgani, ayrim terminlarning to‘liq tarjima qilinishi, boshqalarining esa transliteratsiya orqali kirib kelishi terminologik variantlilikni yuzaga keltirmoqda. Bu esa ilmiy va amaliy matnlarda terminlardan foydalanishda muayyan noaniqliklarga sabab bo‘lmoqda.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek logistika terminologiyasini tizimli ravishda o‘rganish, ularni normativlashtirish hamda korpusga asoslangan yondashuvlarni keng qo‘llash zarurligini asoslab berdi. Tadqiqot natijalari logistika terminologiyasini rivojlantirish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish va ilmiy-amaliy kommunikatsiyani samaraliroq tashkil etishga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqola natijalari kelgusida logistika terminologiyasini normallashtirish, leksikografik bazani boyitish va tarjima amaliyotini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baker, M. Tarjima tadqiqotlariga kirish. — London: Routledge, 2011. P.352.
2. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011. P. 352.
3. Bowker, L., Pearson, J. Amaliy terminologiya. — Amsterdam: John Benjamins, 2002. P. 283.
4. Bowker, L., Pearson, J. Working with Specialized Language: A Practical Guide to Terminology. Amsterdam: John Benjamins, 2002. P. 283.
5. Cabré, M. T. Terminologiya: nazariya, metodlar va qo‘llanmalar. — Amsterdam: John Benjamins, 1999. P. 247.
6. Cabré, M. T. Theory, Methods Terminology: and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999. P. 247.
7. Christopher, M. Logistika va ta’minot zanjirini boshqarish. — London: Pearson Education, 2016. P. 328.
8. Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management. London: Pearson Education, 2016. P. 328.

O‘ZBEK, ARAB VA INGLIZ TILLARIDA KISHILIK OLMOSHLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Xusanova Fotima Isomiddin qizi
Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya universiteti 3-kurs talabasi

Aripova Gulnoza Tulkunovna
Ilmiy rahbar: Email: aripova-gulnoza@mail.ru
Tel: +998998491303

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek, arab va ingliz tillaridagi kishilik olmoshlarining grammatik va tipologik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida ushbu uch til tizimida kishilik olmoshlarining shaxs, son va jins kategoriyalariga ko‘ra ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularning nutq jarayonidagi funksional vazifalari yoritiladi.
Maqolada, ayniqsa, arab tiliga xos bo‘lgan muzakkar va muannas jins kategoriyasi hamda ikkilik son shaklining mavjudligi, ingliz tilida esa jonsiz predmetlarni ifodalash uchun alohida it olmoshining qo‘llanishi kabi grammatik xususiyatlar alohida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilida esa kishilik olmoshlarining jins kategoriyasi bilan farqlanmasligi, biroq kelishik qo‘shimchalari orqali turli sintaktik vazifalarni bajarishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada kishilik olmoshlarining gap tarkibidagi grammatik va sintaktik funksiyalari, ularning nutqni ixchamlashtirish va mazmunni aniq yetkazishdagi roli ham ko‘rsatib beriladi. Qiyosiy tahlil natijalari uch tilning grammatik tizimida kishilik olmoshlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, grammatika va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Kishilik olmoshlari, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tahlil, grammatik kategoriya, jins kategoriyasi, shaxs kategoriyasi, son kategoriyasi, arab tili, ingliz tili, o‘zbek tili.

Abstract: The present article is devoted to the comparative analysis of the grammatical and typological features of personal pronouns in the Uzbek, Arabic, and English languages. The study investigates the realization of personal pronouns across these three linguistic systems with regard to the categories of person, number, and gender, and elucidates their functional roles in discourse.
Particular attention is paid to language-specific grammatical phenomena, including the presence of masculine and feminine gender distinctions and the dual number form in Arabic, as well as the use of the pronoun *it* in English for the reference to inanimate entities.

In contrast, Uzbek personal pronouns do not exhibit gender differentiation; however, their syntactic versatility is manifested through the use of case markers, which enable them to perform a range of grammatical functions.

Furthermore, the article analyzes the grammatical and syntactic roles of personal pronouns within sentence structure, highlighting their contribution to

textual cohesion, economy of expression, and precision in meaning transmission. The findings of the comparative analysis reveal both convergent and divergent features in the grammatical systems of the languages under consideration. The results of the study possess both theoretical and practical significance for comparative linguistics, grammatical theory, and foreign language pedagogy.

Keywords: Personal pronouns, comparative linguistics, typological analysis, grammatical category, gender distinction, person category, number category, Arabic, English, Uzbek.

Аннотация: Настоящая статья посвящена сравнительно-типологическому анализу грамматических особенностей личных местоимений в узбекском, арабском и английском языках. В рамках исследования рассматриваются способы реализации личных местоимений в указанных языковых системах с точки зрения категорий лица, числа и рода, а также раскрываются их функциональные характеристики в речевой деятельности.

Особое внимание уделяется специфическим грамматическим явлениям, таким как наличие категорий мужского и женского рода, а также формы двойственного числа в арабском языке, и употребление местоимения *it* в английском языке для обозначения неодушевлённых объектов. В узбекском языке личные местоимения не дифференцируются по категории рода, однако их синтаксическая вариативность обеспечивается системой падежных аффиксов, что позволяет им выполнять различные грамматические функции. Кроме того, в статье анализируются грамматические и синтаксические функции личных местоимений в структуре предложения, а также их роль в обеспечении связности текста, экономии языковых средств и точности передачи смысла. Результаты сравнительного анализа позволяют выявить как сходства, так и различия в грамматических системах рассматриваемых языков. Полученные выводы обладают теоретической и практической значимостью для сравнительного языкознания, грамматической теории и методики преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Личные местоимения, сравнительное языкознание, типологический анализ, грамматическая категория, категория рода, категория лица, категория числа, арабский язык, английский язык, узбекский язык.

Kirish: Kishilik olmoshlari til tizimining ajralmas grammatik birliklaridan biri bo‘lib, ular nutqda shaxsni ifodalash, fikrni ixcham va aniq yetkazish hamda takroriy birliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu olmoshlar ot o‘rnida qo‘llanib, kommunikativ jarayonda so‘zlovchi, tinglovchi va uchinchi shaxsni ifodalash orqali nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi. Shu jihatdan kishilik olmoshlari har qanday tilning funksional va struktur tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Turli tillarda kishilik olmoshlari grammatik jihatdan turlicha ifodalanadi va bu farqlar tilning tipologik xususiyatlarini ochib beradi. Xususan, arab tilida jins (muzakkar va muannas) hamda ikkilik son kategoriyasining mavjudligi ushbu tilning murakkab grammatik tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida jins

kategoriyasi qisman saqlanib qolgan bo‘lib, asosan uchinchi shaxs birlikda ifodalanadi, biroq unda ikkilik son shakli mavjud emas. O‘zbek tilida esa kishilik olmoshlari jins kategoriyasi bilan farqlanmaydi, ammo ular kelishik qo‘shimchalari orqali turli grammatik shakllarga kirib, gap tarkibida keng sintaktik vazifalarni bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa qiyosiy va tipologik tadqiqotlarda, turli tillardagi grammatik birliklarni o‘zaro solishtirish orqali ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Kishilik olmoshlari ham ana shunday universal va bir vaqtning o‘zida tilga xos bo‘lgan birliklardan biri sifatida ilmiy tadqiqotlar markazida turadi. Ushbu maqolada o‘zbek, arab va ingliz tillaridagi kishilik olmoshlarining grammatik va tipologik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlash maqsad qilib qo‘yiladi.

Adabiyotlar sharhi: Kishilik olmoshlari tilshunoslikda keng o‘rganilgan grammatik birliklardan biri hisoblanadi. Otto Jespersen olmoshlarni nutqni ixchamlashtiruvchi va takrorni kamaytiruvchi vosita sifatida baholaydi. Noam Chomsky esa ularni sintaktik tizimning muhim elementi sifatida ko‘rib, gap tuzilishidagi rolini ta’kidlaydi.

Ingliz tilshunosligida Randolph Quirk tadqiqotlarida olmoshlarning subyekt va obyekt shakllari hamda funksional xususiyatlari yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida A. Nurmonov va Sh. Rahmatullayev tomonidan olmoshlarning kelishik tizimi va sintaktik vazifalari tahlil qilingan.

Mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kishilik olmoshlari barcha tillarda umumiy funksiyaga ega bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanishi har bir tilning tipologik xususiyatiga bog‘liq holda farqlanadi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot o‘zbek, arab va ingliz tillaridagi kishilik olmoshlarining grammatik hamda tipologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda qiyosiy tilshunoslik yondashuvi asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida uch til tizimida kishilik olmoshlarining shaxs, son va jins kategoriyalari bo‘yicha ifodalanish xususiyatlari izchil ravishda tahlil qilindi hamda ularning struktur va funksional jihatlari o‘zaro solishtirildi.

Tahlil davomida tavsifiy metod yordamida har bir tilga xos grammatik xususiyatlar izohlandi, xususan, o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari orqali ifodalanadigan sintaktik funksiyalar, ingliz tilida subyekt va obyekt shakllari o‘rtasidagi farqlar hamda arab tilida mavjud bo‘lgan ikkilik son va jins kategoriyalarining grammatik ifodalanish mexanizmlari o‘rganildi. Shu bilan birga, tipologik tahlil asosida tillar o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, ular lingvistik nuqtai nazardan tizimlashtirildi.

Tadqiqot materiali sifatida arab, ingliz va o‘zbek tillari grammatikasiga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, lug’atlar hamda o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi. Ushbu manbalar asosida kishilik olmoshlarining nazariy talqini va amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi hamda olingan natijalar ilmiy asosda umumlashtirildi.

Natijalar: Olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek, arab va ingliz tillarida kishilik olmoshlari umumiy grammatik vazifani bajargan holda, ularning ifodalanishida muhim struktur va funksional farqlar

mavjud. Har uchala til tizimida kishilik olmoshlari shaxs kategoriyasiga ko‘ra uch guruhga — birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslarga bo‘linadi va bu jihat ularning universal xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchi shaxs so‘zlovchini, ikkinchi shaxs tinglovchini, uchinchi shaxs esa nutq jarayonida ishtirok etmayotgan shaxs yoki predmetni bildiradi.

Son kategoriyasi jihatidan esa tillar o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatiladi. O‘zbek va ingliz tillarida kishilik olmoshlari birlik va ko‘plik shakllariga ega bo‘lsa, arab tilida birlik va ko‘plikdan tashqari ikkilik son shakli ham mavjud bo‘lib, u alohida grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Mazkur xususiyat arab tilining tipologik jihatdan murakkabroq tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa ikkilik shaklning mavjud emasligi va ko‘plik shaklning umumlashgan holda qo‘llanishi uning grammatik soddalashuviga misol bo‘la oladi.

Jins kategoriyasi ham tillar o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida kishilik olmoshlari jinsga ko‘ra farqlanmaydi, ingliz tilida jins kategoriyasi qisman ifodalangan bo‘lib, asosan uchinchi shaxs birlikda (he, she, it) namoyon bo‘ladi, arab tilida esa jins kategoriyasi to‘liq tizim sifatida mavjud bo‘lib, muzakkar va muannas shakllar orqali aniq ifodalanadi. Bu holat arab tilida grammatik moslashuv tizimining kengroq rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Grammatik va sintaktik xususiyatlar nuqtai nazaridan ham muayyan farqlar aniqlandi. O‘zbek tilida kishilik olmoshlari kelishik qo‘shimchalari orqali o‘zgarib, gapda ega, to‘ldiruvchi va hol vazifalarida keng qo‘llaniladi. Ingliz tilida esa olmoshlar subyekt va obyekt shakllari orqali farqlanadi (masalan, I/me, he/him), bu esa ularning sintaktik rolini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Arab tilida esa kishilik olmoshlari mustaqil shaklda ham, fe’l va otlarga qo‘shimcha sifatida birikkan holda ham qo‘llanib, murakkab grammatik tizimni tashkil etadi.

Shuningdek, tahlil natijalari kishilik olmoshlarining barcha tillarda nutqni ixchamlashtirish, takroriy birliklarni kamaytirish hamda mazmunni aniq va ravshan yetkazishda muhim funksional vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uch til o‘rtasidagi asosiy farqlar son va jins kategoriyalarida namoyon bo‘ladi. Arab tili grammatik jihatdan eng murakkab tizimga ega bo‘lib, unda ikkilik son va jins kategoriyasi aniq ifodalanadi.

Ingliz tili esa soddalashtirilgan tizimga ega bo‘lib, jins faqat uchinchi shaxs birlikda ifodalanadi. O‘zbek tilida esa jins kategoriyasining yo‘qligi va kelishik tizimining rivojlanganligi uning o‘ziga xos tipologik belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, kishilik olmoshlari barcha tillarda nutqni ixchamlashtirish va kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

	1-SHAXS			2-SHAXS			3-SHAXS		
	O'zbek tili	Arab tili	Ingliz tili	O'zbek tili	Arab tili	Ingliz tili	O'zbek tili	Arab tili	Ingliz tili
Birlik	Men	أنا	I	Sen erkak	أنتَ	You	U erkak	هو	He
Ikkilik	—			Sen ayol	أنتِ		U ayol	هي	She
				Siz ikkingiz	أنتما		U ikkalasi	هما	They
Ko'plik	Biz	نحن	We	Sizlar erkaklar	أنتم		Ular erkaklar	هم	
				Sizlar ayollar	انتنّ		Ular ayollar	هنّ	They
							Odamdan boshqa		It

Yuqorida ko'rib turganingizdek Arab tilida Birlik, Ikkilik, Ko'plik va 3 ta shaxslar bor.Ammo Ingiliz va O'zbek tilida unday emas, faqatgina 1-shaxs bir xil. [2]
Ingliz tilida Ikkilik yo'qligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. [3]
2,3 shaxslar Ikkilikva ko'plikda -They foydalaniladi.
E'tibor bering, Arab tilidagi ikkilikni oxiriga ا-Alif xarfi qo'yiladi. [1].

O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlil natijalari o‘zbek, arab va ingliz tillarida kishilik olmoshlarining umumiy vazifaga ega bo‘lishiga qaramay, ularning grammatik tuzilishi va ifodalanish usullarida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har uchala tilda kishilik olmoshlari shaxsni ifodalovchi asosiy grammatik vosita sifatida xizmat qiladi va nutqning aniqligi hamda ixchamligini ta’minlaydi.

Xulosa: Tadqiqot davomida arab tilining kishilik olmoshlari tizimi son va jins kategoriyalarining to‘liqligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Xususan, ikkilik son shaklining mavjudligi hamda muzakkar va muannas jinslarning grammatik jihatdan aniq ifodalanishi ushbu tilning murakkab va rivojlangan grammatik tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa kishilik olmoshlari nisbatan soddalashtirilgan bo‘lib, jins kategoriyasi faqat uchinchi shaxs birlikda ifodalanadi va ikkilik son shakli mavjud emas. O‘zbek tilida esa jins kategoriyasining yo‘qligi, biroq kelishik tizimining rivojlanganligi uning o‘ziga xos tipologik xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, barcha tillarda kishilik olmoshlari gap tarkibida muhim sintaktik vazifalarni bajarib, kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi kuzatildi. Ular nutqda takroriy birliklarni kamaytiradi, mazmunni aniq va ravshan ifodalash imkonini beradi hamda tilning funksional jihatdan samarali ishlashini ta’minlaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari kishilik olmoshlarining qiyosiy o‘rganilishi turli tillarning grammatik tizimini chuqurroq anglashga yordam berishini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar qiyosiy tilshunoslik, nazariy grammatika hamda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Al-Arabiyyatu bayna yadayk. (2014). Ar-Riyod: Arab tilini o‘rgatish instituti.
2. Ne’matullo Ibrohimov. (2024). Arab tili grammatikasi. Toshkent: Fan.
3. Ubayd Muhammad Abdulxalim. (2023). Al-Kamil (A–B1). Toshkent: Fan.
4. Rahmatullayev, Sh. (2019). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan.

INTERACTIVE DIGITAL TOOLS FOR ENHANCING PHRASEOLOGICAL COMPETENCE IN UZBEKISTAN'S GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Yakhshimuratova Shirinoy
Master’s student, Tashkent State University of oriental studies, Uzbekistan
shirinoyyaxshimuratova@gmail.com

Abdullayeva Markhabo
Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan,
a.marxabo.r@mail.ru

Annotation. Phraseological competence, learning idioms, proverbs, and fixed expressions, is crucial yet still not well developed in Uzbekistan's general secondary education system. This article shows interactive digital tools—such as Quizlet, Kahoot, and Anki—as innovative methods to enhance practical application among 5-11 grade students. By integrating gamification, spaced repetition, and visualisation, these tools address the challenges of figurative language learning and align with national curricula that emphasise Uzbek linguacultural phraseology (e.g., "ilm – oltin kalit"). This article suggests teaching methods and strategies that help students to improve their communicative fluency not for just memorisation. Recommendations include teacher training and phased implementation to bridge cultural and linguistic competence.

Keywords: *phraseological competence, interactive digital tools, secondary education, Uzbekistan schools, gamification, spaced repetition, AR visualisation, idioms, proverbs, linguacultural learning, Quizlet, Kahoot, Anki*

Introduction: In Uzbekistan's general secondary education system, phraseological competence – the ability to comprehend, and apply idioms, and fixed expressions – plays a vital role in achieving linguistic fluency and cultural depth, particularly in Uzbek language and foreign language curricula.

Traditional teaching methods, which rely on rote memorisation and literal translation, often fail to convey the figurative essence of phraseological units like the Uzbek proverb "ilm – oltin kalit" (knowledge is the golden key) or English idioms such as "kick the bucket." Secondary students (grades 5-11) struggle with retention and contextual use, resulting in mechanical repetition rather than genuine communicative ability. Although standards emphasise linguacultural integration in classrooms, a gap remains due to a shortage of engaging resources.

Interactive digital platforms– Quizlet, Kahoot, and Anki–offer innovative solutions by gamifying learning, using spaced repetition, and visualising metaphors. These tools transform passive study into active engagement, aligning with cognitive theories of vocabulary acquisition and Uzbekistan's push for digital education reforms.

This article presents a theoretical framework for integrating these tools into 45-minute secondary lessons, outlining strategies, examples, and recommendations. By linking global pedagogies with local needs, it seeks to improve phraseological competence without relying on empirical surveys.

Literature Review

Phraseological competence involves not just lexical knowledge but semantic, cultural, and pragmatic mastery of stable expressions, as defined in linguistic scholarship (Norrick, 1985). Traditional approaches in secondary education prioritise listing and translation, yet fail to address opacity and context-dependency, leading to superficial learning.

Early methods concentrated on paradigmatic classification (synonyms, antonyms), but cognitive linguistics promotes etymological and image-based decoding for deeper retention (Gomola, 2014). In EFL settings, task-based learning advances from recognition to production, resulting in fluency improvements (Boers, 2020). Studies specific to Uzbekistan reaffirm this: Phraseology boosts vocabulary in Uzbek as both native and foreign language, with linguacultural comparisons essential for proverbs like "kitob – do'st" (book is a friend) (Belova, 2024; JDPU scholars).

Using Digital Tools

ICT integration revolutionizes teaching: Interactive platforms improve communicative and digital competencies via inquiry-based phraseology tasks (Spanish-Russian study, 2024). AI-driven apps like Anki apply spaced repetition algorithms, outperforming rote methods in idiom recall (Ciocan, 2025). Gamified tools (Kahoot, Quizlet) foster motivation; Kidioms app exemplifies idiom matching for visuals, adaptable for Uzbek-English pairs.

Uzbek research supports e-learning for phraseological units, blending human-digital elements for school efficacy (Raqamli Iqtisodiyot, 2023; JDPU, 2023). Multimodal approaches (lexical + visual) enhance EFL idiomaticity (HSE Journal, 2025). Interactive digital tools transform phraseological learning by leveraging engagement, repetition, and visualisation, directly addressing secondary students' challenges with non-literal meanings in Uzbek and foreign languages.

Quizlet and Kahoot: Gamified Matching and Quizzes

Quizlet enables customizable flashcard sets for idioms and proverbs, where students match phrases like the Uzbek "ilm – oltin kalit" (knowledge is the golden key) to images or contexts via drag-and-drop. In a 45-minute lesson, teachers create class sets for 10-15 units; live games promote competition, boosting retention through multimodal input—text, audio, and visuals. Kahoot extends this with real-time quizzes: Students join via mobile devices for multiple-choice on proverb meanings (e.g., "kitob – do'st" as lifelong companion), with leaderboards fostering group

dynamics. These platforms align with Uzbekistan's secondary curricula by supporting Uzbek-English pairs, reducing translation errors and enhancing spontaneous recall during speaking tasks.

Anki: Spaced Repetition for Long-Term Retention

Anki's algorithm schedules reviews based on user performance, ideal for opaque phraseological units like English "kick the bucket" (to die) or Uzbek "suv – hayot" (water is life). Secondary students build decks with front-side phrases and back-side explanations, images, or sentences; the system intervals cards (daily to weekly), combating forgetting curves per Ebbinghaus principles. In Tashkent classrooms with tablet access, teachers assign homework decks synced to Google Classroom, tracking progress without grading burden. This method excels for grades 8-11, where cumulative proverb knowledge supports essay writing and debates, yielding 2-3x better retention than lists.

AR Apps: Visualizing Metaphors

Augmented Reality (AR) apps like Google Expeditions or Merge Cube visualise figurative idioms, overlaying 3D animations on devices – e.g., scanning a bucket to "kick" it dramatically for "kick the bucket," or animating a golden key unlocking knowledge for "ilm – oltin kalit." Free tools like ARLooper let teachers create custom scenes tying Uzbek proverbs to cultural visuals (e.g., flowing rivers for "suv – hayot"). In group activities, students rotate devices during pair work, discussing interpretations; this kinesthetic approach aids visual learners, bridging abstract semantics to concrete imagery. Though requiring initial setup, AR fits Uzbekistan's digital push, with offline modes suiting variable connectivity.

Tool	Core Feature	Uzbek Example Application	Student Benefit
Quizlet/Kahoot	Gamified quizzes	Matching "oltin kalit" to scenarios	Motivation via competition
Anki	Spaced repetition	Reviewing proverb decks	Sustained recall
AR Apps	Metaphor visualization	Animating "kitob – do'st"	Deeper comprehension

These tools integrate seamlessly, with hybrid lessons combining Quizlet warm-ups, Anki homework, and AR demos for comprehensive competence building.

Implementation Framework

This section outlines a practical, 45-minute lesson framework for integrating digital tools into Uzbekistan's general secondary schools, tailored for grades 5-11 Uzbek language or EFL classes. It structures activities around warm-up, practice, and reflection, ensuring accessibility amid Tashkent's varying tech infrastructure (smartphones common, school Wi-Fi inconsistent).

Lesson Structure

Warm-up (5-7 minutes): Launch a Quizlet Live or Kahoot quiz on 8-10 phraseological units (e.g., Uzbek "ilm – oltin kalit" matched to "knowledge unlocks opportunities"). Students join via QR code on shared devices; instant feedback engages all, activating prior knowledge without preparation overload.

Practice (25-30 minutes): Divide into group challenges using hybrid tools. Groups rotate stations: Anki decks for individual spaced repetition review, AR apps (offline mode) for visualizing idioms like "kick the bucket" via phone cameras, and Kahoot team quizzes for production tasks (e.g., create sentences with "kitob – do'st"). The teacher circulates, prompting peer explanations to build communicative use.

Reflection (8-10 minutes): Students share one insight via shared Google Doc or verbal round-robin (e.g., "AR helped me 'see' the proverb's meaning"). Homework: Anki review of lesson units. This phased approach scaffolds from recognition to fluency.

Addressing Tashkent Tech Access

Leverage widespread smartphone ownership (90%+ among urban youth); use free/low-data apps with offline caching (Anki exports, Quizlet images). For low-connectivity schools, pre-download sets on teacher devices via USB sharing. Aligns with Uzbekistan's 2025-2030 Digital Education Strategy, requiring minimal hardware (1:4 device ratio feasible).

Phase	Time	Tools	Objectives
Warm-up	5-7 min	Quizlet/Kahoot	Activation & fun
Practice	25-30 min	Anki + AR	Contextual production
Reflection	8-10 min	Shared docs	Metacognition

This scalable model fits national 45-minute periods, promoting equity across Uzbekistan districts.

Conclusion: Interactive digital tools like Quizlet, Anki, and AR apps offer transformative potential for phraseological competence in Uzbekistan's secondary schools, shifting from rote to dynamic mastery of idioms and proverbs.

Phased adoption – starting with pilot classes in Tashkent, expanding via teacher workshops—ensures sustainable gains in retention, cultural insight, and fluency. Policymakers should prioritise training (e.g., 20-hour modules on app integration) and subsidies for offline tools, aligning with national linguacultural goals.

This framework not only elevates classroom practice but also contributes to broader dissertation aims on innovative methods, fostering linguistically adept generations.

References

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.

2. Kramsch, C. (1993). *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.

3. Boers, F. (2020). "Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology." *Language Teaching*, 53(2), 123-145.

4. Gomola, A. (2014). "Image-Based Decoding of Phraseological Units in EFL." *Cognitive Linguistics*, 25(3), 456-478.

5. Belova, E. (2024). "Enlarging Students' Potential Vocabulary on the Basis of Phraseological Units Study." *IATED Digital Library*.

6. Zhang, Y., & Wu, X. (2023). "Project-Based Cultural Comparisons in EFL Contexts." *Journal of Language Teaching and Research*, 14(4), 789-802.

7. Ciocan, M. (2025). "Memory Strategies for Effective Idiom Learning." *RST Journal*.

8. Abdullayeva, M. (2025). "Equity and Accessibility in Education Systems." *International Journal of Formal Education*, 4(12), 41-46.

9. HSE Journal of Language and Education. (2025). "Enhancing EFL Students' Idiomatic Competence: Multimodal Approaches."

10. Raqamli Iqtisodiyot. (2023). "E-Learning Platforms for Phraseological Units in Secondary Education." *Raqamli Iqtisodiyot Ilmiy Elektron Jurnali*.

11. JDPU Scholars. (2023). "Linguo-Cultural Aspects of Studying Uzbek Phraseology." *JDPU Journal*.

12. Spanish-Russian Study. (2024). "ICT Integration in Phraseology Teaching." *Revista Portalín*, Universidad de Granada.

13. Uzbekistan Ministry of Education. (2025). *Digital Education Strategy 2025-2030*. Tashkent: Ministry Publications.

14. Norrick, N. R. (1985). *Semiotic Principles in Semantic Theory*. Amsterdam: John Benjamins.

15. Ebbinghaus, H. (1885). *Memory: A Contribution to Experimental Psychology*. New York: Teachers College Press. (Cited in Anki methodology contexts.)

"NOGIRONLIK" TUSHUNCHASI IFODALARINING MEDIYADA QO‘LLANILI MISOLIDA IJTIMOIY LINGVISTIK TAHLILI

Yo‘ldosheva Shahodat Olimjon qizi
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi
1-kurs magistratura talabasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: Shahodatyoldosheva05@gmail.com

Abidova Zilola Xabibullayevna
https://orcid.org/0000-0002-3013-0063
G‘arb tillari kafedrasi Phd, katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogironlik tushunchasining jamiyat ongida qabul qilinishi va talqin etilishi ijtimoiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nogironlik bilan bog‘liq terminlarning mediyada qo‘llanishi, ularning nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ijtimoiy munosabat va muloqot jarayonlariga ta’siri, shuningdek, bu terminlar asosida shakllanuvchi stereotiplarning sabablari va

oqibatlari o‘rganiladi. Maqolada nogironlikning tibbiy modeli va ijtimoiy modeli o‘rtasidagi farqlar yoritilib, zamonaviy inkluziv yondashuvning mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonda nogironlikka oid qarashlarning o‘zgarishi, xususan, media matnlarida “imkoniyati cheklangan shaxs”, “nogironligi bo‘lgan shaxs” kabi ifodalarning qo‘llanishi tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mediyada ishlatiladigan terminologiya jamiyatning nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, to‘g‘ri va inkluziv til birliklaridan foydalanish ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Abstract. This article analyzes the perception and interpretation of the concept of disability in society from a sociolinguistic perspective. The study examines the use of disability-related terms in the media, their impact on social relations and communication processes with persons with disabilities, as well as the causes and consequences of stereotypes formed on the basis of these terms. The article highlights the differences between the medical model and the social model of disability and reveals the content of a modern inclusive approach. It also critically analyzes the changing views on disability in Uzbekistan, in particular, the use of expressions such as “disabiled person” and “person with disabilities” in media texts. The results of the study show that the terminology used in the media is an important factor in shaping society's attitude towards persons with disabilities, and the use of correct and inclusive language units serves to strengthen social equality.

Tayanch so‘zlar: *nogironlik, nogironlikning ijtimoiy modeli, media, qahramon obrazi, stereotip, inkluziv muhit.*

Kirish. Nogironlik tushunchasi asrlar davomida turli yondashuvlar asosida talqin qilinib kelgan. Unga ba’zan hayriya obyekti, ba’zan esa tibbiy tashxis nuqtai nazaridan qaralgan. Uzoq yillar davomida jamiyatda nogironlik ko‘proq shaxsning individual muammosi sifatida baholanib, asosiy e’tibor uning jismoniy yoki ruhiy cheklanishiga qaratilgan. Biroq XX asrda Britaniyada shakllangan nogironlikning ijtimoiy modeli ushbu yondashuvni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu modelga ko‘ra, nogironlik insonning o‘zida emas, balki uning to‘laqonli ishtirokiga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy, madaniy va infratuzilmaviy to‘siqlarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham nogironlikka doir qarashlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, inkluziv ta’lim, inkluziv bandlik va teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan islohotlar nogironlikning ijtimoiy modeliga yaqinlashish jarayonini tezlashtirdi. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilinishi bu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur maqolaning maqsadi nogironlik tushunchasining mediyada qanday ifodalanishini, ushbu ifodalar jamiyat ongida qanday tasavvurlarni shakllantirishini hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan ijtimoiy munosabatga qanday ta’sir ko‘rsatishini ijtimoiy-lingvistik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

